6. Симонов А.В. ГАТ - бу географик координатали маълумотларни рақамли тасвирлаш, тўлдириш, бошқариш, кўпайтириш, таҳлил қилиш, математик-картографик моделлаштириш ва образли тасвирлаш учун яратилган аппарат-дастурли воситалар ва алгоритмик муолажалар тизимдир[13].

Бу келтирилган таърифларда ГАТ тушунчаси тўғрисида ўхшаш жиҳатлар мавжуд бўлсада, умуман бир биридан фарқланувчи иборалар ҳам ишлатилган.

Бундан ташқари айрим олимларнинг таъкидлашича, бутун дунёда геоахборот тизими(ГАТ) технологиялар Ерни кенг фойдаланувчилар доираси (*Digital Earth*) йўналиши[14,15] томонидан ўрганиш, давлатларнинг рақамли иқтисодиётини ривожлантиришнинг замонавий тенденциялари контекстида муҳим аҳамият касб этмоқда[16], уларнинг барқарор ривожланишини таъминлаш[17] ва юқорида қайд этилган илмий-ишлаб чиқариш вазибалари комплексини ҳал этиш муқаррар равишда география, картография, геоинформатика ва унга боғлиқ йўналишлар бўйича ўқув жараёнининг юқори даражасини таъминлаш заруратини келтириб чиқаради

ГАТ ижтимоий-иқтисодий тизимларнинг ҳудудий ва вақтинчалик хусусиятлари тўғрисида замонавий рақамли технологиялар асосида ишлайдиган ижтимоий-техник

комплексларни англатади. Геоинформатика ва картографиянинг ўзаро таъсири геоинформацион хариталашни шакллантириш учун асос бўлди, унинг моҳияти ГАТ асосида табиий ва ижтимоий-иқтисодий геосистемаларни автоматлаштирилган ахборот ва картографик моделлаштиришдир. Аввало, бу бошқарув қарорларини қабул қилишга қаратилган хариталарни тизимли (одатда кетма-кетликда) яратиш ва улардан фойдаланишни билдиради.

Интерактив геоахборот хариталашнинг асосий афзалликлари куйидагилардан иборат: ҳудуднинг исталган қисмини маълум даражадаги тафсилотлар билан кўрсатиш, ҳудудий тизимнинг ҳолати тўғрисида маълумот олиш, маълумотларни чизиш ва тузатиш, кўплаб ҳисоблаш муаммоларини ҳал қилиш, харитада ахборотни қайта ишлашнинг мавжуд аналитик усулларида фойдаланиш ва янги маълумотларни киритиш. Шу билан бирга, харитадан фойдаланиш ва таҳлил натижаларини олиш учун самарали имкониятларга эга бўлишнинг ҳар хил шакллари мавжуд (жадвал шакли, картографик тасвирлар, графикалар ва бошқалар).

Интерактив географик ахборот хариталари-қабул қилинган анъанавий белгилар тизимида дастурий воситалар ёрдамида визуализация қилинган ва ҳудудни акс эттириш ва таҳлил қилиш, ахборот ва ҳисоблаш муаммоларини ҳал қилиш учун мўлжалланган рақамли харита. Бу сизга статистик маълумотларни уларга боғлаш, математик усуллар ёрдамида таҳлил қилиш ва маълумотларни жадвал ва картографик шаклда намойиш қилишни ташкил қилиш имконини беради.

Шундай қилиб, давлат ва жамиятни ривожлантиришнинг стратегик вазифаларини ҳал этиш географик ахборот тизимларини (ГАТ) ер тузиш, табиатдан фойдаланиш, ҳудудий режалаштириш, ердан фойдаланишни бошқариш ва ҳоказоларда бошқарув қарорларини қабул қилиш амалиётига тўлиқ жорий этишга асосланади.

Рақамли иқтисодиётни шакллантириш ва ривожлантириш шароитида асосий вазифа метагеотизимлар фаолиятини таҳлил қилиш, моделлаштириш ва прогнозлаш соҳасида бошқарув қарорларини қабул қилишни қўллаб-қувватлаш учун муаммога йўналтирилган геоахборот тизимларини (ГАТ) лойиҳалашда ва юқори самарали маданий ландшафтларни режалаштиришда фундаментал ёндашувларни ишлаб чиқишдан иборат.

ГАТ технологиялари асосида яратиладиган интерактив карталар:

- ҳудудий тараққиётнинг умумий даражаси, ҳудуд иқтисодиёти асосий тармоқларининг ҳолати, ҳудуднинг иқтисодий ҳолати, инвестицион фаоллик, аҳоли даромадлари даражаси, бандлик ва меҳнат бозори, ижтимоий соҳа ҳолати, экологик вазият, халқаро иқтисодий фаолият сингари ҳудудий диагностика кўрсаткичлари ва шу асосида ҳудудлар рейтингини ҳамда ривожланиш индексини аниқлаш методологиясини такомиллаштириш;

- ижтимоий-иқтисодий ривожланиши даражаси бўйича ҳудудлараро дифференциялашувнинг чуқурлашиб кетишини олдини олишнинг амалий дастакларини шакллантириш имконини беради.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.Оzbekiston нашриёти, 2021.464 б.
2. Safarov E.Y., Abduraximov X.A, Oymatov R.K.- Geoinformatsion Kartografiya o'quv qo'llanma, Toshkent Universitet 2012.

3. Будикин А.Е., Андреев Д.В. Основные аспекты применения геоинформационных систем в экономике РФ // Московский экономический журнал. 2018. №5
4. Володина Е. Что такое ГИС / Е. Володина // Архитектура Строительство Дизайн. — 2009. — № 4. — С. 4-9.
5. Bloomberg NEF and United Nations Environment Programme (UNEP), REN21. Renewables 2020 Global status report. Paris-2020. P. 166.
6. Адилова М. Экологик ва иктисодий интерактив хариталаш худудларни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш муаммоларини ўрганиш воситаси сифатида: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss5/a69 //Экономика и образование. – 2022. – Т. 23. – №. 5. – С. 418-426.
7. Кочетов Э.Г. Геоэкономика. Освоение мирового экономического пространства: Учебник для вузов. — М.: Норма, 2010. — 528 с.:
8. Alber R. What You'll Need To Know To Use GIS in 2001 //Cartographic Perspectives. – 1995. – №. 21. – С. 53-56.
9. Berry J. K., Mehta S. An analytical framework for GIS modeling //Nature. – 2010. – Т. 2. – С. 2-0.
10. Clarke K. C. Mobile mapping and geographic information systems //Cartography and Geographic Information Science. – 2004. – Т. 31. – №. 3. – С. 131-136.
11. Konecny M. Cartography: challenges and potential in the virtual geographic environments era //Annals of GIS. – 2011. – Т. 17. – №. 3. – С. 135-146.
12. Кошкарев А. В. и др. Виртуальная ГИС-лаборатория как инструмент анализа пространственных данных //Труды Института системного программирования РАН. – 2012. – Т. 23. – С. 245-256.
13. Симонов А. В. Геоинформационное образование в России: проблемы, направления и возможности развития //ИБ ГИС-Ассоциации. – 1996. – Т. 3. – С. 54-55.
14. Guo H. Manual of Digital Earth / H. Guo, M. F. Goodchild, A. Annoni // Singapore : Springer, 2020. – 846 p.
15. Guo H. Manual of Digital Earth – A Milestone Book in Digital Earth History / H. Guo // International Journal of Digital Earth. – Vol. 13, Issue 1. <https://www.tandfonline.com/doi/epub/10.1080/17538947.2019.1700631?needAccess=true>.
16. Кошкарев А.В. Геоинформатика в инфраструктурном обеспечении цифровой экономики /. – 2019. – № 1. – С. 119–126.
17. The Experience in Information Support for Sustainable Development of Territories with Regional Specifics / О. Yu. Cheresnaya, P. De Maeyer, V. Gribok // Science. Innovations. Technologies. – 2021. – No. 4. – P. 63–76.
18. Лурье И. К. Университетское картографическое образование в эпоху перемен // Геодезия и картография. – 2017. – № Спецвыпуск. – С. 4–15.
19. Пошивайло Я. Г. Разработка концепции подготовки кадров для геопрограмственной индустрии в рамках сквозных технологий цифровой экономики / Геоинформационное обеспечение устойчивого развития территорий : материалы Междунар. конф. – М. : Географический факультет МГУ, 2021. – Т. 27, ч. 1. – С. 29–43.

KON-METALLURGIYA OQAVA SUVLARINI TOZALASH BIOTEXNOLOGIYASI

Farmanova M.A

Navoiy davlat pedagogika institute

Hozirgi vaqtda barcha mamlakatlarda aholi sonining keskin ko'payib borishi ularning toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojlarining ham o'sishiga olib keldi. Bu ehtiyojni qondirish maqsadida bizning yurtimizda ham sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini jadal sur'atlar bilan ishlab chiqarish, ularni iste'molchilarga yetkazish birinchi galdagi vazifa bo'lib qoldi. Bunday vazifalarni amalga oshirish maqsadida yirik sanoat korxonalarini barpo etish tobora ko'proq amalga oshirilmoqda. Buning oqibatida toza suvga bo'lgan ehtiyoj ham tobora ortib bormoqda.

Respublikamizda suv resurslaridan barqaror foydalanish, ekologik muhitiga salbiy ta'sir etuvchi sanoat korxonalaridan ajralib chiqqan oqova suvlarni yuksak suvo'tlari bilan biologik tozalash va suv resurslarining kollektor-zavur suvlarini miqdor va sifat o'zgarishlarini baholashga oid va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha keng-qamovli ilmiy – tadqiqotlar ishlarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kon-metallurgiya inshooti oqova suvlarini tozalash maqsadida yuksak suv o'simliklarning ko'chatlarini dastlab laboratoriya sharoitida ko'paytirish uchun maxsus yaratilgan sun'iy ozuqa muhitlarida o'stirildi. Bunda yuksak suv o'simliklaridan eyxorniya (*Eichhornia crassipes* Solms.) tanlab olindi.

Sistematik birligi	O'simlik
Bo'lim:	Angiospermlar
Sinf:	Monokotlar
Kenja sinf:	Commeliaceae
Oilasi:	Pontederiaceae
Turkum:	Eyhornia
Turlari:	Oddiy eyhornia
Lotin nomi	SolmsEichhornia crassipes So lms

Eyhorniya o'simligi suv betida qalqib o'suvchi o'simlik bo'lib, uning qoshiqsimon, silliq, yashil, yaltiroq tusdagi barg yaproqlari ovalsimon shaklda, chetlari tekis, simmetrik bo'ylamasiga parallel joylashgan va tomirlari aniq ko'rinib turadi. Barg bandlari asosida, havo bilan to'lgan sharsimon etdor qismi aerenxima o'simlikni suv yuzasida qalqib turishini ta'minlaydi.

O'simlik filtratsiya xususiyatlariga ega, og'ir metallarning sorbsiyasi, so'rilishi va to'planishi, kimyoviy birikmalarning konsentratsiyasini kamaytiradi.

Eyhorniya o'simliklari tomonidan suvni og'ir metallardan tozalash sifatini o'rganish uchun ozuqaviy substrat sifatida GMZ-2 dagi 2-sonli qoldiq omboridan olingan suv, GMZ-3 qoldiqlaridan foydalanildi.

Ekish quyidagi asosda amalga oshirildi: GMZ-3 qoliq omboridan olingan suv maxsus tayyorlangan 8ta boshkaning birinchisiga tomchilab sug'orish usulidan foydalangan holda ochib quyildi. Tomchilash orqali 1-bochkadagi qisman filtrlangan suv boshqalariga ketma ketlikda o'tishi ta'minlandi. Har bir bochkada suv qisman filtirlandi. Ushbu jarayon 24 kunni o'z ichiga oldi.

GMZ-3 suv omborida o'stirilgan o'simliklarning normal o'simliklarga nisbatan epiderma hujayralarining balandligining oshishi va bulutsimon parenximadagi qatorlar sonining ko'payishi, hujayra oraliqlarining kengayishi bilan izohlanadi. SHunday qilib, ifloslangan suvlarda o'sgan eyxorniyaning nazorat o'simliklarga nisbatan barg yaprog'i kattalashadi va qalinlashadi. Hujayra oraliqlari kengaygan, o'tkazuvchi naylar bog'lamlarida mexanik to'qima hujayralari soni ko'paydi. Poya va qo'shimcha ildizlarning diametri kattalashadi. Po'stloq parenximi kengaygan. Hujayra oraliqlari, o'tkazuvchi naylar bog'lamlarida kristallarning soni ko'paydi. Barcha organlarning parenximi hujayralarida qora rangdagi zarrachalar ko'p miqdorda to'planadi. Ular, ayniqsa qo'shimcha ildizlarning o'tkazuvchi naylar bog'lamlari atrofida ko'proq uchraydi.

24 kun davomidagi tajribadan olingan natijalar dastlabki GMZ-3 suv omboridagi suv natijalari bilan solishtirilganda bir qancha ijobiy natijalarga erishildi. GMZ-3 suv omboridan olib kelingan na'munaning pH=7,9 bo'lsa tajriba so'ngida olingan suvning pH, SiO₂, Ca, Mg, NO₂, NO₃, SCN, SO₄, Cl⁻ moddalarning miqdorlarida farqlar mavjudligini guvohi bo'ldik.

TABIIY RESURLARNI BOSHQARISH, EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI

Toirova N.A.¹, Shavkidinova N.M.²

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Toshkent farmatsevtika insituti

Konstitutsiyamizning 50-moddasida «Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bolishga majburlarlar»-deya belgilab qo'yilgan. bundan ko'rinib turibdiki, atrof muhitga bo'lgan munosabat bosh qomusda ham keltirib o'tilgan. Bu esa fuqarolarning ekologik majburiyatlarini konstitutsiya darajasida mustahkamlaydi. Muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning 2010-yil 20-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining "Ming yillik sammiti"da so'zlagan nutqida Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistondagi ekologik muammolarga alohida e'tibor qaratildi, "Mintaqaviy muammolar majmuyiga e'tibor qaratilar ekan, ekologik xavfsizlik va atrof-muhit masalalarini chetlab o'tish mumkin emas..." bu so'zlar zamirida ekologiya uchun faqatgina mas'ul xodimlar emas, har bir inson javobgar ekanligini anglatadi.

Ekologiya har doim global muammo sanalib kelgan. Dunyo aholisining keskin o'sishi o'z navbatida katta miqdordagi yerlarning o'zlashtirilishi, tabiat va sanoat-industrial jamiyat o'rtasidagi chegaralarning buzilishiga olib keladi. Atrof-muhit, jonli tabiat esa maishiy chiqindilar ichida qolib ketmoqda. Global muammolar haqida fikr yuritadigan bo'lsak ularning katta qismi aynan ekologiya va atrof-muhitga bog'liq ekanini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, Ozon qatlamining yemirilishi, chuchuk suv miqdorining keskin kamayib ketishi, shimoliy va janubiy qutb muzliklarining erishi, buning oqibatida esa dunyo okeani sathining bir-necha metr ko'tarilishi, okean suvlarining sho'rlanishi, noyob hayvon turlarining yo'qolib ketish darajasida kamayib ketganligi, tabiiy landshaftlar o'z qiyofasini o'zgartirganligi, havoning ifloslanganligi, sanoat yetakchi o'rin egallagan davlatlarda atmosferaning karbonat angidrid gazi bilan to'lganligi(xitoyda yoz oylarida qizil rangdagi qor yog'ishi, Hindistonning Munbay shahridagi havo tarkibidagi zararli moddalarning kislorod miqdorga qaraganda ko'p bo'lishi) global muammolar orasida yetakchi.

Hayvonot olami, o'simlik dunyosi ushbu ko'rsatkichlarda kamayib boradigan bo'lsa, kelajak avlod jonli tabiatni ko'ra olmasligi mumkin. Dunyo hamjamiyati ushbu muamolarni bartaraf qilish uchun barcha imkoniyatlarni amalga oshirmoqda, ammo nomutanosiblik bunga yo'l qo'ymaydi. Taniqli ekonomist John Harper tabiatdagi o'zgarishlarni izohlar ekan, "Tabiat barcha narsani hazm qilishi mumkin, biroq uning sog'lom muhiti yo'qolishi muqarrar" deydi. Xo'p, bu nima degani? Aynan tahlil jarayoni uchun amerikaga birinchi marta insonlarning tashrifini ko'rib chiqamiz. Yevropaliklar Amerika atroflariga ko'chib kelganlarida, ular ko'rgan narsa shu bo'ldiki, tabiatga umuman ziyon yetkazilmagan edi. Shundan keyin tuproqqa ishlov berish va dehqonchilik natijasida sekin-asta yerlar eroziyaga uchraydi. Ba'zi yovvoyi tabiatdagi turlar xavf ostida qoldi, ba'zilar esa umuman yo'qolib ketdi. Yangi texnologiya atrof-muhitga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bug' va dizel mashinalari, kommertsion neft qazib olish, ko'mirni kuydirish, sanoat rivojlanishi chiqindilarni chiqishi va atrof muhitni ifloslanishiga olib keldi. Inson tashrifigacha saqlangan noyob tabiat zavol topdi.

Inson tirik organizmlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etib yoki yashash sharoitini o'zgartirib, uning tarqalishiga yoki qirilib yo'q bo'lishiga sababchi bo'lishi mumkin. Inson tabiatga ko'rsatadigan kuchli ta'siri orqali abiotik va biotik sharoitlarni o'zgartiradi. Inson million yil davomida tarkib topgan tirik dunyo manzarasini bir necha o'n yilda o'zgartirib yubordi. Uning tirik organizmlariga salbiy ta'siri natijasida Yer yuzida ko'plab o'simlik va hayvon turlari yo'qolib ketdi.

Ushbu jadvalda insonning ko'payishi haqida ma'lumot beriladi. Hozirda dunyo aholisi 8.129,050.275 nafarni tashkil etmoqda. Bu korsatkich o'sishda davom etadi. Aholi o'sar ekan uning talab va ehtiyojlari oshib boradi. Xususan Resurslarga bo'lgan talab. Foydali qazilmalar insoniyat va uning xo'jaligi taraqqiyoti uchun energiya va yoqilg'i manbai bo'lib, yildan-yilga ulardan foydalanish ortib bormoqda. So'nggi 25 yil ichida dunyoda ko'mirga bo'lgan talab 2 marta, temir rudasi 3 marotaba, neft va gazga bo'lgan talab 6 marotaba, marganes, kaliy, fosfor tuzlariga talab 2-3 marotaba oshgan. Har yili 150 mlrd tonna mineral xom-ashyo qazib olinmoqda. Tabiiy jarayon oqibatida daryolar, dengiz, okeanlarga har yili 15 mlrd tonna tog' jinslarini oqizib kelinmoqda, 3-4 mlrd tonna chiqindi gazlar atmosfera havosiga ko'tarilmoqda.

Inson foydali qazilmalarni o'zlashtirishi oqibatida 1500-2000 mlrd tonna tog' jinslari bir joydan ikkinchi joyga joylashtiriladi. BMT ning ma'lumotiga qaraganda, dunyoda yiliga 32 mlrd tonna ko'mir, 2.6 mlrd tonna neft, 6 mlrd tonna ternir rudasi, 3.6 mln tonna xrom rudasi, 7.3 mln tonna mis rudasi, 3-4 mln tonna qo'rg'oshin rudasi, 159 mln tonna tuz, 120 mln tonnafosfotlar, 1.2 mln tonna uran, simob, molibdan, nikel, kumush, oltin, platina rudalari qazib olinmoqda.

Aholi ko'paygani sari resurslar va jonli tabiat qisqarib boradimi? Javobi -bunday bo'lmaydi, tabiatni saqlab qolish, resurslardan unumli foydalanish, ekotizimni asrash va boyitishga qaratilgan chora-tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Jamiyatning ta'lim olish va intellektual potentsialini o'sishini ta'minlovchi sharoit yaratilgan bu tabitga bo'lgan munosobatni yaxshilaydi.

Tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari takomillashtirilgan, bu unumli foydalanish va tabiatga ko'p miqdorda zarar bermaslikni ta'minlaydi. Maxsus muhofazaga olingan hududlarni boshqarish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan. "Qizil kitob", Qo'riqxonalar bunga misol bo'ladi. Atrof-muhitni ifloslanish manbalarini aniqlash bo'yicha nazorat tizimini takomillashtirilgan va rivojlantirilgan. Maishiy chiqindilar qayta ishlash orqali ifloslanish qisqargan. Genetik fond, turlar va landshaftlar xilma-xilligini saqlash borasida yuzlab ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda.

Xususiylashtirish jarayonlarida ekologik talablarga rioya qilish va atrof-muhitga zarar keltirmaslik uchun javobgarlik va nazorat qilish mexanizmini yaratish ustuvor qilib belgilangan. Xalq xo'jaligining turli sohalarida ekologik toza texnologiyalar, chiqindilarni zararsizlantirish va o'zlashtirish bo'yicha ilmiy-texnik ishlanmalarni hayotga tadbiq etish, hamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni davom ettirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Atrof-muhitni muhofazasi, tabiiy resurslardan foydalanish masalalari bo'yicha hamjamiyat ekologik tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish va birgalikda ekologik qarorlar qabul qilish borasida samarili ishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda tabiiy resurslarni boshqarish va ekologik muamolarni bartaraf etish borasida sayi harakatlarga keladigan bo'lsak, qoniqarli darajada deya olamiz. Xususan ekoturiz sohasi. Zomin tog' landshafti, baxmal tumani ekologik muhiti, Guliston tumanidagi ekomaskan, shovot turistik qishlog'i, Samarqand sohilbo'yi dam olish maskanlari va so'nggi yillardagi sayi harakatlar, kata mehnat natijasida tashkil qilingan "Orolbo'yi ekologik tizimi" bunga yaqqol namuna bo'la oladi. Ekologik muammolarni hal etishning asosiy yo'nalishlari Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Vazirlar mahkamasi, turli nodavlat tashkilotlari hamda davlat tomonidan qabul qilingan

Atrof - muhitni muhofazasi, gigienik, biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy harakat rejalari va strategiyalarida o'z aksini topgan. Har bir viloyat, har bir shahar, har bir qishloqning o'z ekotizimi tashkillashtirilgan, bu quvonarli hol. O'simlik dunyosi boy va rang barang, hayvonlarni muhofaza qilish uchun qo'riqxonalar tashkil qilingan. qo'riqxonalarda har bir tabiiy mintaqa, balandlik mintaqasida tabiiy landshaftlar namunasi va landshaft elementlari, masalan, xarakterli manzara, relief shakllari, tabiat yodgorliklari, ayrim noyob turlar va hayvonlar saqlanib qolinadi.

Xulosa: Tabiatni asrash har birimizning qo'limizda, agar munosib fuqaro bo'lib o'z hissamizni qo'shsak albatta kelajak avlod uchun ham jonli tabiat va foydali resurslar saqlab qolinadi.

Adabiyotlar.

1.Makhmudova, A. (2018). Ensuring the competitiveness of the scientific approaches of eco-tourism a case of Uzbekistan. South Asian Journal of Marketing & Management Research, 8(11), 33-41.

2. Makhmudova, A. (2020). Organizational and economic reasons preventing the development of ecological tourism in Uzbekistan. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1217-1220.
3. Махмудова, А. П. (2017). Факторы повышения конкурентоспособности агропромышленной продукции. *Инновационное развитие современной науки: проблемы, закономерности, перспективы* (pp. 123-125).
4. Набиев, Г. А., & Бакирова, О. (2022). Формирование предпринимательских компетенций у школьников. *Scientific progress*, 3(2), 952-958.
5. Набиев, Г. А., & Бакирова, О. (2022). Развитие предпринимательских компетенций у обучающихся общеобразовательной организации. *Scientific progress*, 3(2), 944-951.
6. Nabiyeu, G. A., & Isroilova, D. D. (2022). Problems of formation and development of small business and private entrepreneurship. *Scientific progress*, 3(3), 46-51.

APPLICATION OF MEMBRANE TECHNOLOGIES BASED ON REVERSE OSMOSIS AND ULTRAFILTRATION METHODS

**Urunova X.Sh¹. Esanbayeva H.N².
Navoi State Mining and Technology University¹
Tashkent Pharmaceutical Institute²**

Today in protecting the entire universe from anthropogenic influences is receiving great worldwide attention. Pollution of the environment leads to disruption of the activity of the hydrosphere and biosphere, the ecological problem of pollution of the hydrosphere with waste water is becoming urgent in the world, including in Uzbekistan, in order to reduce and prevent these problems, and to use water resources effectively. These days, great importance is attached to the prevention of pollution of water bodies. Wastewater from households and industrial enterprises is treated in facilities and discharged back into water bodies.

Water has main importance in nature and ensuring the life of mankind. In industry, water is used as a raw material and energy source, a cooling or heating agent, solvent, extractant, vehicles which carry raw materials and for other materials.

Therefore, it is necessary to improve the engineering works of wastewater treatment further in water protection. Water can be purified again by solar radiation and by injecting clean water into dirty water

But if the water is oversaturated with various impurities, then various independent or complex methods are used to clean it. In order to create a closed system of water supply, industrial waste water is treated by mechanical, chemical, physico-chemical, biological and thermal treatment methods, depending on the type of enterprise, to the required quality of water. Hydromechanical processes are used to separate suspended particles from the composition of wastewater, and chemical processes are used to separate physico-chemical, organic and inorganic solutions for colloidal dispersed systems. The choice of these processes depends on the particle size, physico-chemical properties, their concentration in water, and waste water consumption.

Therefore, the following methods are used in wastewater treatment:

1. Mechanical methods (swimming, defecation, drowning, filtering, centrifugation) etc.);
2. Physicochemical methods (adsorption, coagulation, flocculation,

flotation, ion-exchange, extraction, etc.)

3. Chemical (reagent) methods (neutralization, oxidation, return);

4. Biochemical methods (under aerobic, anaerobic conditions);

5. Thermal methods (involving high temperature).

These methods in turn are divided into different cleaning processes, first of all, the mechanical method is used. The process of cleaning the water produced in production factories is based on quite complex, specific procedures, and the chemical reagents that are the main means used in its cleaning have an impact on the environment, the impact of the solutions contained in the air, and the presence of brownish-yellow lignin in the effluents has a negative impact on the ecological environment. Therefore, the studying the processes of removing dissolved substances from the wastewater and wastewater treatment, developing the factors affecting it on a scientific basis, and solving the problems of using effective water purification methods, including membrane technologies based on reverse osmosis and ultrafiltration methods show the relevance of the topic. In order to reduce the initial consumption of water taken from the water source for industry, it is purified and reused by the membrane method.

- Avoid high content of mineral solution when reusing water.

- Preventing falling harmful and various wastewaters into natural water bodies.

In order to achieve this goal, using modern membrane methods, it is possible to not only reuse water, but also to clean it from organic and mineral salts and recover useful substances under favorable conditions. The rapid development of electricity production in our country and abroad is characterized by the consumption of a large amount of water for each unit of produced products, as well as the generation of wastewater. This, in turn, has a negative impact on the environment, especially on the natural state and condition of water bodies. At the moment, the urgent issue of optimal and rational use of water in the production of electricity, the establishment of new technological methods and systems of closed-loop wastewater treatment is waiting for its solution.

Quality indicators

TABLE 1

Indicators	Normative indicators of water	
	Technological	Demineralized
Hydrogen indicator. pH	8.4	6.2
Composition of components, mg/l:		
- chlorides,	9.9	0.03
- sulfates	280	0.26
- nitrates	33	0.13
- bicarbonates	250	0.43
- silicates	10	0.03
- calcium	109	0.16
- magnesium	45.3	0.07
- gland	0.05	0.00
- dry residue	813	1.2

But the solution to this problem faces various difficulties in the production of electricity, which is related to their composition, the diversity of technological processes, and the uneven distribution of organic and mineral pollution in separately obtained wastewater. During wastewater treatment in industrial enterprises, it is considered important to remove dissolved and suspended mineral and organic substances, which have a negative effect on the composition of wastewater, and to return clean water to production. The quality indicator of water depends on dissolved and suspended mineral and organic substances in it. They represent pH, oxidation, color and other properties of water. Wastewater is demineralized to make it suitable for production. For this, water is purified by reverse osmosis (membranes):

Processed and demineralized wastewater
Water quality indicators

TABLE 2

Indicator	Normative indicators of water	without mineralization
Hydrogenindicator. pH	7.4	5.2
Composition of components, mg/l:		
- chlorides	9.7	0.02
- sulfates	280	0.26
- nitrates	33	0.13
- bicarbonates	250	0.43
- silicates	10	0.03
- calcium	109	0.16
- magnesium	45.3	0.07
-gland	0.05	0.00

Preparation of defecated and softened water from used stream water for industrial enterprises. One of the most important indicators of water is its hardness. Hardness mainly depends on the amount of calcium and magnesium salts in the water. When the hardness of water is temporarily heated (containing $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ to 120...200°C, it was found that the total hardness decreases by 620..3700 times [3].

The water used for the production of electricity must have the following properties: - iron ions in the water should not exceed 0.1 mg/l and manganese ions should not exceed 0.05 mg/l. Otherwise, iron bacteria will form in the boiler and pipes, and the development of iron bacteria will begin in the pipes; the amount of chlorides in the water must not exceed 10 mg/l; the amount of substances dissolved in water should be high, and the hardness of the salts contained in them should not exceed 0.2 mg-equiv/l; free SO in the water content: the amount should not exceed 10 mg/l, otherwise the pH of the water will become acidic and lead to corrosion of the metal surface; the hardness of the water creates a layer of salt on the inner surface of the boiler and reduces the heat exchange.

The main indicators of technological and demineralized water for an electric power generation enterprise are presented in the table below.

Membranes in the above-mentioned enterprise can be contaminated with the following poorly soluble compounds: CaCO_3 , CaSO_4 , BaSO_4 , MgSO_4 , CaF_2 . Membranes are periodically cleaned. 2% citric acid is used for this. For disinfection, it is treated with 0.2% hydrogen peroxide.

Literature

1. Primkulov M.T., Maksudov Y.M., Rakhmonberdiev F.P. "Technology of cellulose production from annual plants" Kompozitsionnye materialy-№ 3.2008. Pages 70-74
2. Kadyrov B.G., Tashpulatov Yu.T., Primkulov M.T. Technology klopkovogolinta, cellulose and paper. -Tashkent: Izd "fan". 2005.
3. Kudratov O.D. Industrial ecology. 2nd edition. Sirdaryo DU, printing room 1999.
4. Baromembrane processes. Teoriya i raschet / Dytnersky Yu.I. - M.: Khimiya, 1986. 272 p.
5. Urunova H.Sh. Akhmedova N.M. Optimization technology ochistki promyshlennyykh stochnykh vod. Uzbekistana Universum: technical science. Vypusk: 6(99) 2022 Chast 5, str 53-57

ЭКОЛОГИК ТОЗА ВА ҚАЙТА ТИКЛАНДИГАН ЭНЕРГЕТИКАНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ХУСУСИДА

Қаландарова Г.Н.
Тошкент Давлат Иқсодиёт Университети

Янги иқтисодиётни барпо этиш экологик талабларга жавоб бермайдиган эскирган тармоқлар фаолиятини тўхтатиш, мавжуд тармоқларни экологик талаблар асосида қайта қуриш, янги замонавий инновацион тармоқларни эса жадал ривожлантиришни ўз ичига олади. Бунда асосий ўринни янги иқтисодиётни ҳаракатга келтирувчи қайта тикланадиган ва тугамайдиган, экологик тоза энергия манбаларидан оқилона фойдаланишга ўтиш эгаллайди. Бунинг асосий сабаби ҳозирги ёқилғи энергетиканинг табиатга емирувчи таъсирининг кучайиши, ёқилғи нархларининг кескин ошиб кетиши, аниқланган энергия ресурслари захираларининг камайиши ва бошқалар билан узвий боғлиқдир.

Энг истиқболли муқобил энергия манбалари куёш, шамол, сув, геотермал, атом, термоядро, водород энергияси, шунингдек органик чиқиндилардан олинадиган биогаз ҳисобланади. Бунда атом энергетикасида энергия ҳосил қилиш юксак технологияни талаб этиши, дунёдаги уран, плутоний захираларининг чекланганлиги ва экологик хавфининг юқорилиги, унинг оммавий энергия манбаи бўлишига тўсқинлик қилишини ҳисобга олиш керак. Бошқа манбалар ёрдамида энергия ишлаб чиқариш ҳамма жойда нисбатан осон ва арзон амалга оширилиши мумкин, улар экологик жиҳатдан мутлақо зарарсиз, атроф-муҳитни ифлослантирмайди, одамлар саломатлигига зарар етказмайди.

Олимларнинг тадқиқотларига кўра, келгуси 50-йилда кўмир, нефть, газ каби энергия турлари ўрнини қуёш, шамол ёрдамида олинадиган энергия эгаллайди.

Бугун инсоният янги таҳдидлар бўсағасида турибди. Дунё аҳолиси кўпайишда давом этапти, табиий ресурслар захираси эса муттасил қисқармоқда. Бундай диспропорция мамлакатларни танг ахволга солиб қўяётгани ҳақиқат. Аввало, глобал экологик муаммоларнинг кескинлашувини кузатишимиз. Биз яшаётган Марказий Осиёда сўнгги 30 йилда ўртача йиллик ҳарорат тахминан бир даражага кўтарилди. Шунинг учун, минтақамиздаги асосий дарёларнинг ҳавзаси ва биологик хилмахилликнинг қисқариб бораётгани жиддий хавотир уйғотмоқда. Бугунги кунда “яшил тараккиёт” борасидаги мақсадларга эришиш учун давлатларнинг ҳаракатлари янада фаол ва самарали бўлиши кераклигига ҳеч ким шубҳа қилмаяпти.

Халқаро молиявий институтларнинг ҳисоб-китобига қараганда, республикада муқобил энергия (айниқса, қуёш энергияси)нинг йиллик захираси 270 миллион тонна шартли ёқилғи эквивалентига тенг. Боз устига “яшил энергетика” соҳасидаги лойиҳаларни амалга ошириш Ўзбекистонда яқин ўн йилда қайта тикланадиган энергия манбалари улушини 3 баробардан зиёдга кўпайтириш имконини беради.

“Яшил иқтисодиёт” энергетика соҳасидан ташқари, тоза ичимлик суви муаммолари, озиқ-овқат хавфсизлиги, қишлоқ хўжалигидаги инновациялар, барқарор шаҳарлар, чиқиндиларни оқилona бошқариш, ўрмон ҳудудларини кенгайтириш, чўлланишни қисқартириш каби кўп қиррали ва кенг тармоқли чора-тадбирларни ўз ичига олади.

“Ҳозирги энергетика инқирози шуни кўрсатмоқдаки, инсоният қайта тикланадиган энергия манбаларига ўтишни имкон қадар тезлаштириши керак. Ҳозир сусткашлик қилиб бўлмайди. Энергетика хавфсизлигига элтувчи ягона йўл — шу” деган эди БМТ Бош қотиби Антониу Гутерриш[1]. Дарҳақиқат, бугунги кунда энергиядан фойдаланиш ҳажми шунчалик кенгаймоқдаки, унинг келгусида янада кўпайиши биосфера, демак, инсониятнинг ривожланиши учун ҳам катта хавф туғдиради. Шу сабабли бутун дунёда ўтган асрнинг охириги ўн йилидан бошлаб энергиянинг қайта тикланадиган экологик тоза манбалари, аввало, қуёш ва шамол манбаларидан фойдаланишга алоҳида эътибор қаратила бошланди.

Айни чоғда Ўзбекистонда ҳам “яшил” иқтисодиёт, хусусан, “яшил” энергетикани ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Муқобил энергия манбалари — бу гидроэнергетика, шамол, қуёш, геотермал, биомасса ва сув оқимидан фойдаланиш орқали олинувчи қайта тикланадиган энергиядир. Нефть, табиий газ, кўмир ва уран каби қазиб олинадиган ёқилғидан фарқли ўларок, бу энергия манбалари тугамайди, шунинг учун улар “қайта тикланадиган” деб аталади.

Иқлим ўзгариши билан боғлиқ муаммоли масалалар мамлакатда амалга оширилаётган ислохотлар самарадорлигига, хусусан, иқтисодий ўсиш ва камбағалликни қисқартириш, экологик ва озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашга ўзининг салбий таъсирини кўрсатади. Шундан келиб чиқиб, ушбу йўналишда мамлакатда иқлим ўзгариши таъсирини камайтириш ва унга мослашиш, «яшил» иқтисодиётга ўтиш чораларини жадаллаштириш, «яшил» ва инклюзив иқтисодий ўсиш моделини тарғиб қилишга катта эътибор қаратилмоқда.

Бу борада, мамлакатда «яшил» иқтисодий ўсишни рағбатлантириш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, «яшил» инвестицияларни жалб қилиш, экологик инкирознинг салбий таъсирини юмшатиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 октябрдаги ПҚ-4477-сон қарори билан 2019 — 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтиш стратегияси тасдиқланган[2].

Шу билан бир қаторда, 2022 йил ноябрь ойида бўлиб ўтган Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Иқлим ўзгариши бўйича доиравий конвенциясининг 27-йиғилишида (COP27) Ўзбекистон Республикаси томонидан Париж битими доирасида 2030 йилга қадар ялпи ички маҳсулот бирлигида иссиқхона газлари эмиссиясини 2010 йилги кўрсаткичларга нисбатан 35 фоиз камайтириш бўйича қўшимча мажбуриятни ўз зиммасига олган.

Коронавирус пандемияси ва иқлим ўзгариши туфайли юзага келаётган салбий ҳолатларнинг сабоқлари иқтисодий ўсишни таъминлашда янада барқарор манбалар ва ёндашувларни қайта кўриб чиқиш, хусусан, мамлакатда «яшил» иқтисодиёт ва «яшил» иқтисодий ўсиш бўйича стратегик мақсадлар ва чора-тадбирлар амалга оширилишини самарали ташкил этиш заруриятини кўрсатмоқда.

2019 — 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтиш стратегияси асосида «яшил» иқтисодиётни ривожлантириш бўйича кўрилаётган чора-тадбирлар самарадорлигини ошириш, шунингдек, ушбу йўналишда давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларининг халқаро ташкилотлар билан ўзаро ҳамкорликдаги мувофиқлаштирилган саъй-ҳаракатларини таъминлаш Дастури ишлаб чиқилган. Дастурга асосан Ўзбекистонда 2030 йилга қадар қайта тикланувчи энергия манбалари улушини электр энергияси ишлаб чиқариш умумий ҳажмининг 25 фоизидан кўпроғига етказиш мақсад қилинган. Кўрилаётган чора-тадбирлар натижасида 2022 йил биринчи ярмида 817,16 млн. куб метр табиий газ, 447 млн. кВт/соат электр энергия ва 8,3 минг тонна нефть маҳсулотлари иқтисод қилинган. Бугунги кунда умумий қиймати 1438,7 млн. сўмга тенг электр энергетика, энергия тежамкорлик, муқобил энергия манбаларига оид 4 та “стартап” лойиҳа амалга оширилмоқда. Бундан ташқари, 2020 — 2022 йилларда давлат-хусусий шериклик асосида энергетика соҳасида умумий қиймати 1,88 млрд. АҚШ долларида ортиқ бўлган жами 8 лойиҳа бўйича ишлар ташкил этилган[3].

Юртимизда “яшил” энергетикани ривожлантиришга қаратилган қатор дастурлар амалга оширилди. Масалан, Навоий вилоятида ишга туширилган, қуввати 100 мегаватт бўлган замонавий қуёш фотоэлектр станциясини олайлик. Нафақат мамлакатимиз, балки бутун Марказий Осиёда ягона ҳисобланган ушбу станция йилига 252 миллион киловатт/соат тоза электр энергияси ишлаб чиқаришга қодир бўлиб, натижада 80 миллион куб метр табиий газни тежаш, атроф-муҳитга 160 минг тонна зарарли “иссиқхона газ” тарқалишининг олдини олиш имконини беради[4].

Мутахассисларнинг фикрича, юртимизда ана шундай ноёб қуёш фотоэлектр станцияларини қуриш ҳисобига жами 600 миллиард киловатт/соат электр энергияси ишлаб чиқариш имконияти мавжуд. Бу — мамлакатимизда жами энергияга бўлган талабдан 8 баробар кўп, дегани.

Ўтган йилнинг 20 декабрь куни Президентимиз Олий Мажлис ва халқимизга йўллаган Мурожаатномасида[5] ҳам ушбу долзарб масалага тўхталиб, мавжуд муаммолар, уларни ечиш йўллари ва вазифаларни белгилаб берди.

Иқтисодиётимиз барқарор ривожланиши учун энергетика соҳасига 25 — 30 миллиард доллар инвестиция керак. Шу боис сўнгги уч йилда соҳага 8 миллиард долларлик тўғридан-тўғри инвестициялар жалб қилинди. Жумладан, декабрь ойи бошида Бухоро, Наманган ва Хоразмда қуввати 500 мегаваттга яна 3 та қуёш станциясини қуриш режалаштирилган.

Хулоса ўрнида айтганда, қуёш, гидро ва шамол электр энергияси Ўзбекистон учун самарали. Чунки мамлакатимизни географик ўрни айнан қуёш ва шамол электр энергиясини ривожлантириш учун ўзига хос қулай имкониятларга эга.

Адабиётлар

1. World Energy Outlook 2022 shows the global energy crisis can be a historic turning point towards a cleaner and more secure future//<https://www.iea.org/news/world-energy-outlook-2022-shows-the-global-energy-crisis-can-be-a-historic-turning-point-towards-a-cleaner-and-more-secure-future>.
2. “2030 йилгача ўзбекистон республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислохотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 02.12.2022 йилдаги ПҚ-436-сонли қарори, <https://lex.uz/docs/6303230>.
3. “2019 — 2030 йиллар даврида ўзбекистон республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 04.10.2019 йилдаги ПҚ-4477-сонли қарори, <https://lex.uz/docs/4539502>
4. Навоийда умумий қуввати 100 мегаватт бўлган қуёш фотоэлектр станцияси ишга туширилади <https://xs.uz/uzkr/53811>
5. Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси//<https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН В РАЗВИТИИ ПРОГНОСТИЧЕСКИХ УМЕНИЙ ПРЕПОДАВАТЕЙ В СОВРЕМЕННОМ ВУЗЕ

Хамдамова М. И.

**Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами
Узбекистан**

ВВЕДЕНИЕ. В последние годы в Республике Узбекистан с учетом тенденций гуманитаризации и модернизации образования особое внимание уделяется проблеме внедрения в образовательный процесс передовых образовательных технологий. В Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года [3] были определены приоритетные задачи по качественному обновлению содержания образования и постепенному внедрению в образовательный процесс современных технологий и инновационных проектов.

В Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы [2] в числе ведущих направлений обозначено развитие социальной сферы, предусматривающей совершенствование науки и образования, которая, в свою очередь, решает проблему повышения интереса будущих преподавателей биологии к использованию современных инновационных образовательных технологий. Из вышеуказанных предложений следует сделать выводы, что биология является важным направлением в сфере высшего образования [7].

МЕТОДОЛОГИЯ

В настоящее время в нашей республике ведется интенсивная работа по реформированию образования. Об этом свидетельствует Послание Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева Олий Мажлису [1], в котором ставится задача вхождения нашей республики в одну из развитых стран путем внедрения инноваций в сферу науки и просветительской деятельности [1]. В контексте сказанного хотелось бы отметить быстро меняющееся общество предъявляет новые требования к личности педагога и его роли в педагогическом процессе. В обстоятельствах многополярности, полисистемности педагогической действительности преподаватель, обладая нелинейным, многомерным педагогическим мышлением, должен уметь предвидеть результат изменений в образовании, прогнозировать ход педагогического процесса и развитие конкретной педагогической ситуации [4].

В настоящее время высшим образовательным учреждением востребован педагог нового типа – мобильный, дальновидный, способный осуществлять профессиональную деятельность на основе постоянного прогнозирования. В этой связи особый акцент в контексте системы повышения квалификации педагогических работников должен быть сделан на процесс развития прогностических умений педагога. Формирование прогностических умений — процесс взаимодействия, взаимовлияния между овладением прогностическими действиями и развитием способностей к осуществлению этих действий применительно к различным педагогическим объектам. Определяя умения в целом как готовность личности к деятельности, решению практических, исследовательских, методических и творческих задач, мы определяем прогностические умения как готовность осуществлять действия, связанные с исследованием альтернативных путей и направлений развития субъектов и объектов педагогической реальности¹. При этом основанием для процесса развития прогностических умений является положение о том, что данные умения раскрываются через единство содержательного и технологического компонентов. Процесс развития прогностических умений педагогов характеризуется рядом признаков: ориентированностью на достижение качественно определенной цели; наличием этапов развития умений (информационного, процессуально-обучающего, деятельностного), последовательная реализация которых способствует достижению поставленной цели; осознанным характером происхождения процесса, что определяет его организационное единство. [5]. В нашем исследовании выделены следующие педагогические условия, обеспечивающие эффективность развития прогностических умений преподавателя:




Рисунок №1. Педагогические условия, обеспечивающие эффективность развития прогностических умений преподавателя

ВЫВОДЫ

Несомненно, нужно подчеркнуть, биологические дисциплины могут заинтересовать каждого обучающегося. Особенности преподавания биологических дисциплин в современных условиях обусловлены, прежде всего, высокими требованиями к уровню знаний будущих педагогов биологов, как фундаменту профессиональной и мировоззренческой подготовки. Остается один вопрос, профессиональная компетентность преподавателя, в частности компетентность, которая зависит от преподавателя, чем больше он будет работать над собой, тем улучшится качество занятий, которые он будет проводить [6].

ЛИТЕРАТУРА

1. Послание Президента Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёева Олий Мажлису. 25 января 2020 года [Электронный ресурс]. – URL: <https://uza.uz/ru/posts/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01-2020>.
2. Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года "О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан" № УП-4947. – Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017, № 6, ст. 70 [Электронный ресурс]. – URL: <https://lex.uz/docs/3107042/>.
3. Указ Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года "Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года" № УП-5847. – Собрание законодательства Республики Узбекистан, 09.10.2019 г., № 06/19/5847/3887; 30.04.2020 г., № 06/20/5987/0521. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/4545887/>.
4. Захаров, А. В. Формирование прогностических умений студентов педвуза через контекстное обучение / А. В. Захаров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2013. — № 5 (52). — С. 698-701. — URL: <https://moluch.ru/archive/52/6842/>

5. Султанова Т.А. Модельное представление процесса развития прогностических умений учителя // Дискуссия. 2015. №7 (59). С. 138 URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/modelnoe-predstavlenie-protssesa-razvitiya-prognosticheskikh-umeniy-uchitelya>.

6. Хамдамова М.И. "Методологические особенности преподавания «Анатомии и физиологии человека» студентам педагогических высших учебных заведений" // журнал Педагогика -2020- №1 – С-58

7. Хамдамова М.И. «Совершенствование методики преподавания предмета «Анатомия и физиология человека» на основе мультимедийных технологий (на примере педагогических высших учебных заведений)» автореферат кан. дисс. Самарканд- 2022- С.58

GO'SHTNING TARKIBI I VA FOYDALI JIHATLARI

Shavqiddinova Sevara

Navoiy davlat pedagogika institute

Go'sht — mollarning so'yilgandan keyin tegishli ishlov berilib, terisi, bosh va ichki qismlari, oyoqlari hamda ajratilgan butun tanasidir. Go'sht inson hayotida muhim ahamiyatga ega, chunki u organizmni to'liq qiymatga ega bo'lgan oqsil va yog' moddalari bilan ta'minlashda asosiy manbaalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, go'sht tarkibida uglevodlar, ekstraktiv moddalar, vitaminlar, fermentlar va mineral moddalar mavjudir. Uning tarkibiga hayvon organizmining muskul, birlashtiruvchi, yog', suyak va tog'ay to'qimalari, qon va hokazolar kiradi. Bu to'qimalarning kimyoviy tarkibi, anatomik tuzilishi bir xil emas, shu sababli bu to'qimalarning go'shtdagi miqdori hamda nisbatining ozuqaviy qiymatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Muskul va yog' to'qimalari ozuqaviy qiymati jihatidan eng qimmatlidir.

Go'shtning kimyoviy tarkibi molning turi, zoti, jinsi, semizligi, qaysi sharoitda, qanday yemishlar bilan boqilishi va boshqa omillarga qarab, ma'lum darajada o'zgarib turadi. Masalan, katta yoshdagi hamda semiz mollarning go'shti tarkibida yog' miqdori ko'proq, oqsillar va suv miqdori esa nisbatan kamroq bo'ladi. Mol go'shtida cho'chqa go'shtiga nisbatan oqsilning umumiy miqdori ko'proq, yog' miqdori esa kamroq va hokazo.

Har xil hayvon go'shtlari tarkibida oqsil miqdori 11,4%dan 20,8 %gacha oraliqda bo'ladi. Mol va qo'y go'shtlari tarkibida 75—85 %, cho'chqa go'shtida esa qariyb 90 % to'liq qiymatli oqsil bo'ladi. To'liq qiymatli, tez hazm bo'ladigan go'sht oqsillari (miozin, aktin, ktomiozin, miogen, mioalbumin) tarkibida o'rin almashtirmaydigan aminokislotalarning hammasi uchraydi. Bu oqsillar, asosan, go'shtning boshqa to'qimalariga nisbatan yuqori ozuqaviy va biologik qiymatga ega bo'lgan muskul to'qimasi tarkibida ko'proq. To'liq qiymatga ega bo'lmagan oqsil — kollagen va elastin, asosan, birlashtiruvchi to'qimalar tarkibiga kiradi. Muskul to'qimalarida esa ular juda kammiqdorda uchraydi.

Go'shtda yog' miqdori mollarning semizligiga qarab, bir-biridan farq qiladi va bu ko'rsatkich 2 %dan 40 %gacha oraliqda bo'lishi mumkin. Yog' go'shtning ta'm ko'rsatkichlari hamda energiya berish xususiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tarkibida oqsil va yog' miqdori teng (har

birining miqdori 20 %ga yaqin) bo'lgan go'sht ozuqaviy qiymati bo'yicha eng yuqori hisoblanadi. Bunday go'shtning mazaliligi yuqori va organizmda yaxshi hazm bo'ladi. Go'sht tarkibidagi yog'lar, asosan, to'yingan yog' kislotalaridan tashkil topgan bo'ladi. Uglevodlar go'sht tarkibida, asosan, hayvon kraxmali-glikogen holida to'plangan bo'lib, go'shtning yetilishida katta rol o'ynaydi.

Go'shtda glikogen miqdori o'rtacha 0,8 %ni, mollarning jigarida esa 2—5 %ni tashkil etadi. Ekstraktiv moddalar go'sht tarkibida azotli va azotsiz moddalarga bo'linadi. Azotsiz ekstraktiv moddalarga glikogen va uning parchalanishidan hosil bo'lgan sut kislotasi, maltoza, glukozalar, azotlilarga esa kreatin, kreatinfosfat, karnozin, glutamin kislotasi va boshqalar kiradi. Go'shtda bu moddalarning miqdori 1 %ga yaqinni tashkil etadi. Ekstraktiv moddalar go'shtga o'ziga xos ta'm va hid berib, ishtahani ochadi, ovqat hazm bo'lishiga yordamlashadi.

Go'shtda suvda va yog'da eruvchi vitaminlar ham bo'ladi. Suvda eruvchi vitaminlarga Br B₁, B₆, B₁₂, PP va C kiradi. Go'shtlarning yog' to'qimasida asosan, yog'da eruvchi A, D va E vitaminlari uchraydi. Mineral moddalar miqdori go'shtda 0,8 %dan 1,3 %gacha bo'ladi. Ularning asosiy miqdorini kaliy hamda fosfor tashkil etadi. Shuningdek, go'shtda kalsiy, magniy, temir, mis, rux va boshqa elementlar ham borligi aniqlangan. Fermentlar tirik hayvonlar organizmida moddalarning sintez bo'lishi va parchalanishida katta ahamiyatga ega bo'lsa, so'yilgan hayvonlar go'shtlarida esa moddalarning parchalanish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi.

Go'sht tarkibida oqsil, yog', uglevodlarni parchalaydigan, shu bilan birga oksidlovchi-qaytaruvchi fermentlar ham mavjuddir. Bularning ba'zilar esa go'shtning yetilishida ishtirok etadi. Go'shtda suv miqdori 48—78 %ni tashkil etadi. Suv go'shtning yog'liligi bilan teskari bog'lanishda bo'ladi. Shu sababli semiz mollarning go'shtida suv nisbatan kam miqdorda bo'ladi. Go'sht — hayvon organizmining muskul, yog', birlashtiruvchi, suyak va qon singari har xil to'qimalaridan tashkil topgan. Muskul to'qimalari —go'shtdagi asosiy to'qima hisoblanib, mol tanasining 50—75 %ini tashkil qiladi.

Go'shtning muskul to'qimasi urchuqsimon tolalardan va to'qimalar orasiga kiruvchi moddalardan tashkil topgan. Muskul tolalar birlashtiruvchi to'qimalar yordamida dasta-dasta bo'lib birlashgan bo'ladi. Muskul to'qima ozuqaviy qiymati bo'yicha eng qimmatli hisoblanadi. To'liq qiymatli oqsillar, asosan, shu to'qima tarkibiga kiradi. Birlashtiruvchi to'qima alohida to'qimalarni bir-biri bilan bog'lab turadi. Bu to'qimalarning asosi kollagen va elastin tolalaridan tashkil topgan. Ular muskul to'qimasidan tarkibida, asosan, kollagen va elastin oqsillari borligi bilan farqlanadi.

Ma'lumki, bu oqsillar to'liq qiymatga ega bo'lmagan hisoblanadi. Birlashtiruvchi to'qima go'sht tana massasining 9—12 %ini tashkil etadi. Yog' to'qimalari yog' hujayralaridan iboratdir. Mollarning qaysi joyida to'planishiga qarab yog' to'qimalari teri osti, ichki organlar (buyrak, yurak, ichak) atrofi va muskullar orasida qatlamlar ko'rinishida to'planadigan yog'larga bo'linadi. Bu to'qimalar tarkibida yog'dan tashqari, suv, oqsillar, shuningdek, mineral moddalar va vitaminlar bo'ladi. Suyak to'qimasi hayvonlarning skeletini hosil qiladi va murakkab birlashtiruvchi to'qima hisoblanib, u eng mustahkamdir. Skelet to'qimasi, asosan, noorganik moddalardan tashkil topgan bo'lib, ularning miqdori 70 %gacha borishi mumkin. Ulardagi asosiy mineral modda — kalsiy-fosfat va kalsiy-karbonat tuzlaridir. Suyaklar tarkibida birmuncha yog', oqsil hamda ekstraktiv moddalar ham mavjud.

Qon — suyuq to'q ima hisoblanib, yirik va mayda shoxli mollarda o'rtacha 7 %ni, cho'chqalarda esa 4,5 %ni tashkil etadi. Qon, asosan, hujayra va plazmadan iborat bo'ladi. Qonning tarkibida to'liq qiymatli oqsil, yog', uglevod, vitaminlar, mineral moddalar mavjudligi uchun ham yuqori ozuqaviy ahamiyatga ega.

Bizningcha kasbiy kompetentsiya vazifalarni samarali hal etish hamda mashg'ulotlarni o'zlashtirishning funktsional tayyorgarlikka asoslangan shaxsiy va kasbiy fazilatlarining murakkab dinamik birlashgan tizimi sifatidir. O'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi turli xil vaziyatlarda yuzaga keladigan muammo va odatdagi vazifalarni kasbiy bilim va ko'nikmalar, ta'lim va hayot tajribasidan maqsadli foydalangan holda qadriyatlar tizimiga muvofiq ravishda hal qilishda namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu tuzilishda qadriyatlar munosabati, kasbiy va qadriyat yo'nalishlari, o'qituvchi faoliyatining motivlari maktab o'quvchilarining ongiga ta'sir qiladi hamda ularning ma'naviy-axloqiy qarashlarini rivojlantiradi. Ta'lim jarayonida kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish, o'quv jarayonining barcha tarkibiy qismlari har tomonlama ta'minlangan taqdirda muvaffaqiyatli bo'ladi, ya'ni, o'quv maqsadlarini aniq belgilash, tegishli o'quv tarkibini tanlash, o'quv-uslubiy ta'minotni yangilash, samarali metodlarni tanlash, o'qitish texnikasi va ta'lim faoliyatini tashkil etish shakllari, tegishli kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchilar. Shunday qilib, kompetentsiya faqat bilim yoki ko'nikma bilan chegaralanmaydi. Kompetentsiya - bu aniq maqsad, motiv, qiziqish, mavjud bilim, faoliyat nazorati va irodaviy yo'naltirilganlikni tartibga solish usullarini o'zida mujassam etgan shaxsning shaxsiy sifatidir. Geografiya fanini o'qitishda ta'limning barcha bosqichida kognitiv yondashuvdan foydalanish zamon talabidan kelib chiqqan hoda maqsadga muvofiq bo'lidi.

Ilmiy va pedagogik adabiyotlar tahlilga ko'ra ta'limda kognitiv kompetentsiyaga turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ular: - o'quvchining mustaqil bilim faoliyati sohasidagi kompetentsiyalar to'plami; - samarali va reproduktiv bilish, tadqiqot, intellektual faoliyat;

- ma'lumot olish, qayta ishlash, zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish bilan birga olib boriladigan haqiqiy ta'lim va kognitiv muammolarni hal qilish bo'yicha faoliyat; - talabaning o'zini o'zi boshqaradigan bilim faoliyati sohasidagi shaxsiy tajribasi; - kognitiv faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lish, dunyoning yaxlit qiyofasini anglash qobiliyati va hayotiy muammolarni hal qilish uchun ma'lumotlardan foydalanish.

Bizning fikrimizcha, kognitiv kompetentsiya - bu talaba tomonidan anglandigan haqiqiy ob'ektlar bilan o'zaro bog'liq bo'lgan mantiqiy, uslubiy, evristik, umumiy ta'lim faoliyati elementlarini o'z ichiga olgan mustaqil bilim faoliyati sohasidagi talabalar kompetentsiyalarining yig'indisidir. Geografik ta'limni tashkil etishda maqsadni belgilash, tashkil qilish, rejalashtirish, loyihalar yaratish, o'quv-bilish faoliyatini tahlil qilish, aks ettirish, o'z-o'zini baholash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda talaba samarali faoliyatning ijodiy qobiliyatlarini o'zlashtiradi, to'g'ridan-to'g'ri bilim olish, nostandart vaziyatlarda harakat qilish texnikasini, muammolarni echishning evristik usullarini o'zlashtiradi. Ushbu kompetentlik doirasida talablarda tegishli funktsional savodxonlik darajasi shakllanib dalillarni farqlash qobiliyati, o'lchash ko'nikmalari, bilishning ehtimollik nazariyasiga tayanish malakasi, statistik tahlil va boshqa usullaridan foydalanish imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda pedagogik ta'lim o'qituvchidan professional kasbiy tayyorgarlikdan tashqari, ilmiy salohiyatni ham talab etadi. XXI asrda geografiya fan o'qituvchisi doimiy ilmiy izlanishda bo'lishi, talaba (o'quvchi)larga fanga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni tushuntirishda nazariy jihatlarini ilmiy tadqiqot ishlari manbalari va tadqiqotchilarning ilmiy gepotezalariga asoslanib etkazib berishi, ushbu nazariyalarning geografiya fani va ilmi hamda davlat va jamiyat hayotida tutgan rolini amaliy misollar yordamida etkazib berishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Хайдарова, С., & Юсуфов, Ж. (2021). Компетенциявий ёндошув асосида география дарсларини ташкиллаштириш. Журнал естественных наук, 1(2).
2. Usarov, J. E., Eshnayevev, N. J., & Haydarova, S. A. (2020). Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution. IEJRD-International Multidisciplinary Journal, 5(8), 6.
3. Gapparov, A., & Khaydarova, S. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. Архив Научных Публикаций JSPI.
4. Haydarova, S. (2021). Geografiya darslarida elektron taqdimotlardan foydalanish. Журнал естественных наук, 1(1).
5. Haydarova, S. (2021). Geografiyani o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning tatbiq etishning o'quvchi psixologiyasi bilan bog'liq jihatlar. Журнал естественных наук, 1(1).
6. Haydarova, S. (2021). Geografiya fani o'qituvchisi kompetentligi va uning zamonaviy talablari. Журнал естественных наук, 1(1).
7. Haydarova, S. (2021). Фанни компетенциявий ёндошув асосида ўқитишнинг ўқувчи ёш психологик хусусиятларига боғлиқ жиҳатлари. Журнал естественных наук, 1(1).
8. Haydarova, S., Mavlonov, X., & Muxamedov, O. (2021). Arid mintaqalarda yer resurslaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlar (Jizzax viloyati misolida). Журнал естественных наук, 1(1).

9. Усаров, Ж. Э., & Хайдарова, С. (2021). Фанни компетенциявий ёндошув асосида ўқитишнинг ўқувчи ёш психологик хусусиятларига боғлиқ жиҳатлари. Science and Education, 2(Special Issue 1), 266-275.
10. Gapparov A., Haydarova S., Zaynutdinova D. Мустақиллик йилларида Жиззах вилояти аҳолисининг демографик ривожланиши //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
11. Haydarova S., Usarov J., Eshnayevev N. defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
12. Haydarova S. et al. MIRZACHO'L O'LKASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKON1YATLARI //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
13. Haydarova S. GEOGRAFIYA FANI O 'QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA UNING ZAMONAVIY TALABLARI //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
14. Nazarovna, T. Z., Azamkulovich, D. F., Jurayevna, M. N., & Abdusalomovna, H. S. (2016). Mortality and life expectancy rates of population of the Republic of Uzbekistan in the years after independence. European science review, (3-4).
15. ABDUSALOMOVNA H. S. GEOGRAFIYA FANI O 'QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA UNING ZAMONAVIY TALABLARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2021. – Т. 1. – №. 02. – С. 29-36.
16. Eshbekovich U. J., Jumayevich E. N., Abdusalomovna H. S. Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. 8. – С. 6-6.
17. Khaydarova, S. A. (2022). FORMATION OF PRACTICAL COMPETENCES OF SCHOOLCHILDREN IN GEOGRAPHY. Journal of Geography and Natural Resources, 2(01), 50-57.

LINGVISTIKADA ATAMASHUNOSLIK TUZULISHINING ASOSIY MEZONI

Xo'jaeva G. S.

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotasiya: Lingvistikada atamashunoslik tuzulishining asosiy mezonini maxsus sohaviy atamalar bilan o'rganish hamda maxsus tushunchalar orqali matnlarda qo'llash kasb etadi. Maqolada lingvistikada atamashunoslik tuzulishining asosiy mezonini sifatida kasbiy faoliyat ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: terminologiya, atamashunoslik, asosiy mezon, lingvistika, sohaviy atama

Lingvistikada atamashunoslikni o'rganishga bag'ishlangan lingvistik tadqiqotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, maxsus leksema tushunchasining ko'plab ta'riflariga qaramay, atama ta'rifiga yagona yondashuv mavjud emas. Biroq, umumiy narsa shundaki, tilshunoslar atamalarni lug'atning ma'lum bir qatlami deb hisoblaydilar, ular asosan ma'lum bir kasb, fan, mashg'ulot vakillari tomonidan maxsus tushunchalarni ifodalash uchun qo'llaniladigan so'z va iboralarni o'z ichiga oladi. Grinev atamani "maxsus tushunchalarning aniq nomi uchun qabul qilingan maxsus tilning nominativ maxsus leksik birligi deb hisoblaydi.

Ushbu atamaning quyidagi ta'rifi ham mavjud: *"sohaviy faoliyatda qabul qilingan va maxsus sharoitlarda qo'llaniladigan maxsus so'z (yoki ibora)."*

An'anaga ko'ra, tilshunoslar so'zning to'rtta funksiyasini ajratib ko'rsatishadi: nominativ, belgili, kommunikativ, pragmatik. Qo'shimcha qilaylik, atama boshqa o'ziga xos funksiyalarga ega.

Termin o'z tilining leksik birligi bo'lib, nominativ vazifani bajaradi. Bu borada nominatsiya birligi sifatida atamaning o'ziga xosligi shundaki, bu atama umumiy tushunchalar, toifalar, tushunchalarning belgilari (xususiyatlari), shuningdek, inson bilimi va faoliyatining turli maxsus sohalaridagi operatsiyalar (munosabatlar)ni nomlash uchun ishlatiladi: fanda, ishlab chiqarishda, jamoat hayotida. Bu atama maxsus bilim tushunchalarini belgilaydi, atamaning bu funksiyasiz maxsus sohalarda kognitiv faoliyatni amalga oshirish mumkin emas.

Kognitiv tilshunoslikning zamonaviy qoidalariga asoslanib, atamaning kognitiv funksiyasini eng muhimlaridan biri sifatida ajratib ko'rsatadi. Terminning paydo bo'lishi uzoq ilmiy va kognitiv jarayonning mahsulidir, bu maxsus tushunchaning so'zlashuvi bilan yakunlanadi. Matnlarda atama bilish jarayonini amalga oshiruvchi nutqning natijasi sifatida tasvirlangan.

Terminning belgilovchi vazifasi shundan iboratki, u ob'ekt yoki ob'ektlar sinfini bildiruvchi belgi vazifasini bajaradi. Bu faktdan atamaning aniqlovchi vazifasi borligi, atama ta'rifning o'rnini bosishi yoki aksincha, ta'rif atamaning o'rnini bosishi mumkinligi haqidagi gap kelib chiqadi.

Kommunikativ funktsiya atama qabul qiluvchiga ba'zi maxsus ma'lumotlarni etkazishini ko'rsatadi. U bilimlarning vaqt va makonda uzluksizligini ta'minlaydi.

Terminning funktsiyasi - pragmatik - belgini aloqa ishtirokchilari, muayyan shartlar va aloqa doirasi bilan bog'laydi. Ko'pincha atamalarning pragmatik vazifasi siyosatda, mafkuraviy kurashda amalga oshiriladi.

Keyingi funktsiya evristik - yangi bilimlarni ochish, ilmiy bilimlarda ishtirok etish funktsiyasi. Qizig'i shundaki, ba'zi atamalarni bashorat qilish deb atash mumkin; ular ilmiy kashfiyot sodir bo'lishidan oldin ham paydo bo'ladi. Keyinchalik, bunday maxsus lug'at tuzatilishi mumkin, ammo etakchi atamalarning paydo bo'lishi haqiqati juda muhimdir.

Terminologiyada atamalarning ko'plab tasniflari mavjud. Buning sababi shundaki, ularni tizimlashtirishning turli usullaridan foydalangan holda turli mezonlarga ko'ra guruhlash mumkin. Maxsus lug'at taksonomiyasini o'rganib, biz uning ro'yxatini to'liq bo'lishi mumkin emas degan xulosaga kelamiz. Terminlarni tasniflashning turli tamoyillari mavjud: mazmuniga ko'ra, lingvistik shaklga ko'ra, vazifasiga ko'ra, intralingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarga ko'ra.

Masalan, nominatsiya ob'ektiga ko'ra, atamalar maxsus maqsadlar uchun tillar bo'yicha guruhlangan. Tushunchaning atama bilan ifodalangan kategoriyasiga ko'ra ob'ektlar, jarayonlar, belgilar, miqdorlar va ularning birliklari terminlari ajratiladi. Funktsional mezon bo'yicha me'yoriy atamalar, professionallik va jargonlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Motivatsiya bo'yicha lingvistik tasnif ham mavjud bo'lib, unda atamaning tuzilishiga ko'ra atama ma'nosini tushuntirish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Terminning motivatsiyasi terminning leksik ma'noning u ifodalagan tushunchaga mos kelishi yoki atama semantikasining izchilligi kabi istalgan xususiyati bilan bog'liq.

Shaffof ichki shaklga ega bo'lgan atamalarni idrok etish va eslab qolish nisbatan oson, shuning uchun ko'pincha yangi kontsepsiyani taklif qilishda asosli atama foydasiga tanlov amalga oshiriladi.

Og'zaki va o'ta shartli atamalarni (iboralar va frazeologik birliklar) ajrating. "Shartlardan tashqari ta'lim so'zma-so'z terminologik yoki kasbiy ma'noga ega bo'lib, uning asosida qayta ko'rib chiqilgan ma'no rivojlanishi mumkin va bu ma'nolar (va ularning bir nechitasi bitta birlikda bo'lishi mumkin) foydalanish kontekstiga qarab yangilanadi - terminologik yoki. terminologik bo'lmagan."

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivoltirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. Абдуллаева А. Лексика сферы международных отношений (на материале русского и узбекского языков). Автореф.дисс.канд. филол. наук.-Ташкент, 2013.
4. Abdullayeva Sh. G'aznachilik sohasida qo'llaniladigan moliyaviy-iqtisodiy terminlarning chog'ishtirma tadqiqi (ingliz, o'zbek va rus tillari misolida). Filol. fan. bo'yicha fals. dok. diss. avtoref.-Toshkent, 2018.
5. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til.-Toshkent: o'qituvchi, 2012

COMMUNICATIVE SKILLS OF STUDENTS OF PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Kushbakova V. N.

Tashkent State Pedagogical University

Annotation: The article is devoted to the formation of communication skills of students of a higher education institution. At the current stage, communication practice is characterized by various sources, which complicates the communication process. Using a communicative approach helps students understand the finer points of the English language.

Key words: skills, communicative approach, communicative skills, improvement of pronunciation skills

Currently, much attention is paid to the practical knowledge of a foreign language by specialists of various professions. Classes in a foreign language at a non-philological university orient the student toward mastering the language as a means of communication within the framework of his chosen specialty. Mastering a foreign language as a communicative competence means not only knowledge of the language system, but also the ability to correctly use the language to realize the goals of communication. The basis of communicative competence is a set of skills that allow you to participate in speech communication in its productive and receptive forms.

Language training is aimed at the formation of speech skills, and speech activity acts as an object of learning. Speech activity is the process of receiving and transmitting information using language in the process of communication, which is a combination of speech actions. This is a process of active, purposeful, mediated by the language and due to the situation of communication reception or transmission of voice messages in the interaction of people with each other. Speech activity is not only a goal, but also a learning tool. For teaching both productive (speaking, writing) and receptive (reading, listening) types of speech activity in their interaction in the educational process, it is advisable to use denotation cards. A denotation map is a logical structural diagram of a text or a specific field of knowledge. Denoted is an object or phenomenon of reality surrounding us, which is considered as a semantic component of the text or as a component of the objective plan of a speech utterance. The denotative analysis of the text was developed by the linguist; it is a reflection of the content of the text reproduced in the graphic denotation map. Accordingly, denotation map is a graphic way to highlight the basic concepts of the text. A denotation map has a hierarchical structure that visually represents subject relationships. The graphic content of the text is structured by level.^[2] Using a denotation card in the educational process allows you to implement the principle of interconnected teaching of types of speech activity (reading, listening, speaking, writing) based on common language material using a special series of exercises. General linguistic material should serve as a basis for the development of both receptive and productive types of speech activity; create a basis for the development of written and oral forms of communication. The organization of a special series of exercises is aimed primarily at the formation of skills common to all types of speech activity. A denotation card can be used at all stages of training. Practice shows that it is necessary to train students to work with denotation cards first for reading and listening, and then for speaking and writing. Denoting maps can be effectively used in teaching reading. Any text, as a product of the author, reflects objective phenomena that are in certain relationships and relationships. In each text, three plans can be distinguished: a) the actual subject plan, b) the plan of semantic content, c) the plan of its language design.

Thus, improving the pronunciation skills of students is one of the most labor-intensive stages in the process of forming communicative competence. Therefore, it becomes relevant to search for ways to minimize time spent on mastering normative pronunciation, to qualitatively change the vector of application of teacher and student efforts, to give them a more rational character. The development of exercises that allow interconnected teaching of phonetics and various types of speech activity, exercises aimed at a wider introduction of self-control over the level of formation of their pronunciation skills, should be the subject of a special study. All forms of work on pronunciation should be subordinate to solving practical problems; they should not be time-consuming in class, as they should be organically integrated into the learning process as a whole. A prerequisite for effectiveness is the regular drawing of students' attention to phonetic phenomena in connection with ever-expanding material in new combinations. All this reduces the risk of pronunciation errors and makes you pay more attention to the pronunciation side of speech.

LITERATURE:

- Zimnyaya I. A. Psychological aspects of teaching speaking a foreign language. M.: Education, 1978.- 158 p.
- Novikov A.I. Semantics of the text and its formalization. M.: Nauka, 1993. -- 216 p. Bogoslovskaya I.V. Denotate structure of the text content. M.: VEGU Bulletin No. 5, 2011. - 60–66 p.
- Passov E.I. Communicative method of teaching foreign language speaking. M.: Education, 1986.- 207 p.
- Passov E.I. Foreign language lesson. M.: Glossa-press Phoenix, 2010. -- 256 p.

BO‘LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA TA’LIM VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI

Doniyorova M. A.

Jizzax politexnika instituti

Xalqaro maydonda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, global iqtisodiy inqiroz sharoitida O‘zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosati natijasida nufuzi va obro‘-e‘tibori tobora yuksalmoqda. Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta‘minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga 2023 yil uchun yo‘llagan Murojaatnomasida, jumladan, “...Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘li...” ekanligi alohida ta’kidlandi. [1]

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda “ta’lim” atamasiga ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon sifatida ta’rif berilgan. [2]

Hukumatimiz tomonidan qo‘yilgan qator tizimli vazifalarni bajarishda ta’lim tizimida, jumladan, oliy ta’limning samarali kechishini ta’minlash, bo‘lajak mutaxassislarining yetuk kasb egalari sifatida Yangi O‘zbekiston Milliy iqtisodiyotida o‘zining munosib xissasini qo‘shish uchun sohaga oid fanlarni chuqur o‘zlashtirishda ta’lim jarayonini modernizatsiyalash bugungi kunning dolzarb masalalardan biridir.


O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining yaqin yillardagi rivojlanishi rejasiga muvofiq, respublikamiz viloyatlarida ko‘plab qo‘shma korxonalarning qurilishi rejalashtirilgan. Zamonaviy to‘qimachilik sanoati o‘zining texnik qurollanish darajasi bo‘yicha yuksak darajada avtomatlashgan moddiy-texnik bazaga ega tarmoqlar jumlasiga kiradi. Yangi yaratilgan texnologik jarayonlar va unumdor jihozlarni ishlab chiqarishga joriy etilishi, avtomatlashgan ayrim mashinalardan avtomatlashtirilgan korxonalarga o‘tilishi mehnat unumdorligini, texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni va ishlab chiqarish madaniyatining o‘sishiga asos bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda paxta tolali iplar ishtirokida to‘qimachilik matolari ishlab chiqarish ulushi juda katta. To‘quv usulida shakllantirilgan matolar uchun iplar asosan, halqali yigiruv mashinalarida yigirib olinadi.

Hozirgi kunda to‘qimachilik sanoatida, iplarning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashda USTER savdo belgisi asosida ishlab chiqaraladigan laboratoriya uskunalaridan foydalanilmoqda. Iplarning chiziqli zichligini aniqlashda USTER ZWEIGLE YARN REEL (ipni o‘rash) asbobi hamda USTER AUTO SORTER 5 asbobidan (1-rasm) foydalaniladi.

USTER ZWEIGLE YARN REEL (ipni o‘rash) asbobi yordamida bir martaning o‘zida uzunligi 100 yardga (91,44m) teng bo‘lgan 6 ta pasmani birdaniga o‘rash mumkin. Ko‘rsatkich qiymati 100 ga yetganda o‘rash asbobi avtomatik tarzda to‘xtaydi, pasmalar ketma-ket yechib olinadi va USTER AUTO SORTER asbobida o‘lchanadi.

USTER AUTO SORTER 5 asbobi ikki qismdan iborat: dasturiy ta‘minotga ega elektron tarozi va ekran hamda chiqarish uchun printer. O‘lchash diapazoni: 1dteks-100 kteks, O‘lchash kattaligi: teks, dteks, mteks, den‘e, gran/yard, Nm, Ne, g/m², gran/yard².



1-rasm. USTER ZWEIFLE YARN REEL

Aksariyat ishlab chiqarish korxonalarida iplarning chiziqli zichligi asosan ingliz nomeri (Ne) da beriladi va shu asosda haridorga yetkaziladi. Lekin, O'zbekistonda to'qimachilik sanoati tarmoqlariga oid oliy ta'lim yo'nalishlari va texnikumlarda talabalarga iplarning chiziqli zichligi ipning massasini uzunligiga nisbati bilan aniqlanishi va uning o'lchov birligi "teks" sifatida o'rgatiladi. Talabalar amaliyot o'tash vaqtida yoki oliy ta'limni tugatib, mutaxassis sifatida faoliyat boshlaganda, ishlab chiqarish korxonalarida umuman boshqa birlik, ingliz nomeriga duch keladi. Shu yerda savol tug'iladi, nima uchun, fan va ishlab chiqarish o'rtasida bir xil masalaga ikki xil yondashuv?

Iplarning chiziqliy zichligi bu - ipning qanchalik yo'g'on yoki ingichkaligini bildiruvchi birlik hisoblanadi. O'zbekistonda uzunlik o'lchov birligi sifatida metr yoki kilometrdan foydalanilsa, og'irlik o'lchov birligi sifatida gramm, kilogramm kabi o'lchov birligidan foydalaniladi. Shu nuqtai nazardan, fanda iplarning chiziqliy zichligini aniqlashda, ipning uzunlik va og'irlik o'lchov birliklari asosida "teks" qabul qilingan, u bir kilometrlik uzunlikdagi ipning massasi bir gramga teng qilib olingan birlikni bildiradi. Halqaro standartlashtirish tashkiloti ISO bu birlikni butun dunyo bo'ylab yuritilishini ma'qullagan. Ipning chiziqliy zichligi ipning massasini uzunligiga nisbati bilan aniqlanadi.

$$T = \frac{m}{l}, \text{gr} / \text{km}.$$

Bunda: T-ipning chiziqliy zichligi, teks; m-ipning massasi, gr; l- ipning uzunligi, km. Misol uchun ipning chiziqliy zichligi 35 teksni tashkil etsa, demak, bir kilometrlik ipning og'irligi 35 gr ekanligini bildiradi.

Ipning nomeri bu bir gramm ip necha metrni tashkil etishini bildiruvchi birlikdir. Ipning nomeri uning uzunligini massasiga nisbati bilan aniqlanadi.

$$N = \frac{l}{m}, \text{m} / \text{gr}.$$

Bunda: N - ipning nomeri, m/gr; l - ipning uzunligi metrda, m; m - ipning og'irligi gramda, gr.

Misol uchun 25 nchi nomerli ipning og'irligi bir grammni tashkil etadi ya'ni og'irligi bir gramm ipning uzunligi 25 metrni tashkil etadi.

Yurtimizda ishlab chiqarilayotgan va eksport qilinib, jahon bozorida sotilayotgan paxta iplarini sifat ko'rsatkichlarini jahon andozlariga muvofiqlashtirish maqsadida ularning chiziqli zichligini ingliz nomeri (Ne)da belgilash maqsadga muvofiq.

Paxta iplarining chiziqliy zichligini Ingliz nomerida aniqlash 840 yard uzunlikdagi ipning funtlardagi og'irligi bilan bog'liq. (1yard=0,9144 m, 1 funt=0,4535 kg).

Ingliz nomeri Ne bilan teks o'rtasidagi bog'liqlik quyidagicha:

$$\text{teks} = \frac{590,4}{Ne_C} \quad \text{yoki} \quad Ne_C = \frac{590,4}{\text{teks}}$$

Ne_C -paxta iplari uchun ingliz nomeri

Xulosa qilib aytganda, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish muhim. Ta'lim yoki ishlab chiqarishda qo'llaniladigan o'lchov birliklarining kelib chiqish sabablarini tadqiq qilish va ularni bir-biriga muvofiqlashtirish fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun Murojaatnomasi, 22.12.2022 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentabrdagi PQ-4453-sonli "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
4. <https://www.uster.com/en/service/uster-statistics/>
5. Ochilov T.A., Matmusaev U.M., Qulmetov M.Q.. To'qimachilik materiallarini sinash. Toshkent: «O'zbekiston», 2004.
6. Kayumov A. K. et al. Research on the Production of New Textile Fabrics with a Silk-Cotton Mixture with a Road-Embossed Pattern //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – T. 25. – №. 6. – C. 10089-10099.
7. Daminov A. et al. Experimental determination of the wave height of the base and yarns in the tissue and a new method for measuring the tissue thickness without contact //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2021. – T. 939. – №. 1. – C. 012077.
8. Doniyorova M.A. et al. Study of technological properties of cotton yarn for fabric. Экономика и социум., №7(98) 2022 www.iupr.ru

CHET TILLARNI O'QITISHDAGI AKTUAL MUAMMOLAR

Mamarizayeva Farangiz Zohidjon qizi

Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya. Ushbu tezis ingliz tilini o'qitishdagi dolzarb muammolarni o'rganishga harakat qiluvchi muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bunda talabalar bilan bir qatorda o'qituvchilarda ham qiyinchilik tug'dirishi mumkin bo'lgan vaziyatlar ko'rib chiqilgan. Jumladan, talabalarda lug'at boyligining kamligi, diqqatning sustligi, intizomning yo'qligi, qiziqishning yetishmasligi, zerikishi va nutq muammosi kabilar aktual muammolar qatorida tursa, chet tilidagi bilimlarning kamligi, malaka muammosi, o'qitish usullarini cheklangan darajada o'zlashtirilganligi, ITni yaxshi bilmaslik va kasbiy rivojlanishning pastligi kabilar o'qituvchilar oldida turgan masalalar sifatida tushuntirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'qitish, ingliz tili, muammolar, yechimlar, o'qitish usullari, cheklangan o'qitish resurslari, ona tilidan foydalanish.

Kirish

Bugungi rivojlanib borayotgan dunyoda kishilarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Chet tilini bilish esa erkin muloqot qila olish, o'z fikrini bimalol tushuntirib bera olish qobiliyatlarini shakllantirishning eng qulay ko'rinishidir. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va amalga oshirilayotgan o'zgarishlar tufayli ta'lim tizimi, o'qituvchilarning jamiyatdagi o'rni ham takomillashib bormoqda. Bu jarayonda til o'qituvchilarining yuklamalari turli xil xususiyatlarni qamrab bormoqda. Hozirgi kunda o'qituvchi nafaqat ta'lim beradi va talabalarning o'qish, yozish, tinglash va gapirish kabi til qobiliyatlari o'sishiga e'tibor beradi, balki ularga ma'naviy ko'mak beradi, o'rganishlarini osonlashtiradi va talabalarga g'ayrat, yaxshi munosabat va ingliz tiliga bo'lgan motivatsiyaga ega bo'lishga undaydi. Bundan tashqari, o'qituvchilar talabalar nimani o'rganishni xohlashlarini, bunday o'rganish ularga qanday va nima uchun ta'sir qilishini, darslar kelajakda ular uchun qanday foydali bo'lishi mumkinligini taxmin qila olishlari kerak.

Demak, til o'rgatish o'qituvchilardan o'quvchilarni ham akademik, ham shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishga o'rgatishlarini talab qiladi. Biroq, ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatish dolzarb muammoga aylanib qolmoqda. Ayniqsa, chet tilini bilishning ahamiyati hisobga olinmaydigan joylarda ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatish juda qiyin vazifadir. Bunda ingliz tiliga qiziqmaslik, sinf o'lchami, bezovta muhit, dars davomida ona tilidan foydalanish va hokazo muammolar o'qituvchining o'z fanidan sovishiga olib keladi.

Asosiy matn

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida chet tilini, ayniqsa ingliz tilini o'rgatish erta yoshdagi bolalar orasida samarali deb qaraladi va u bizning ta'lim tizimimizga ham mos keladi. Lekin mamlakatimizda chet tillarini o'qitishda bir qator dolzarb muammolar mavjud. Xo'sh, o'qituvchilar ingliz tilini o'rgatishda qanday muammolarga duch kelishdi?

- Birinchi muammo "SINFDAgi BUZILGAN MUHIT". Atrof-muhit o'rganishda ham, o'qitishda ham eng muhim hisoblanadi. Ko'pincha o'qituvchilar ingliz tilini o'qitishda ekologik muammolarga duch kelishdi. Tashqaridagi bezovta qiluvchi muhit, sinf xonasining fanni o'qitish uchun mos emasligi o'qituvchilarni ham, talabalarni ham asosiy maqsaddan chalg'itadi va o'qitishga bevosita ta'sir qiladi. Shunday ekan, ijobiy va qulay ta'lim muhiti o'qitish uchun juda muhimdir.

- Ikkinchi muammo - "CHEKLANGAN O'QITISH RESURSLARI". O'quv resurslari chet tilini o'rgatishda juda muhim. Nafaqat ingliz tili, balki har qanday narsani o'rgatish, asosan, resurslarga bog'liq. Yaqin yillargacha mamlakatimizda o'qituvchilar ingliz tilini o'rgatish uchun yetarli resurslar bilan ta'minlanmagan edi. Bunday ta'limiy resurslarga proyektorlar, kompyuter tizimlari, sohaga oid adabiyotlarning kamligi va boshqa turdagi raqamli qurilmalarni kiritishimiz mumkin.

Uchinchi muammo shundaki, "TALABALAR SONINING KO'PLIGI". Bir auditoriyada o'rganuvchilar sonining ko'pligi shovqin va stressni keltirib chiqaradi. Har bir talabani boshqarish, nazorat qilish, e'tibor berish, individual ishlashda o'qituvchining ko'proq mehnat qilishi talab qilinadi va bu albatta, ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

- Yana bir muammo - "O'QITISH VAQTI CHEKLANGANLIGI". Chet tillarini o'rganishda eng zaruriy narsa – vaqt. Ayniqsa, talaba soni ko'p bo'lgan guruhlar bilan ishlashda 1 yoki 1,30 soat vaqt avvalgi mavzuni takrorlash, vazifalarni tekshirish, yangi mavzuni tushuntirish, uyga vazifa berish uchun yetarli bo'lmaydi.

Xorijiy tillarni o'rgatishdagi navbatdagi muammo "DARSDA BOSHQA TILLARDAN, XUSUSAN, ONA TILIDAN KO'P FOYDALANISH". Sinfda ona tilida gapirish ingliz tili o'qituvchilari duch keladigan eng sezilarli muammodir. Talabalar o'zlari xohlagan ona tilida ingliz tili o'rniga oson gapira oladilar. Ular uchun bu juda oson. Bu ingliz tili o'qituvchilari oldida til o'rgatishda turgan katta muammo. Chunki har bir talaba kamida 5 daqiqa chet tilida emas, ona tilida gapiradigan bo'lsa, butun dars chet tili darsi nomini yo'qotadi.

– Chet tillarni o'rgatishdagi yana bir muammo shundaki, "TO'G'RI O'QUV REJASINI TANLASH". O'quv rejasi - bu o'qituvchilar o'quvchilarga o'rgatish uchun amal qiladigan mazmunning bir turi. Ingliz tilini o'rgatishda o'quv dasturi katta rol o'ynaydi. O'quv dasturi o'qituvchilar tomonidan kursning zarur omillarini tayyorlash va umumiy tashkil etishda yordam beradi.

-Keyingi muammo "O'QUVCHILARNING XULQI". Ba'zan o'quvchilar zerikib, dars davomida bezovta qiladigan boshqa ishlarni bajarishni xohlashadi: kursdoshlari bilan suhbatlashishni xohlashadi, ba'zi masalalarni tushuntirib berishni so'rashadi. Ayrim talabalar esa darsga kechikib kelishadi. Ular dars paytida butun sinfni bezovta qilib kirishadi va o'qituvchining fikrini chalg'itishadi, bu esa butun o'quv jarayonini barbod qiladi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot xorijiy tillarni o'qitishda duch keladigan keng ko'lamli muammolarni yoritib berdi. Muammolar umumiy ko'rinishda beshta toifaga bo'linadi (talabalar, o'qituvchilar, materiallar, o'qitish usullari va baholash) va ular boshqa ikkita kichik komponent (o'quv dasturi va ta'lim siyosati) bilan chambarchas bog'liq. Talabalarning ehtiyojlarini bilish o'qituvchilar uchun muhim masala. Ingliz tilini o'rganish uchun kommunikativ faoliyat turida ishtirok etish hozirda muhim aspekt sifatida ajratiladi. Ba'zi talabalar erkin suhbat darslarida ishtirok etish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega. Ushbu tezis shuni ko'rsatadi-ki, chet tilini o'rganishda muammolarning yuzaga kelishi natijaga erishish jarayonini orqaga tortadi. Bunday muammolar sirasiga o'qituvchilarga atrof-muhit, ularning tayyorgarligi yo'qligi, o'qitish usullarini egallash cheklanganligi, IT-ni yaxshi bilmaslik, malaka oshirishning yetishmasligi, imkoniyatlar va resurslarning yetarli emasligi va vaqt cheklovi kabilar kiradi. Boshqa tomondan, talabalar sabab bo'ladigan qiyinchiliklar, jumladan, so'z boyligining yetishmasligi, past konsentratsiya, intizomning yo'qligi, talabalarning zerikishi va nutq muammosi kabilar ham asosiy maqsadga yetish yo'lini uzaytiradi. Bundan tashqari, guruhda dars berishda o'qitishning turli uslublari va usullarini qo'llash, talabalarning o'quv holati va darajasini guruhga moslashtirish, sinfni boshqarish, mavjud resurslardan foydalanish ham dolzarb masalalar qatorida turadi.

Adabiyotlar :

1. Banks, T. (2008). Foreign Language Learning Difficulties and Teaching Strategies. California: Dominican University.
2. J. J. Jalolov, G.T. Makhkamova, Sh.S. Ashurov. ENGLISH LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY
3. Mamarizayeva, F. . (2022). BADIY TARJIMA - ADABIY ALOQA VA O'ZARO TA'SIR VOSITASI. *Scienceproblems.Uz*, 6(3), 50–55. Retrieved from <https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/78>

УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА АСТРОНОМИЯНИ АХБОРОТ ТАЪЛИМ МУҲИТЛАРИ ЁРДАМИДА ЎҚИТИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МОДЕЛИ

Хаитова Ш. Ғ., Хаитова С. Ғ., Сайфуллаева Г. И.

Навоий давлат педагогика институти

Кириш. Глобал Интернет тармоғининг пайдо бўлиши билан ахборот-коммуникацион технологиялари(АКТ) имкониятларининг жадал суръатлар билан ривожланиши ҳамда уларнинг инсон ҳаётий фаолиятининг деярли барча соҳаларига кириб боришига олиб келди [1, 2]. Бу ўз навбатида узлуксиз таълим тизимида фанларни, жумладан астрономия туркумига кирувчи фанларни ўқитишни янгича ёндашувларини жорий этиш талабини қўймоқда [3-5]. Бу талабаларга мисол сифатида узлуксиз таълим тизимида астрономия туркумига кирувчи фанларни ўқитиш самарадорлигини оширишда веб-сайтлардан, таълим платформаларидан, онлайн ўқитиш тизимларидан ва ахборот таълим муҳитларидан фойдаланишни келтириш мумкин. Мазкур муҳитлар ёрдамида мамлакатимиз астрономия таълим ва тарбия жараёнига ўзининг ижобий таъсирини ўтказиб, таълимда инновацион методларининг такомиллашуви ва ривожланиши учун зарур шароитлар яратишга хизмат қилмоқда.


Ахборот таълим муҳити – бу турли хил алоқа тармоқлари таркибий қисмларини ўзида бирлаштирган ҳамда дидактик электрон таълим воситаларни ва замонавий педагогик технологиялар билан мужассамлаштирилган онлайн ўқитиш тизимидир [6, 8].

Ахборот таълим муҳитининг имкониятлари анъанавий қоғоз асосидаги имкониятлардан анча юқори ҳисобланади [6]. Чунки кенг қўламдаги таълим дастурларини ўзлаштириш ва амалга оширишни таъминловчи ўқув режа, фан ёки ўқув курси бўйича дастурлар, илмий-методик манбаалар, дидактик электрон таълим ресурсларни ўзида мужассамлаштирган, Интернет тармоғидаги web-сайт ёки web-порталга жойлаштирилган, тизимлаштирилган назарий-амалий ресурс ҳисобланади [7]. Шу боис, узлуксиз таълим тизимида астрономия туркумига кирувчи фанларни ўқитиш самарадорлигини ошириш учун замонавий дидактик ахборот таълим муҳитларни жорий этиш долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда.

Аммо узлуксиз таълим тизимида астрономия туркумига кирувчи фанларни ўқитиш самарадорлигини оширишда ахборот таълим муҳитларидан фойдаланиш методикаси махсус монографик тадқиқ этилмаган. Шу боис, илгари сурилаётган тадқиқот бугунги узлуксиз таълим тизимида долзарб муаммолардан бири ҳисобланади.

Ушбу муаммони ечимларидан бири, узлуксиз таълим тизимида астрономия туркумига кирувчи фанларнинг ўқитиш самарадорлигини оширишда ахборот таълим муҳитларидан фойдаланиш моделини такомиллаштиришни тақозо этади. Шунинг учун тадқиқот доирасида узлуксиз таълим тизимида ахборот таълим муҳитларидан фойдаланиш модели ишлаб чиқилди

Тавсия этилаётган модель ташкилий, технологик, таҳлил ва диагностика қисмларидан ташкил топган. Моделнинг ташкилий қисмида мақсад ва вазифалар келтирилган. Технологик қисмида узлуксиз таълим тизимида астрономия туркумига кирувчи фанларни ўқитиш самарадорлигини оширишда мамлакатимиз ва хорижий давлатларнинг ахборот таълим муҳитларидан, унга жойлаштирилган видеодарслар, анимацияли кўргазмали воситалар, виртуал таълим технологиялар, виртуал карталар, онлайн очик ва ёпиқ тестлар, кроссвордлар, электрон диктантлардан фойдаланиш таклиф этилган.



Ушбу воситалар билан бирга шахсга йўналтирилган ва муаммоли таълим технологиясидан фойдаланиш таклиф этилган. Таҳлил ва диагностика қисмида эса узлуксиз таълим тизимида астрономия туркумига кирувчи фанлардан ўқувчи ва талабаларни билимини баҳолаш мезонларининг даражалари келтирилган: репродуктив; продуктив; қисман изланишли; креатив.

Натижалар. Узлуксиз таълим тизимида астрономия туркумига кирувчи фанларнинг ўқитиш самарадорлигини оширишда ва ўқувчи-талабаларни геогرافияга оид компетенцияларини шакллантиришда тадқиқот доирасида таклиф этилаётган, яъни ўқитиш самарадорлигини ошириш моделини самарадорлик даражасини аниқлаш мақсадида тажриба-синов ишлари олиб борилди. Тажриба-синов ишлари Навоий вилоятидаги умумий ўрта таълим мактабларида ва Навоий давлат педагогика институтида ўтказилди. Ушбу таълим муассасаларида ўқувчи-талабалар тажриба ва назорат гуруҳларига ажратилди. Тажриба ва назорат синфлари учун жами 124 нафар умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчилари ва 54 нафар олий таълим муассасалари талабалари жалб этилди. Тажриба гуруҳига ажратилган ўқувчи-талабаларнинг таълим ва тарбия жараёни тадқиқот доирасида ишлаб чиқилган моделдан фойдаланиб ташкил этилди. Назорат гуруҳига эса ушбу имконият берилмади. Мазкур тажриба-синовга жалб этилган ўқувчи-талабаларни натижалари таҳлил этилиб, ишончлилигини текшириш мақсадида Студент-Фишер критерияси асосида математик-статистик таҳлили қилинди. Мазкур критериядан фойдаланишда танланмалар учун мос ўрта

киймат
$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 n_i X_i, \quad \text{тарқоқлик коэффицентларини} \quad D_n = \sum_{i=1}^4 \frac{n_i (x_i - \bar{X})^2}{n-1}$$

формулалардан фойдаланилди. Ҳисоблаш натижасига кўра, тажриба гуруҳининг ўртача ўзлаштириш кўрсаткичи назорат гуруҳига нисбатан юқори эканлиги, яъни 7,2 % га ошганлиги маълум бўлди.

Муҳокама. Изланишларимиз натижасига кўра шуни гувоҳи бўлдикки, узлуксиз таълим тизимида астрономия туркумига кирувчи фанларнинг ўқитиш самарадорлигини оширишда ва ўқувчи-талабаларни мотивациясини оширишда, креатив фикрлашини ривожлантиришда ҳамда компетенцияларини шакллантиришда замонавий очик ахборот таълим муҳитини яратиш лозим.

“Замонавий ахборот-таълим муҳитининг таълим тизимида қўлланиши тушунчаларни ҳам мазмунан, ҳам моҳиятан қайта кўриб чиқишни тақозо этди” [10, 11]. Шу боис, астрономия таълими жараёнига замонавий ахборот таълим муҳитлари илмий асосланган механизм жорий этиш лозим. “Таълим жараёни дейилганда ўқитувчи ва ўқувчиларни ўзаро муносабатидаги яхлит жараён кўз олдимизга келади” [12]. Эндиликда ушбу жараён виртуал ахборот-таълим платформалари, ахборот-таълим муҳитлари, ахборот ресурслар, таълим порталлари ва web-сайтлар билан уйғунлашиб бормоқда [10]. Бу жараёнда астрономия туркумига кирувчи фанларни ўқитиш ўқувчи-талабани кўпроқ ички имкониятлари, интеллектуал потенциали, ахборотни қабул қилиш ва ўзлаштириш хусусиятларига бевосита боғлиқ.

Хулоса. Ўқувчи-талабаларни астрономия туркумига кирувчи фанлардан интерфаол когнитив ва амалий фаолиятини ривожлантиришда ахборот таълим муҳитларидан фойдаланиш самарали ҳисобланади. Бунда ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида ўзаро алоқани онлайн шаклда амалга оширилади. Натижада, ўқувчи-талабалар фанга оид маълумотларни мустақил равишда ўрганишга ҳамда мустақил қарорлар қабул қилиш малакаси ривожланади.

Шу билан бирга узлуксиз таълим тизимида астрономия туркумига кирувчи фанларни ўқитиш самарадорлигини оширишда ахборот таълим муҳитидан фойдаланиш астрономия таълим жараёни ўқитишдаги ташкилий шакллар ва усулларининг ўзгаришига, ундаги янги методларнинг такомиллаштиришга ҳам олиб келади. Шунингдек, таълим-тарбиянинг педагогик-психологик мақсадларини амалга оширишга йўналтирилган замонавий ахборот технологияларидан фойдаланишни, таълим соҳасида уларни лойиҳалаш амалиёти ва методологияси билан таъминлашни назарда тутди.

Бу эса ўз навбатида ўқувчи-талабаларни астрономияга оид жараён ва ҳодисаларни визуал ўрганиш орқали, уларни фикрлаш қобилиятини, астрономияга доир компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантиришга ҳамда тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантиришга эришиш имконияти яратилади.

Адабиётлар

1. Тайлаков У.Н. Таълим муассасаларининг ягона электрон ахборот-таълим муҳитини яратиш ва жорий этиш технологиялари // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган Диссертация. – Тошкент, 2020. – 143 б.

2. Шейнис А.И. Методика использования сети Интернет при дистанционном обучении глобальным проблемам человечества в курсе географии 10 класса // **Автореферат** диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – СПб., 2000. – 18 с.

3. Норбеков А.О. Талабаларнинг “Компьютер таъминоти” фанидан компетентлигини ривожлантиришда ахборот-таълим муҳитларидан фойдаланиш // Электрон таълим илмий-услубий журнал. – Навоий, 2021. – № 1. – Б. 23–33.

4. Мирсанов У.М. Математика туркумига кирувчи фанлардан web-порталларни яратиш муаммолари // Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборотлари. – Тошкент, 2017– № 1. – Б. 44-47.

5. Атанасян С. Л. Формирование информационной образовательной среды педагогического вуза // **Автореферат** диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – М., 2009. – 49 с

6. Захарова И.Г. Формирование информационной образовательной среды высшего учебного заведения // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.. – Тюмень, 2003. – 399 с.

7. Тайлаков У.Н. Электрон ахборот таълим муҳитини яратиш технологиялари. Умумий ўрта таълим мактаблари учун // Монография. –Тошкент, 2016. –160 б.

8. Баходирова У.Б. Микробиология фанини ўқитишда виртуал таълим технологияларидан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Қарши, 2020. – 156 б.

9. Поличка А. Е. Проектирование методических систем инфраструктуры комплексной, многоуровневой и многопрофильной подготовки кадров информатизации региональной системы образования // Монография. –Хабаровск: Изд-во ДВГУПС, 2014. –119 с.

THE ROLE OF ICT IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE

Kholida Mirzaeva

Navoi Regional National Center for Teacher Training on New Methods, Uzbekistan.

Abstract: Language is the mirror of human life, which delineates the life of human. Language speaks man's personality. It is the cosmic medium like imparting the common information society. English and ICT have become tools for a number of non-datum and emotions of everyday life. English language has become a global language because of its numerous functions and preferences over several other languages over the globe.

Keywords: Paradigm, stimulus, explicit, immediacy.

English has become a medium for business and interactional purposes among other functions. English is playing a major role in every field such as medicine, engineering, education, art and law, music etc. As the world is changing, there must be changes in language learning. But contemporaneous collide of globalization, the expanse of English and technological development have transformed our learning and teaching English as a Lingua franca in an unprecedented way. In every aspect of human life, Science, Information, Technology are playing a vital role. Even in the field of education the technological developments have started a new page. Traditional methods of teaching are not showing great impact on the learners. Technology has become a tool for making the learners innovative and also became a source for motivating the learners towards learning. To compete with this native speakers of English.

ICT means Information and Communication Technology. According to Kent, "ICT in education point of view refers to Information and Communication Technology such as computers, communications facilities and features that variously support teaching learning and a range of activities in education. Because of its interactive and dynamic nature ICT has the stamina to meet the needs of the individual student by providing opportunities to direct their learning and to pursue information. With the usage of ICT students can learn any subject especially English with ease. In the context of the global exchange the role of ICT has become inevitable in the 21st century. The use of ICT has become essential in every day classroom teaching and learning. It's use gives a chance to teachers as well as students to increase the quality of education and meet the requirements set by the coeval knowledge society. ICT has become essential tool for educational change and reform. According to Jeremy Harmer, "a word innovation means something new, which means new ideas to change things for better." He claims that "if we look at all the language teaching methods which are used all over the world by different teachers at different levels, we cannot say that all of them are 100% successful. Therefore it is very important to keep looking and searching to find ways to make teaching and learning better."

Government has included ICT as one of the curricula in Indonesia's education. The Methodology of English has started a new way of using ICT in teaching. ICT provides more opportunities for communication between peer learners. With the use of ICT there is a two-way exchange of knowledge between home and school/ college. The teacher abides key to the successful use of ICT for learning. The integration of ICT in language teaching and learning has become an interesting topic to many researchers and education practitioners.

The internet offers the best way to learn language other than immersion in an English speaking milieu. The student's relationship with websites is more noticeable than with print based text. Internet users may return to sites frequently or use internet for interaction to share their

information and ideas. Digital technology is rapidly used by pupils and teachers not only in the classroom but also in the personal life.

Сборник материалов межрегионального форума «Женщины и девушки в науке и в технологии - 2023». Международной научно-практической конференции. Навоийский государственный горно-технологический университет. Навой 11 февраля 2023 года.

The advantages of online learning:

The internet saves our time and energy. We can learn English lessons through internet without the need of travelling and without the need of leaving home or bedroom. With internet students can learn English anywhere at any time and whenever they want. The internet offers instant feedback to the learners which enhance the learning experience of the students. An eBook is an electronic version of a traditional print book that can be read by using a personal or by using an eBook reader like iPods and kindle. EBooks also used to improve the teaching and learning skills in the classroom. In eBooks teachers and students can add images, info graphics, posters, video, and text, audio and so on. Learners can share eBooks with their friends. EBooks strengthen students' note making skills, the knowledge of English grammar and application skills.

Audio books develop the four language systems; phonological, semantic, syntactic and pragmatic. Audio books are recordings on CD or digital file of a book which are read aloud." The use of audio books with struggling, reluctant or second language learners is powerful since they act as a scaffold that allows students to read above.

Mobile Apps

Mobile digital devices like laptops, iPods, tablets, smart phones have made English language learning easier .At present there are so many apps available in the App store and Play store(Android) markets. These apps furnish students with quizzes, games, dictionaries, Podcasts and tests. Simultaneously teachers can now constitute the "gasification" element into their teaching which put out interest in the students for a given topic. Mobile apps can perform as a personal 24/7 English language teacher.

Audio-visual aids:

In the 21st century the use of AVA has become inevitable. It has started a new genre in the field of teaching and learning language. Apart from traditional teaching teachers must adopt the topical and innovative teaching techniques.

- 1 The use of AVA makes the students active.
- 2 Students can get rid off their boredom and dullness in the class.
- 3 Provide attentiveness and enthusiasm.
- 4 They help to nurture the power of surveillance and independent judgment.
- 5They give clarification about the content in the text book.

Over head projectors/slides:

To make ideas explicit we need some visual aids. Slides and slide projectors are used for unveiling objectsI in fullJ colour OvSer head projectoErs are used in language teaching and learning to supplement the black-board. Tape-recorder/gramophone:

This is useful for teaching pronunciation, stress and intonation. Recorded information can be reproduced in the classroom. It gives a chance to the students to develop interest towards pronunciation. It helps the students to test their speaking skills.

Television:

The most efficient medium for teaching is television. The television appeals both to the ears and eyes. We can record some language teaching programmers in CD or Cassettes and can telecast them. This shows significant impact on the minds of the students.

TALABA YOSHLARDA MA'NAVİY AHLOQIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOİY OMILLARI

Raxmanova M. Q., Raimboeva K. O.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati tizimida olib borilayotgan islohotlarning bosh negizida mamlakat buguni va kelajak poydevori bo'lgan – yoshlarning ma'naviy ahloqiy sifatlarini rivojlantirish orqali tarbiyalash dolzarb masala sifatida ilgari surilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoshlarning ma'naviy ahloqiy sifatlarini rivojlantirish masalasiga to'xtalib o'tar ekan: 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz” degan ushbu murojaatlari zahirida ham ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh-avlodni ma'naviy ahloqiy sifatlarini rivojlantirish orqali kamol tomishi muhim ahamiyat kasb etadi[.

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarda mustaqil faoliyat, yangi davrga mos keladigan ijtimoiy-ma'naviy xislatlarni, xususan, globallashtirish sharoitida muhim ahamiyat kasb etadigan milliy o'zlikni anglashning nazariy-metodologik va amaliy asosini tashkil qiladi. Uning shu yo'nalishdagi mohiyati siyosatshunoslik fanlari doktori S.A. Jo'rayevning yoshlar davlat siyosatining ta'rifida ochib berilgan: “Yoshlar siyosati bu jismonan va ruhan sog'lom milliy-etnik genofondni saqlash, qayta ishlab chiqarish, rivojlantirishga, intellektuallashtirish, ijtimoiylashtirish darajasini yaxshilash hisobiga uning salohiyati va mobilligini oshirishga, har bir yoshni faol jamiyat a'zosi, uyg'un rivojlangan shaxs sifatida yetishib chiqish jarayonlarini rag'batlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'naviy shart-sharoitlar majmuini yaratish sari maqsadli yo'nalish olgan davlat va jamiyat, partiyalar va harakatlarning alohida siyosiy yo'lidir”.

Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtida amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O'zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o'rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

Alohida ta'kidlash joiz, “2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”da ham bu masala alohida o'z aksini topdi. Jumladan, yoshlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilandi: birinchidan, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan,

Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish; ikkinchidan, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish; uchinchidan, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yil 27-iyunda imzolangan "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida»gi Farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo'ldi. Farmon bilan "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi tashkil etildi va ushbu jamg'arma yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berishi belgilab qo'yildi. Ushbu hujjatga e'tibor qaratilsa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganligini ko'rish mumkin.

O'z navbatida, O'zbekistondagi barcha o'zgarishlarning negizi hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda ta'lim, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat byudjeti xarajatlar umumiy qiymatining yarmidan ko'prog'ini tashkil etmoqda. Tabiiyki, har qanday davlat ham bunday katta xarajatlarni ko'tara olmaydi, ammo qanchalik og'ir bo'lmasin, buning uchun zarur mablag' va resurslar izlab topilmoqda. Talaba-yoshlarda ma'naviy ahloqiy sifatlarni rivojlantirishga ta'sir etish ahloqiy tarbiyalanish ham muhim o'rin tutadi. Chunki, "jamiyatning ma'naviy kamoloti o'z-o'zicha, sitixiyali amalga oshmaydi. Har bir tuzum, davr muayyan maqsadlar, talab va ehtiyojlar asosida kishilarning ma'naviy kamolotiga ta'sir ko'rsatadi, unga mazmun va muayyan yo'nalish beradi. Shunga asosan inson tarbiyasining biror tizimi, usullari va shakli kelib chiqishi" bilan ifodalanadi. A.Akramov talabalar fuqarolik pozitsiyasi tarkibiy qisim-larga to'xtalar ekan: ularni, xissiy-ahloqiy, intellektual, faoliyatli komponentlarga ajratadi va talabalarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish jarayoni, tarkibi, mazmunining ilmiy-pedagogik asoslarini yoritib bergan[3]. A.Erkaev o'z ilmiy izlanishlarida "e'tiqod dunyoqarashning, u orqali ma'naviyatning o'zagi sifatida voqelikka inson munosabatini, xulq atvorini, faolligini belgilaydi. Faollik uchun, ayniqsa ijodkorlik uchun oddiy ishonchga asoslangan ilm ko'p hollarda kamlik qiladi. Ijodkorlik va faollik ishonchning ixlos va ishq bilan boyitilishini ta'qozo etadi" deb ifodalagan. J.Rumiy o'z asarida "jismoniy mansublik bilan birga ruhoni, ma'naviy yaqinlikka ham ishonadi va u ma'no ahlini avliyo farzandi" deb e'tirof etadi. Chunki, yoshlar ma'naviy-ruhiy yetukligi o'z davrida mutaffakir asarlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, talaba yoshlarda ma'naviy ahloqiy sifatlarni rivojlantirish avvalo, uning individual sifatlariga e'tibor qaratishni nazarda tutadi. Shuning uchun olimlar tomonidan pedagogik amaliyotda individuallik pedagogikasiga oid qarashlarni ko'rib chiqish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bu ezgu g'oyasi O'zbekiston xalqi, ayniqsa, yoshlari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinib, qisqa vaqt ichida mamlakat bo'ylab keng quloch yozdi. Kelgusida real hayotga keng joriy etiladigan ushbu besh tashabbusga ko'ra, hududlardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holati keskin yaxshilandi, yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha yana 1,5 mingta to'garak tashkil etiladi. Hatto eng chekka qishloqlardagi madaniyat markazlarida ham badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" faoliyati yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, mamlakat miqyosidagi 12 mingdan ziyod sport inshootiga yoshlarni maksimal darajada qamrab olish choralari ko'rilib, barcha umumta'lim maktablari sport anjomlari bilan to'liq jihozlanadi. Shu bilan birga, olis va chekka hududlarda yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar quriladi. Bolalar va o'smirlar sport maktablari soni yanada ko'paytiriladi.

Adabiyotlar:

1. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy Majlisga Murojaatnomasi" 2020 y. 29 dekabr.
2. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. –T.: Fan, 1993. – 28 b.
3. Akramov A. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish-ning tashkiliy metodik asoslarini takomillashtirish. Ped.fan.dok.. dis..Avtoref...-T., 2016 y. 16 bet
4. M.Q.Raxmanova, B.B.Mirjalilova O'quvchilar ijtimoiy faolligini oshirish – ijtimoiy zaruriyat sifatida. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021 www.ares.uz B.452-503
5. Y J.E.Userov, M.Q.Raxmanova Yoshlarning intellektual salohiyati va faolligini rivojlantirishda pedagogik psixologik omillari/ Fan, Ta'lim va amaliyotintegratsiyasi ISSN: 2181-1776 2021 №4 Aprel. B.78-82
6. Mukaddas Rakhmanova "Scientific and pedagogical bases of preparation of students for development of social activity in the procrss of professional and pedagogical education" B.283-287

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BIOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA TALABALAR IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH ORQALI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA JALB ETISH

Ataqulova Manzura Nematovna

Navoiy Davlat Pedagogika instituti

Innovatsion pedagogik vosita va metodlar orasida tadqiqotchilik faoliyati etakchi o'rin tutmoqda. SHu maqsadda o'quv va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tadqiqot ishlarini o'tkazish o'rinlidir. Uning vazifasi individual xususiyat va layoqatlarini hisobga olgan holda, o'quvchida intellektni rivojlantirishga, mustaqil ijodiy faoliyatini tarkib toptirishga qaratiladi. Tadqiqot ishlarida ishtirok etish o'quvchiga o'z shaxsini qadrlash, ilmiy va ijodiy ishlash metodlari bilan tanishishga, bilimlarga qiziqishini oshirishga, hamfikrlari va tengdoshlari bilan muloqot qilishga, ilmiy eksperiment va tadqiqotlarda qatnashish imkonini beradi.

Tadqiqotchilik metodi muammoli ta'limda markaziy o'rinni egallaydi. Bu metod o'qitish jarayonini talabalar imkoniyatiga mos tarzda sodda va tushunarli shaklda, ayni vaqtda, ilmiy tadqiqot jarayoniga o'xshash tarzda amalga oshirilishi, tadqiqot jarayonining asosiy bosqichlari – o'rganilayotgan mavzudan tadqiqot jarayoniga asos bo'la oladigan tushunarsiz jihatlarni ochib ko'rsatish, muammoni aniqlash va shakllantirish, farazni ilgari surish, tadqiqot rejasini tuzish va amalga oshirish, noma'lum faktlarni o'rganish va amalga oshirish, ilgari surilgan farazni tekshirish, natijalarni shakllantirish, olingan bilimlarning ahamiyati va ularni qo'llash imkoniyatlarini baholashni qo'llash demakdir. Bu metod talabalar tomonidan ijodiy, mustaqil hal qilishga qaratilgan nazariy va amaliy topshiriqlarning qo'yilishi demakdir. U talabalarni izlanish va mustaqil ijodiy faoliyatga yo'llaydi.

Tadqiqotchilik yondashuvi ta'lim jarayoniga nisbatan qadim zamonlardan, insoniyatda bilim olishga ehtiyoj tug'ilgan davrlardanoq mavjud bo'lgan. Bir muammoni hal qilish jarayonida yangilariga to'qnash kelinadi va ularni ham hal qilish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan tadqiqot haqiqiy ilmiy tadqiqotdan bir qancha muhim jihatlari bilan farq qiladi.

Bir muammoni hal qilish jarayonida yangilariga to'qnash kelinadi va ularni ham hal qilish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan tadqiqot haqiqiy ilmiy tadqiqotdan bir qancha muhim jihatlari bilan farq qiladi.

Birinchidan, muammoli ta'lim jarayonida tadqiq etiladigan o'quv muammolari va o'quvchilar aniqlaydigan ilmiy haqiqat fan olamida yangilik hisoblanmaydi. O'quvchilar esa uni o'z tajribalarida ilk bor tadqiq etadilar va o'zlarini ilmiy haqiqatni aniqlayotgan kashfiyotchi deb biladilar.

Ikkinchidan, ushbu jarayonda o'quvchining tadqiqotga nisbatan rag'batini olimnikidan butunlay farq qiladi. O'quv tadqiqoti o'qituvchi boshchiligida, shaxsan uning ishtiroki va rahbarligida o'tadi. Lekin ushbu yordam shu tariqa amalga oshirilishi lozimki, o'quvchilar tadqiqot maqsadiga o'zlarini mustaqil ravishda erishdim deb bilishlari lozim.

Uchinchidan, boshqa har qanday metod kabi tadqiqot metodi ham universal metod emas, boshlang'ich va o'rta sinflarda ta'lim jarayoniga uning ayrim elementlarinigina tatbiq etish mumkin. Bu o'quvchilarni yuqori sinfda tadqiqot metodini birmuncha murakkab va yanada takomillashgan holatini qo'llay olishga imkon beradi.

Kashf etish quvonchini his etgan talaba keyingi yangi vazifalarni hal etishdan cho'chimaydi. Ular izlanish qiyinchiliklaridan keyin kashf etish quvonchiga erishishlarini biladilar. Tadqiqot metodining o'quvchini tarbiyalash va komillashtirishdagi ahamiyati ham aynan shundadir.

Keltirilgan o'quv faoliyati bosqichlari tadqiqotchilik texnologiyasining an'anaviy ta'limdan tubdan farq qilishini ko'rsatmoqda. Zero, bunda, birinchidan, talabalarga bilimlar tayyor holda uzatilmaydi, balki muammo tarzida qo'yiladi, o'quvchi - talabalar qo'yilgan muammoni o'zlari mustaqil echadilar. Bilimlar o'qitishning maqsadi bo'lmay, muammoni echish vositasiga aylanadi. O'quvchilar yangi bilimlarni o'zlashtirishning o'zlari uchun qanchalik zarur ekanini his qiladilar (usiz qo'yilgan muammoni echa olmaydilar), bu esa ularda motivatsiyaning sezilarli darajada o'sishiga olib keladi. Ularning o'quv faolligi kuchayadi. Avvalo, mustaqil ishlash darajalari ortadi. Bu o'z navbatida oliy ta'lim muasasalaridagi ilmiy va konstruktorlik to'garaklari ishini jiddiy tartibda yo'lga qo'yish, unda ro'yxatga olingan iqtidorli talabalar bilan ishlashda faqat nazariy ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish bilan chegaralanmay, eksperimental tajribalar qo'yish borasida amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishga innovatsion, texnologik yondashuvni yo'lga qo'yish lozim. Buning uchun esa talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirishga alohida e'tibor berish zarur[2;].

Ilmiy-tadqiqot topshiriqlarining mazmuni talabalarning bilish mustaqilligini rivojlantirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash, maxsus o'quv ko'nikmalarini rivojlantirish, flora va faunalarning xilma-xilligini, yashash muhitiga moslanishini o'rganish, biologiya xonasining o'quv bazasini o'z mustaqil faoliyati natijasida tayyorlangan gerbariyalar, kolleksiyalar bilan to'ldirishga qaratilgan[2;].

Biologiya ta'limi jarayonida talabalarni ijodiy tafakkurni o'stirish orqali tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etish masalalari ham tadqiqotchilik metodlarini samarali tarzda tashkil etishni taqozo etadi. Yani o'quvchi – talabalarni ijodiy tafakkurini oshirishga qaratilgan kreativ topshiriqlar berish nihoyatda muhim sanaladi.

Oliy ta'lim tizimida ta'lim olayotgan talabalarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlikka toqat qilolmaslikka yordam beradi. Kreativ sifatlariga ega talaba kelajakda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, iog'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek o'rtog'lari bilan fikr almashinish ko'nikmalariga ega bo'ladilar[2;].

Kreativ fikrlash – bu innovatsion (yangi, novator, original, nostandart, noodatiy va hokazo...) va samarali (amaliy, natijaviy, tejamlı, optimal va hokazo) yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir.

Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish... . Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsulidir. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlar orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan.

G'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislariga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir. Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumiyashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan.


Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatika qoidalarini “suv qilib ichib yuborgan” bo'lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn “Tasavvur — bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Tomas Edison “Kreativlik — g'ayriixtiyoriy jarayon”, deydi. Lekin har kuni ko'plab mutaxassislar muammolarga noodatiy yechim topishga zaruriyat sezadi. Ular mana shu g'ayriixtiyoriy jarayonni ixtiyoriylashtirishi mumkinmi? Tabiatda yangi fikrlarni yuzaga keltiruvchi “sehrli tayoqcha” yo'q, biroq har qanday mutaxassisning kreativ o'ylashiga ko'maklashadigan ko'plab usullar mavjud. Buning uchun ijodiy fikrlashga vaqt ajratish, ijodiy salohiyatni anglash lozim. Jorj Bernard Shou hazillashib shunday deydi: “Ko'pchilik yiliga ikki-uch marta o'ylaydi. Mening butun dunyoga mashhurligim sababi — haftada bir yoki ikki marta o'ylaganim”. Demak, hayolga kelgan yangi fikrlarni e'tiborsiz qoldirmaslik, o'ylash uchun imkon yaratish muhim.

Ijodkorlik chegarasini belgilang. Muammoli masalaga duch kelgan paytingizda ijodkorlik chegaralarini belgilang. O'zingizdan “Eng oddiy yechim nimada?” deb so'rang. Keyin “muammoni hal qilishning aql bovar qilmas varianti”ni tasavvur qiling. Oddiy va hayratlanarli yechim o'rtasida sizga ijodiy maydon paydo bo'ldi. Endi yangi g'oya mavhum emas, uning chegaralari mavjud. Bu ijod jarayonidagi psixologik bosimni yengillashtiradi.

SHuni ta'kidlash kerakki hattoki oliy ta'lim muassasalari talabalarida ham izlanuvchanlik, ijodkorlik, yaratuvchanlik kabi xususiyatlari doimo ham yuqori saviyada deb bulmaydi, shu jihatlarni hisobga olgan holda o'quvchi – talabalarni kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish pedagogik jarayonda mo'him hisoblanadi. Xususan, o'qituvchilar kreativ fikrlash ko'nikmasini samarali shakllantirish maqsadida talabalarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur fe'llarning bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, talabalardan “bir hujayrali va ko'p hujayrali hayvonlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'riflab bering” mazmunidagi nazorat savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Zero, savol tarkibidagi “ta'riflab bering” tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra “mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o'ting” deyish bilan teng. Nazorat savollarini berishda talabalarni fikrlashga undovchi so'z (fe'l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. SHu sababli shaxsda kreativ sifatlarni shakllantirishning birinchi yo'liga ko'ra pedagoglar turli, antiqa, noan'anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so'z (fe'l)lardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. M: “bog'liqlikni toping”, “yarating”, “bashorat qiling”, “fikrni mantiqan bayon eting”, “tasavvur qiling” kabi so'z (fe'l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi yoki bunday holda taniqli psixolog E.P.Torrens tomonidan asoslangan “Tugallanmagan rasmlar” testi yuzasidan ishlashga oid topshiriqlar berish ham maqsadga mofiqdir. Sizning e'tiboringizga E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi havola etiladi va berilgan shtrixlarga tayangan holda to'laqonli rasm (surat)ni ishlash topshirig'i beriladi.

2-topshiriq. Bir hujayrali parazit xivchinlilarni “Tugallanmagan rasmlar”ini davom ettiring.



3 - topshiriq: Quyidagi rasmda raqamlar o'rniga tegishli rasmlarni chizing va izoxlang.


4- topshiriq: Nima uchun? Nimaga? So'zlaridan foydalanib amyoba (bir hujayrali hayvon) haqida 10 savol o'ylab toping.

5 - topshiriq: O'ylab ko'ring, barcha xivchinlilar (bir hujayrali xivchinli hayvonlar) yo'q bo'lib ketsa nima sodir bo'ladi? (Tashhislash metodi)

6 - topshiriq: O'ylab ko'ring, dunyoda barcha hasharotlar yo'q bo'lib ketsa nima sodir bo'ladi? (Tashhislash metodi)

7- topshiriq: Ninachi nomidan kichik insho yozing (Empatiya tasavvur metodi)

8 -topshiriq: Kanalarni -“O'ta xavfli jinoyatchilar” sifatida ta'riflang (Dalillar metodi asosida)



SHunday qilib, biologiya ta'limi jarayonida talabalar tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda turli metod shakl va vositalardan foydalaniladi. SHu bilan birga biologiya ta'limi jarayonida talabalar tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish texnologiyalari ham ularni mazkur soha bo'yicha etarli tajribaga ega bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

YUqorida aytib o'tganimizdek, talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga pedagogik vaziyatlar ham muhim hisoblanadi. Dars jarayonida talaba o'z fikrini bildirib olishi, himoya qilishi va uni himoya qilishga doir ko'rsatmalar, dalillar keltirishi, o'zaro savol-javob qilishga undaydigan bilim va tajriba orttirish usullaridan foydalanishi, tushunmagan qismlarini aniqlashtirishi va bilimlarni chuqur anglashi kerak bo'lgan vaziyatlardan foydalanadilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muammoli, loyihalash va intellektual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonini samarasini oshiradi. Talabalarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini va faoliyatini rivojlantirishda ma'lum maqsadlarga erishishga yordam beradi: talabalarning bilim olishga qiziqishini oshirish, ularni yanada yaxshi natijalarga erishishga yo'naltiradi.

Adabiyotlar .:

1. Amirov Nurbek Islamovich Karshi mux, andislik-iktisodiyot iktisodiyot instituti "Kasb ta'limi" kafedrasida katta o'qituvchisi pedagoglarda kreativ sifatlarini rivojlantirishning muammolari va samarali yo'llari" Oliy ta'lim, jurnal, maqola 2019 y, 4/77

TDPU huzuridagi tarmoq markazi dotsenti, p.f.n., M.Usmonboeva, katta o'qituvchi A.To'raev "kreativ pedagogika asoslari" moduli bo'yicha o'quv uslubiy 2016 yil.

Ataqulova M.N. Talabalarning tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy muammolari// Mug'allim hem uzluksiz bilimlendirio' ilmiy-metodikalıq jurnali. №4. Qaraqalpaq-2019. 38-42 bet (13.00.00; № 20).

Ergasheva G.S. Biologiya ta'limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirish. P.f.d. diss. O'zMU-2018 y., – T.: – 228 b.

<http://omgpu.ru>

<http://pandia.ru>

“УСТОЗ-ШОГИРД” ФАОЛИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШДА ШАРҚ ВА ҒАРБ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ИЛҒОР ҚАРАШЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ.

Рахманова М. Қ, Бекмирзаев А.А.

Чирчиқ давлат педагогика университети

Бугунги кунда мамлакатимизда изчил ислохотлар натижасида юрт истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир, ҳақр томонлаша шаклланган, ташаббускор, шижоатли ёшларни тарбиялаш билан бир қаторда ОТМда талаба-ёшлар ташаббусларини тўғри йўналтирган ҳолда, уларнинг касбий тайёргарлигини ошириш, ижтимоий фаоллигини ривожлантириш жараёни кўламини кенгайтириш зарурати мавжуд. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида «жисмонан соғлом, рухий ва интеллектуал ривожланган, мустақил фикрлайдиган, қатъий ҳаётий нуқтаи назарга эга, Ватанга содиқ ёшларни тарбиялаш, демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнида уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш» каби йўналишлар белгиланган бўлиб, бу ўз навбатида мазкур жараёни тадқиқий ва таҳлилий йўналишга эга бўлган ягона тизим сифатида кўриб чиқиш заруратини изоҳлайди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони, Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрда қабул қилинган «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги Қонуни, 2017 йил 5 июлдаги «Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи фаолиятини кўллаб-қувватлаш тўғрисида»ги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 июлдаги «Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини такомиллаштиришга доир комплекс чора-тадбир тўғрисида» ПҚ-3138-сонли қарори ҳамда мазкур соҳага тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда ушбу услубий қўлланма муайян даражада хизмат қилади.

Маълумки, устоз мураббийлар, ўқитувчи ва тарбиячилар фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари шундаки улар ҳар бир бола ёки талабанинг ёши ошган сари унинг эҳтиёжларида, интилиш ва қизиқишларида қандай сифат ўзгаришлари содир бўлаётганини мунтазам кузатиб бориши ва уларга амалий ёрдам бериши муҳим саналади. Рус педагоги К.Д.Ушинский таъкидлаганидек, шахс ривожланишини ҳар жихатдан ўрганишдир ва ўқитувчининг ишда муваффақият қозониш шарти ўз талабаларининг хислат ва хусусиятларини билишидир. Маълумки инсон туғилган кунидан бошлаб социал мавжудот бўлиб қолади. Унинг характери, ҳуқ-атвори, шахси барча ижтимоий омиллар йиғиндиси яъни теварак-атрофдаги одамларнинг унга муносабати, намуна кўрсатишлари, мафкуралари, ўз фаолиятида ҳосил қилган тажрибаси таъсирида шаклланади. Албатта, ижтимоий омиллар инсон шахсининг ҳар томонлама шаклланиши самарали таъсир кўрсатади. Устоз шогирдининг муайян ривожланиш давридаги хусусиятлари, характери ва феъл-атворини белгиловчи омилларнинг ҳаммаси биргаликда таъсир кўрсатишини билиши лозим. Бу борада қатор тажрибалар тўпланган.

Манбаларда берилишича, Абу Райҳон Беруний 76 ёшида хасталаниб ётиб қолади. Анчадан бери тўшакка михланиб қолган Берунийнинг холидан шогирдлари кириб-чиқиб, дам-бадам хабар олиб турадилар.

Шундай кунларнинг бирида Берунийдан хол сўраш учун қози Валвалужий ташриф буюради. Беруний қозининг мерос тақсимотига янги шархлар киритганини эшитган, лекин қози билан бу ҳақда бамайлихотир суҳбатлаша олмаган эди, ўша шархни қозидан айтиб беришини илтимос қилади. Қози: "Маъқул, аммо сал куч йиғиб олганингиздан сўнг бафуржа гаплашармиз",-дейди. Беруний: "Эй қози, мен шу мерос тақсимоти ҳақидаги шархингизни билмай бу дунёдан кўз юмиб кетганимдан кўра билиб, хотиржам кетганим афзал эмасми?"-дейди. Ноилож қолган қози мерос тақсимоти шарҳини баён қилади.Беруний бор вужуди билан кўзи юмилган ҳолда тинглар, айрим жойларини маъқуллар, айрим жойларига ўз фикрини ва таклифларини билдирар эди. Сўзини тугатган Валвалужий Берунийнинг оғир нафас олишига қараб, бугун шу суҳбат шарт эмасмиди, ул зотни толиқтириб қуйдим, деб хижолат бўлади ва кетишга рухсат сўрайди. У хали маҳалла бошидаги уйига етиб ҳам келмаган эдики, Берунийнинг ховлисидан йиғи овози эшитилади. Валвалужий орқасига қайтади. Давр илмига ташна, фан фидойиси Берунийдан шу тарзда жудо бўлган эди. Ул табаррук зот ўзидан бир қанча ноёб асарлар қолдирдики, мана неча асрлардан буён унинг авлодлари бу бебаҳо манбалардан ўзлари учун бой маънавий озуқа олиб келмоқдалар.Уларнинг адолатли, оқил фикрлари ханузгача маънавий дунёмизни машъал каби ёритиб келмоқда.

Ул зот улкан кашфиётлар, чуқур билим эгаси бўлишларига қарамасдан ўзининг ҳеч нарса билмаслигини, бундан ҳам кўпроқ билиш мумкинлигини шогиртларига ўқитиб айтиб, ўзига нисбатан норозилик билдирмоқда. Бундан ҳам ортиқ камтарлик ва бундан ҳам ортиқ ўзига талабчанлик бўлмаса керак. Берунийнинг бу фикрлари толиби илм ахли учун катта ҳаётий сабоқ, вақтнинг ҳар бир дақиқаси қайта такрорланмас эканлигини тушуниш, уни беҳуда сарфламаслик, қадрига етишнинг амалий намунасидир.

Талабаларда камтарлик, илмга интилиш, ўзига нисбатан талабчанлик, табиат томонидан берилган умр каби бетакрор имтиёздан унумли фойдаланиш каби хислатларни тарбиялашда Берунийнинг юқоридаги каби маънавий меросидан ижодий фойдаланиб бориш катта самара беради.

Инсон қадри умрида қанча йил яшагани билан эмас, балки бу фурсатдан қандай фойдаланганлиги, эл ва жамият манфаати йўлида нима ишлар қилганлиги билан ўлчанади. Бир аср умр кўриб, ном-нишонсиз ўтганлар ҳам бор, оз умр кўриб, абадий ном қолдирганлар ҳам бор. Инсонлар эл назарида уй-жой, молу мулклари билан яшамайдилар, балки халқ учун, шогирдларининг бахтли келажаги учун қилинган шарафли ишлари билан барҳаёт яшайди. Тарихга назар солсак, неча-неча асрлар давомида шохлар, бойлар, дарвешлар, хуллас қанча-қанча инсонлар бу ҳаётдан ўтишган. Аммо халқи учун, толибларининг маънавий камолоти йўлида риёзат чеккан Форобий, ал-Бухорий, Беруний, Ибн Сино, Умар Хайём, Нажмиддин Кубро, Баховуддин Нақшбанд, Лутфий, Алишер Навоий, Биноий, Кошифий каби алломаларимиз инсоният камолотининг йўлчи юлдузлари бўлганликлари учун мана неча асрлар ўтибдики, биз билан ёнма-ён яшаётгандек ишимизга, ўйларимизга, орзуларимизга ҳамкор, ҳамнафас, руҳи-поклари хотирамизда абадийдир.Яхши фазилатлар қалбида макон қурган ва уларни ҳаёти давомида янада сайқаллаб, такомиллаштириб борган инсон камолотга эришиб бораверади. Ақлий, ахлоқий, ҳуқуқий ва касбий билимлари сарчашмасини тўлатиб, камолотга интила борган инсон жамиятда қуёш каби нур сочиб туради. Қуёш ўз нури билан ҳам иситиб, ҳам шифо берганидек, комил инсон ҳам юртига, Ватанига фақат яхшилик келтиради

Дунёдаги ҳар бир халқнинг, миллатнинг фаҳри, ғурури бўлиб қолган донишмандлари, олиму фузалолари, буюк ижодкорлари бор. Инглизларда Шекспир, русларда Пушкин, озайбайжонларда Низомий ва Фузулий, туркманларда Махтумқули, ўзбек халқида эса Мир Алишер Навоийдир.

Бу ўринда, Алишер Навоий яратган жавоҳир хазинасининг бир жиҳати унинг устозларга бўлган муносабатидир. Навоий умри давомида тарихий ўтмишга ижодкор салафларию, пиру устозларига баланд ҳурмат сақлаб, уларни эъзозлашга, кадр қимматини сақлашга даъват этган. Аллома меросида акли расо, диёнатли шогирт, яхшиликни ўзининг ҳаётий шиори қилиб олиши, шундай эътиқод билан яшаши кенг ҳаётий мисолларда баён қилинади. Зеро, инсон бу фаний дунёга меҳмон. Шу боис фарзандлари, навнихол авлод учун сабоқ, ибрат бўларли амалларни қолдириши зарур:

“Садди Искандарий” достонида ўз талабаларига мурожаат этиб, ўтмишда нимаики фойдали, тараққиётга таянч, инсон камолотига омил бўладиган нарсалар яратилган бўлса, уларни камоли эҳтиром билан ўрганиш, ўзлаштириш ва бойитиш лозимлигини уқтиради.

Шу йўлдан бормаган, ўтмиш авлод сабоқларидан хулоса чиқариб, ўз истиқболини белгилай олмаган авлоднинг келажаги йўқлигига доир танбеҳлар беради: Чиндан ҳам тарихий хотирасиз келажакни тасаввур қилиш мумкин эмас. Ўз тарихини, ўтмишини, қадриятларини яхши билган, уларга ҳурмат билан қараган халқ истиқболини кўра олади, ривожланади.

Юқоридаги фикрларга асосланган ҳолда айтиш жоизки, олий ўқув юртлари учун “Устоз-шогирд” фаолиятини ташкил этишни қуйидаги талаблар асосида амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

1. “Устоз-шогирд” фаолияти асосларини онгли эгаллашни ва талабаларнинг интеллектуал-маънавий ривожланишлари билан қўшиб олиб боришнинг педагогик механизмларини очиб бериш;

2. Талабаларни инсоният эришган бой қадриятларга, миллий ғоя ва миллий мафкурага суянган ҳолда “Устоз-шогирд” фаолиятининг ўзига хос илмий-амалий асослари билан қуроллантириш;

3. Бола, талаба, тушунчаларини абстракт ҳолда эмас, балки асосий маънавий-сифатларини таърифлаган ҳолда, бу сифатларни ёшга, философик, физиологик, психологик ва генетик асосларга боғлиқ ҳолда шакллантиришнинг илмий-назарий асосларини ишлаб чиқиш. Бу ишни ҳар бир гуруҳларда “Устоз-шогирд” методлари асосида тарбияловчи, ривожлантирувчи томонларини очиш орқали амалга ошириш, бунда халқ педагогикаси ва этнопедагогикадан ҳамда замонавий илғор тажрибалардан кенг фойдаланиш;

4. “Устоз-шогирд” фаолиятини ташкил этишда устоз Кадрлар тайёрлаш миллий моделини ҳаётга жорий қилиш учун талабаларни фан ва ўқув фанлари қурилишининг умумпедагогик амалий асослари билан қуроллантиришга ва талабаларда таълим, фан, ишлаб чиқаришни самарали интеграциялаш механизмлари, мазмуни ва усулларини шакллантириш мақсадида ўқитишни илмий тадқиқот билан қўшиб олиб бориш, фанлар бўйича ҳар бир тушунчани ўзлаштиришда амалий, амалий-назарий машғулотлар узвийлигининг педагогик негизларини шакллантиришга хизмат қилиши лозим.

5. Олий ўқув юртларида “Устоз-шогирд” фаолиятини ташкил этишнинг самарали методлари орқали ҳар бир ўқув фанининг алоҳида соҳа сифатида ривожлантиришни педагогик таъминлаш учун талабаларнинг креатив фикрлаш қобилиятини ўстириш, мустақил фикрлаш ва онгли фаолият юритиш малакаларини шакллантириш ва ривожлантириш, мутахассислик педагогикаси асосларини мукаммал эгаллашга тўғри йўналтириш мақсадга мувофиқ бўлади.

Бизнингча, олий ўқув юртлари учун “Устоз-шогирд” фаолиятини ташкил этишни куйидаги талаблар асосида амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

1. “Устоз-шогирд” фаолияти асосларини онгли эгаллашни ва талабаларнинг интеллектуал-маънавий ривожланишлари билан қўшиб олиб боришнинг педагогик механизмларини очиб бериш;

2. Талабаларни инсоният эришган бой қадриятларга, миллий ғоя ва миллий мафкурага суянган ҳолда “Устоз-шогирд” фаолиятининг ўзига хос илмий-амалий асослари билан куроллантириш;

3. Бола, талаба, тушунчаларини абстракт ҳолда эмас, балки асосий маънавий-сифатларини таърифлаган ҳолда, бу сифатларни ёшга, философик, физиологик, психологик ва генетик асосларга боғлиқ ҳолда шакллантиришнинг илмий-назарий асосларини ишлаб чиқиш. Бу ишни ҳар бир гуруҳларда “Устоз-шогирд” методлари асосида тарбияловчи, ривожлантирувчи томонларини очиш орқали амалга ошириш, бунда халқ педагогикаси ва этнопедагогикадан ҳамда замонавий илғор тажриалардан кенг фойдаланиш;

4. “Устоз-шогирд” фаолиятини ташкил этишда устоз Кадрлар тайёрлаш миллий моделини ҳаётга жорий қилиш учун талабаларни фан ва ўқув фанлари қурилишининг умумпедагогик амалий асослари билан куроллантиришга ва талабаларда таълим, фан, ишлаб чиқаришни самарали интеграциялаш механизмлари, мазмуни ва усуллари шакллантириш мақсадида ўқитишни илмий тадқиқот билан қўшиб олиб бориш, фанлар бўйича ҳар бир тушунчани ўзлаштиришда амалий, амалий-назарий машғулотлар узвийлигининг педагогик негизларини шакллантиришга хизмат қилиши лозим.

5. Олий ўқув юртларида “Устоз-шогирд” фаолиятини ташкил этишнинг самарали методлари орқали ҳар бир ўқув фанининг алоҳида соҳа сифатида ривожлантиришни педагогик таъминлаш учун талабаларнинг креатив фикрлаш қобилиятини ўстириш, мустақил фикрлаш ва онгли фаолият юритиш малакаларини шакллантириш ва ривожлантириш, мутахассислик педагогикаси асосларини мукамал эгаллашга тўғри йўналтириш мақсадга мувофиқ бўлади.

ТЕХНИКА СОҲАСИДАГИ ГЕНДЕР ТЕНГЛИК ЁҲУД АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ

Арипходжаева М.Б., Рахматова Д.М., Гуломова Г.М.

Тошкент давлат техника университети

Гендер стратегияси доирасида гендер тенглик тушунчаси жамият ҳаёти ва фаолиятининг барча соҳаларида, шу жумладан сиёсат, иқтисодиёт, ҳуқуқ, маданият, таълим, илм-фан, спорт муносабатларида хотин-қизлар ва эркакларнинг ҳуқуқ ҳамда имкониятларининг тенглигини англатади.

Барчага маълум, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 2015 йилнинг сентябрида Барқарор ривожланиш бўйича ўтказилган саммитида қабул қилинган 70-сон резолюциясига мувофиқ, шунингдек, 2030 йилгача бўлган даврда БМТ Глобал кун тартибининг Барқарор ривожланиш мақсадларини изчил амалга ошириш бўйича тизимли ишларни ташкил этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси “2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарор қабул қилди.

Шу билан бирга, Ўзбекистон Барқарор ривожланишнинг Бешинчи мақсадини амалга ошириш доирасида “Гендер тенгликни таъминлаш ҳамда барча хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва имкониятларини кенгайтириш”га оид тўққизта вазифани ишлаб чиқди.

Ҳар йили 11 февралда илм-фан соҳасида хотин-қизларнинг ўрни ва аҳамиятига бағишланган халқаро тадбирлар ўтказилиши замирида муайян рамзий маъно бор. Гап шундаки, БМТ Бош Ассамблеяси томонидан қабул қилинган Тараққиёт мақсадлари йўлида фан, техника ва инновациялар тўғрисидаги резолюцияда 11 февраль – Илм-фанда хотин-қизлар иштироки халқаро куни, деб эълон қилинган.



1-расм. Ўзбекистонда олиб борилаётган гендер тенглик сиёсатининг модели.

Илм-фан, таълим ҳамда маданият соҳасида хотин қизларга бир қанча имкониятлар берилмоқда ва ҳуқуқлари кафолатмоқда жумладан, хотин-қизлар таълим олиш, қайта тайёрлаш ва малака оширишнинг барча турларидан фойдаланишга, таълим ва илмий жараёни амалга оширишда иштирок этишга, турли таълим дастурларига гендер мавзусини жорий этиш орқали фуқароларнинг гендерга оид маърифатини оширишга қўмаклашиш, ўқув адабиётларини тайёрлаш ва чоп этиш; ўқув дастурлари ва дарсликларни жинс бўйича камситишга йўл қўймаслик принципига мувофиқлик юзасидан мунтазам равишда мониторинг қилишни; гендер сиёсати амалга оширилишини таъминлаш масалалари бўйича аҳолининг ҳуқуқий маданиятини юксалтиришга қаратилган ахборот-маърифий тадбирларни рағбатлантириш ва ҳар томонлама қўллаб-қувватлашни, таълим соҳасидаги ваколатли орган таълим дастурларини, таълим муассасаларининг дастурларини ҳамда режаларини уларнинг хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатларини таъминлаш принципларига мувофиқлиги жиҳатидан экспертизадан ўтказишни таъминлайдилар .


Ҳозирги кунга келиб ҳар бир соҳада қўллаб хотин-қизларимиз жавлон уришмоқда, техника соҳаси ҳам бундан мустасно эмас, Бу йўналишда қўллаб олима аёлларимиз етишиб чиқмоқда, эркаклар билан тенг баробар жавлон урмоқ, эркаклар етган марраларни эгаллаш жуда машаққатли. Техника соҳасида олима аёллардан техника фанлари доктори профессори П.Матякубова, техника фанлари доктори К.Т.Норкулова, техника фанлари доктори, профессор У.А.Зиямухаммедова уларни тўхтовсиз санаш мумкин, чунки битта аёлнинг илм фан соҳага қўшган хиссаси бекиёсдир лекин баъзан тўсиқларга учраш ҳолатлари бор.

Аёлларнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий соҳада эркаклар билан тенг ҳуқуқ ва имтиёзлар асосида фаолиятини олиб боришда тенглик аста секин кўринмоқда. Ўзбекистон Республикасида 2018 йилдан бошлаб гендер тенглиги сиёсати амалга оширила бошланди. Сенатнинг ўтган биринчи ялпи мажлисида, 2020 йил 20 январь куни нутқ сўзлаган президент Шавкат Мирзиёев туман ҳокими лавозимида аёлларни қидираётгани, муносиб номзодларни амалда синаб кўриши [ҳақида](#) айтганди. «Нега аёл? Чунки аёлларимиз муаммоларни чуқурроқ ёндошишлиги, матонати, масъулият туйғуси, меҳнатсеварлиги билан барчага ўрнак бўла олади

Ўтган даврда жаҳон ҳамжамияти хотин-қизларни илм-фанга жалб этиш борасида сезиларли ютуқларга эришди. Бу ҳақда сўз борганда, авваламбор, ҳаётнинг барча жабҳаларида аёлларнинг имкониятларини кенгайтириш, хотин-қизларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш, уларнинг жамият ва давлат ҳаётидаги ролини кучайтириш айтилган вақтда Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегиясининг устувор вазифаларидан бири этиб белгиланганини таъкидлаш лозим.

«Иложи борича, аёлларимизнинг дардини, ташвишларини севинч ёшига, ғалаба ёшига, муваффақият ёшига, натижа ёшига айлантиришга ҳаммамиз биргаликда ҳаракат қиламиз. Битта қиз фарзандга илм берилса, имконият берилса ўқитилса, бутун оилани ўқитган бўламиз, деб ота-боболаримиз бежиз айтишмаган», деган эди юртбошимиз.

Атоқли бобомиз ҳам Абдулла Авлоний: “Қизлар ҳаммадан кўра билим олишга интилиши керак, чунки бу билим билан келажак авлодни тарбиялайди”, деб уқтиргани бежиз эмас. Аслида ҳам, ҳар қандай ривожланган жамиятда тараққиёт ва цивилизация даражаси аёлга бўлган муносабат, хотин-қизларга яратилган имкониятлар кўлами ҳамда миқёси билан белгиланади. Зеро, чуқур билим, маънавий баркамоллик бўлган жойда тараққиёт бўлади. Шундай экан, миллий ўзликни англаш ва маънавий покланишдан иборат узвий, табиий жараён аввало она – аёлдан бошланади. Аёл маънавияти бутун миллат маънавиятининг туб илдизидир.



2-расм. Техника соҳасида аёлларнинг фаоллиги

Хулоса қилсак, статистикага назар соладиган бўлсак, юртимиз илмий таълим муассасаларида 660 аёл фан доктори ҳамда 7 нафар аёл академиклар меҳнат қилаётганлиги, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси илмий-тадқиқот институтларида 3 минг нафарга яқин аёл-қиз тадқиқот олиб бораётганлиги маълум бўлди. Демак ўз-ўзидан равшанки, бу натижаларга ҳали келажакда яна кўплаб олималар ҳам қўшилади. Чунки, юрагида илм-фан орзуси билан ёниб яшаётган хотин-қизларимиз сони жуда ҳам кўп. Ёш олималарни турли фан соҳаларида ўз интеллектуал салоҳиятларини намойиш этишларида олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрларни мақсадли тайёрловчи таянч докторантуранинг ўрни катта аҳамият касб этмоқда. Бугунги кунда илмий салоҳиятни юксалтириш, таълим самарадорлигини ошириш ҳамда илмий ва илмий педагогик кадрлар тайёрлашни янада такомиллаштиришга хизмат қилмоқда.

Адабиётлар

1. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. — Toshkent: „O'zbekiston“, 2017. — 48 b.
2. Ўз.Рес. “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисидаги” Қонуни. Тошкент ш, 2019 йил 2 сентябрь, ЎРҚ-562-сон
3. Кулдашев И.Х., Арипходжаева М.Б., Сулейманов А.А. Исследование международного и отечественного опыта технологий обеспечения безопасности. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси фаолиятини ҳуқуқий таъминлаш: муаммо ва ечимлар илмий мақолалар тўплами. Ташкент, 2019. – С. 68-76.
4. <http://www.ombudsman.uz/uz/docs/ozbekistonda-olib-borilgan-gender-siyosati-inson-huquqlari-kafolatlanishining-muhim-mezoni-3>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”
6. Ўзбекистон Республикаси қонуни, 22.09.2016 йилдаги ЎРҚ - 410-сон «Меҳнатни муҳофаза қилиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида.
7. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 08.12.1992
8. <https://yuz.uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-xalqaro-xotin-qizlar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>

ЯНГИ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯДА КРОССВОРД УСУЛИ. АМАЛИЙ МЕХАНИКАДАН КРОССВОРДЛАР

Манглиева Ж. Х.¹, Эргашева Ш. А.²

¹Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети

²Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Навоий бўлими

Янги педагогик технологиянинг ривожини кўп жihatдан унда қўлланиладиган самарали усуллар рўйхатини кенгайтиришни тақозо этади. Шу муносабат билан ушбу мақолада Янги педагогик технологиянинг элементи сифатида кроссворд усулини қўллаш фикри илгари сурилган. Агар кроссвордларнинг хусусиятларига синчковлик билан назар солсак, биз уларни таълимга қўллашнинг кўпгина ижобий педагогик тамонларини кўришимиз мумкин.

Қўлланмада аввал кроссвордларнинг келиб чиқиши ва ривожини тарихи лавҳалари келтирилган, сўнгра бу лавҳалар асосида уларнинг педагогик жihatларини очиқ беришга ҳаракат қиланган, нaъмуна сифатида «Амалий механика» фанидан кроссвордлар тўплами ва уларнинг ечимлари келтирилган.

КРОССВОРД ТАРИХИДАН ЛАВҲАЛАР

Кроссворд XX асрнинг бошларида пайдо бўлди ва ўзининг кизикарлилик жозибаси билан қисқа вақт ичида бутун дунёга кенг тарқалди.

Кроссворд сўзи инглизча сўздан олинган бўлиб, кросс –« Крест »(+) ва ворд- «Сўз» каби сўзларнинг бирикмаси бўлиб, у бошқотирма маъносини англатади. Кроссворд «ўзаро кесишувчи» катакчалардан тузилиб, уни ечиш қоида­сига кўра, бу катакчаларга сўзлар ёзилиши ва ёзувда умумий катакчаларда бир хил ҳарфлар қатнашиши керак .

Кроссворднинг ватанини аниқлаш борасида уч давлат бахс юритадилар. Улар АҚШ, Англия ва ЖАР давлатларидир. Кроссворднинг газета саҳифасида биринчи марта чоп этилиши 1913 йилнинг 21 декабрига тўғри келади ва бу кун биринчи газета красвордининг туғилиш куни сифатида Гиннес рекордлар китобига расман киритилган. Бу кроссворд АҚШ да Артур Уинн томонидан тузилган бўлиб «Нью-Йорк уорлд» газетасида матбуотда эълон қилинган.

Дунёда биринчи кроссворднинг пайдо бўлишининг энг гўзал, романтик тарихий лавҳаси ЖАР давлатига тегишлидир. Бу давлат одамларининг гапига кўра биринчи кроссворд Капштадт (ҳозирги Кейптаун) шахрининг фуқароси Виктор Орвилл томонидан яратилган. Виктор Орвилл ўзининг бу кроссвордини , автомобил ҳалокати сабабли айбланиб, 3 йил муддатли қамоқ жазосини ўташи даврида яратган. Бу машҳур кроссвордни Виктор Орвилл, ўзини зерик­шдан холос қилиши учун, қамоқхонанинг квадрат шаклдаги тош плиткалари сетка­сидан иборат полида тайёрлаган. Сўнгра, қамоқдаги дўстларининг маслаҳатига кириб, кроссвордни қоғозга тушириб шаҳардаги энг машҳур газета нашриётга жўнатган. Виктор Орвилл ўзининг бу кроссвордини «Туда-сюда по квадратам» деб номлаган. Кроссворд кўпчиликда қатта кизиқиш уйғотган ва кейинчалик у бошқа нашриётларда ҳам эълон қилинган. Натижада кроссворд муаллифи қамоқ жазосини ўтаб озодликка чиққанда қатта миқдордаги гонорар пулига эга бўлган.

Қолган давр кроссвордни оммавийлашиш даври бўлди. Китоб кўринишида кроссвордлар тўплами биринчи бўлиб АҚШда 1923 йилда 750 минг нусхада нашр қилинди ва улар бир неча кундаёқ сотилиб кетди.

Бизнинг мамлакатимизда (собик СССР даврида) биринчи бўлиб кроссворд «Огонёк» журна­лининг 1929 йил 12 майдаги №18 сонидан босилиб чиққан.

Мамлакатимиз аҳолиси орасида кроссвордга кизиқиш жуда кучли.

«Тасвир», «Даракчи», «Парвона», «7x7», «Жавахир», «Хазина», «Кросс», «Хорошее настроение», «Крот», «Сова», каби газета саҳифаларида қизиқарли кроссвордларни чоп этилиши одат тусига кирган.

Кроссворд ҳақидаги қизиқарли тарихий лавҳалар жуда кўп. Улар билан кизиққанлар интернет саҳифаларига мурожаат этишлари мумкин. Айни вақтда биз ўқувчи диққатини яна бир лавҳага, яъни кроссвордлар рекордлари лавҳасига қаратмоқчимиз. Биринчи рекорд Ради Букартога тегишли бўлиб, унинг кроссворди 50400 сўзни ўз ичига олган. Сўнгра бу рекордни Светлана ва Семен Белявийлар янгилашган. Уларнинг кроссвордида 64 минг сўз бўлиб, улар бу кроссвордни тузишлари учун 7 йил вақт ва 6x8 метр қағоз сарфлашган. Болгария фуқароси дунёдаги энг катта кроссвордни яратди Болгариялик Христо Ёницов Гиннеснинг рекордлар китобига дунёдаги энг катта кроссворд муаллифи сифатида кирди. У 1001 варақда кроссворд ясаб, конструкциянинг умумий узунлиги 300 метрга етди, деб ёзади «ТАСС»газетасида

23 август 2016 йил - Болгариялик Христо Ионицов дунёдаги энг катта нашр қилинмаган кроссвордни тузди. У минг бир варақда 93769 атама жойлаштирган 2010 йил август ойида Гиннеснинг рекордлар китобига дунёдаги энг катта кроссворд ҳақида ёзув пайдо бўлди. У 132 минг катакни эгаллаган 25970 сўзни ўз ичига олади. Енг қувонарлиси, улкан кроссворд рус тилида ёзилган – у бор-йўғи юз нусхада чоп етилган “Рус кроссворд” газетасида чоп етилган. Кроссворд Россия байроғи рангларида тайёрланган бўлиб, у чоп етилган йиғма газетанинг ўлчами 2,3 га 2,4 метрни ташкил қилган.

Ереванлик кроссворд иктисодчиси Ара Ованнисян. Кроссвордлар тузиш унинг сеvimли машғулотиدير. Кроссвордни бажариш учун Ованнисянга урта уриниш керак бўлди ва 2008 йилда унинг иши якунланди. Бироқ, кроссворд-рекорд эгаси фақат 2 йилдан кейин нашр етилди. Русча кроссворд муҳаррири Алишер Халиловнинг таъкидлашича, дунёдаги энг катта кроссвордни яратишга уринишлар аввал ҳам Россия аҳолиси, ҳам дунёнинг бошқа ҳудудлари томонидан амалга оширилган. Аммо бундай ёзувларни рўйхатдан ўтказиш катъий талабларга боғлиқ. Шундай қилиб, кроссворд вертикал ва горизонтал равишда мукамал симметрик бўлиши керак, иккала ўқдаги сўзлар сони ҳам ҳисобга олинади ва яна кўп нарсалар. Шу сабабли, бундай кроссворд яратиш бўйича олдинги уринишлар муваффақиятли бўлмади. Аввалги улкан кроссворд 1982 йилда Роберт Труко томонидан тузилган. Кроссворд 3,55 кв.м майдонни эгаллаган ва 82951 катакда жойлашган 25614 та сўзни ўз ичига олган.

КРОССВОРДНИ ТАЪЛИМДА ҚўЛЛАШ Бўйича УСЛУБИЙ ТАВСИЯЛАР

Аввал кроссвордга оид муҳим педагогик жихатлар устида тўхтаб ўтамиз.

Талаба учун:

Кроссворд ўйин характерига эга. Бу хусусият мавзуни осон эгаллаш имконини беради. Чунки инсоннинг руҳияти мавзуни ўйин орқали қабул қилишга мойилдир.

Кроссворд хотирани чиниқтиради.

Кроссворд фикрлаш доирасини кенгайтиради.

Кроссворд англаш ва фаҳмлаш қобилиятини ривожлантиради.

Кроссворд сўз бойлигини оширади.

Кроссворд изланувчанликни вужудга келтиради.

Кроссворд интеллектуал салоҳиятни кенгайтиради.

Кроссворд мустақил фикрлаш кўникмасини ҳосил қилади ва шакллантиради.

Кроссворд бўш вақтни мазмунли ўтказиш имконини беради.

Ўқитувчи учун:

Кроссворд ўқув жараёнида талабанинг олган билимини аниқлашнинг барча назорат босқичларида (жорий, оралиқ ва якуний назорат босқичларида) қўлланиши мумкин.

Кроссворддан талабанинг мустақил билим олишини ташкил қилишда фойдаланиш мумкин. Масалан ўқитувчи тузган кроссвордлардан талабалар мустақил ёки биргаликда таълим олишларида фойдалансалар бўлади. Шунингдек, талаба ўзлаштириши керак бўлган мавзу бўйича мустақил равишда кроссворд тузиш топширигини бажариши ҳам мустақил билим олишнинг бир турини ташкил этади.

Кроссворд барча фанлар бўйича тузилиши мумкин.

Энди кроссвордни жорий назоратда ва талабаларнинг ўз устида мустақил ишлашларини ташкил қилишда қўллаш бўйича услубий тавсияларни келтирамиз.

Кроссвордни жорий назоратда қўллаш.

Айни шу кунгача ўтилган мавзулар бўйича тузилган кроссвордни талабаларга тарқатилади ва уларга катакларни тўлдириш учун 5 дақиқа вақт ажратилади. Талаба кроссворд катакларини мумкин қадар тўлдиради ва у тўғри деб ҳисоблаган жавоблар сонини қоғоз четига ёзиб қўяди. Ўқитувчи талабаларнинг жавобларини кўриб чиққач, тўғри жавобни кроссворднинг ечими кўринишида (яъни кроссворд катакларида) эълон қилади. Бу ишни техник восита - проектор ёрдамида экранда амалга оширилиши яхши самара беради. Талаба бир дақиқада ўз жавобининг тўғри ва хато жойларини англаб етади ва бу машғулот мавзуга оид билимни талаба хотирасида узоқ вақт сақланиб қолишига олиб келади.

Кроссворд ёрдамида талаба билимини текширишнинг бу усули ўқитувчига аудитория дарси вақтидан унумли фойдаланишига ва талабанинг таълим олишдаги фаоллигини оширишига имкон беради. Бирданига амалга оширилган бундай назорат тури талаба учун ҳам қизиқарли, ҳамда шу кунгача эгалланган назарий ва амалий билим кўникмаларни қанчалик эгаллаганлигини, ўзига ишончини, зеҳнини яна бир марта синаш имконини беради.

Кроссвордни талабаларнинг ўз устида мустақил ишлашларини ташкил қилишда қўллаш.

Бу ишни бирнеча кўринишда амалга ошириш мумкин:

Биринчидан, талаба ўқитувчи томонидан уйда машқ қилиш учун берилган кроссвордларни мустақил ечиб ўз билимини ошириши мумкин. Бу машқ пайтида талаба адабиётлардан ва бошқа манбаълардан фойдаланиши мумкин.

Иккинчидан, ўқитувчи томонидан берилган кроссвордлардан бирнечта талабалар биргаликда фойдаланиб ўз билимларини оширишлари мумкин. Бундай машғулот талабалар орасида эркин, бахс-мунозара, ўз аро бир-бирини синаш билан ўйин кайфиятида ўтади. Натижада билим осон ва мустаҳкам эгалланади.

Учинчидан, талабага мустақил кроссворд тузиш топшириғи бериш мумкин. Бундай топшириқ талабани мавзуга оид адабиётларни кўриб чиқишга чорлайди ва бу талабада ўз устида мустақил ишлаш кўникмасини шаклланишига олиб келади.

Кроссворднинг бошқа педагогик жиҳатлари, таълим жараёнида қўлланиш услубиятлари, кроссвордларни тузиш қоидалари, кроссвордларни тузишда компьютер ва информацион технологияларни қўллаш ҳақидаги фикрларни ривожлантириш масаласи келгуси методик ишлар мавзуларини ташкил этади. Энди биз наъмуна сифатида «Амалий механика» фанидан кроссвордлар тўплами ва уларнинг ечимларини келтирамиз.

ШОГИРДДА ЭНГ ЯХШИ СИФАТ ВА ФАЗИЛАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТИЗИМИ

Рахманова М. Қ., Одилов О.

Чирчиқ давлат педагогика университети

Мустақиллик шароитида педагогик фикр тараққиётида ўсиб келаётган ҳозирги замон ёшларини миллий шарқона, маънавий -тарихий қадриятларни ҳисобга олган ҳолда, замонавий руҳда тарбиялаш ҳамда юксак инсоний фазилатларга эга бўлган касб эгалари сифатида уларни тайёрлаш муаммосига кун сайин долзарб масала сифатида қалалиб эътибор ва талаб ортиб бормоқда.

Қадимда ҳар бир болага касб-ҳунур ўргатилар экан, ҳар бир касб-ҳунарни муқаддас ҳисобланганлиги алоҳида таъкидланган. Ота-боболаримиз устоз ва шогирдлар учун ўзига хос одоб-ахлоқ, махсус қонун-қоидалар, урф-одатлар, дуолар ва миллий анъаналарни ишлаб чиққан бўлиб, бу қоидаларга қатъий риоя қилишган. Устознинг ҳам, шогирднинг ҳам олдида қўйган ўзига яраша вазифалари ва бурчлари бўлган.

Ҳар бир устознинг ўзига яраша шахсий ва бий фазилатларининг ўз мезони бўлган. Шу мезон асосида устозга ижобий ва салбий баҳо берганлар. Шунинг учун ота ўз фарзандини якка шогирдликка беришда устознинг юқоридаги мезонга жавоб бера олиш даражасини атрофлича ўрганиб чиққан.

Устозлар шахсий ва касбий фазилатлари мезонига қатъий риоя қилиб келганлар. Бу шахсий фазилатлар мезони таркибига устознинг саҳийлиги, одоблилиги, меҳр-шавқатлилиги, марҳаматлилиги, очик юзлилиги, ширин муомалалилиги, сабрлилиги, талабчанлиги, каноатлилиги, тўғри сўзлилиги, пок бўлиши кабилар кирган. Устознинг касбий фазилатларига мураккаб билимларни содда усулда етказувчанлиги, барча ҳунар ва фан юзасидан муайян билимга эга бўлиши, қисқа вақтда ўз шогирдларини идрок қила олишга ўргатиш, шогирдларни уюштира олиш ва бошқариш истеъдоди кабиларни мисол келтириш мумкин. Мазкур мезонлар бугунги кунда ҳам республика касб-ҳунар коллежларида фаолият кўрсатаётган ўқитувчи-мураббийлар учун ҳам қимматлидир.

Бу ўринда шундай мисол қилиб айтиш мумкинки, Ризоуддин ибн Фахриддин устозларга шундай насиҳат қилган эди: "Шогирдингизнинг ҳар бир ҳаракатларига қараб турингиз, уларга хушмуомалаликни, гўзалу шафқатли одатларни тушунтирингиз, сўзлару феълларини яхшилангиз, уст-бошларини, кийим-кечакларини пок тутмоқлари ҳақида назорат айлангиз. Ёмон хулқлар юкумли бўлганидек, бир шогирднинг ёмон хулқи борлигини билсангиз, жумласини баробар кўриб, жумласи фойда олажак равишда ўргатингиз, фойдали ишлар, керакли адабларнинг жумласидан хабардор айлангиз, натижада бола мумкин қадар режа ила иш қилмоқ, эҳтиёткорлик, поклик, кўркам тартиб, кўп фойдасига тиришмак каби хосиятларингизни эгаллаб олади".

Шунингдек, устознинг касбий фазилатларига ўз ҳунарига қизиқиши, ўз ҳунарини ёшларга сидқидилдан ўргатиши, ўз ҳунарига янгиликлар кири тиши, шу ҳунари бўйича ўздан кейин яхши, содиқ шогирдлар қолдириши ва бошқалар киради.

Шогирд касбнинг илк сабоқларини, сир-асрорларини машаққат билан ўрганар экан, устоз меҳнатининг қадрига етмоғи ҳамда устоз бошлаган ишларини давом эттирмоғи лозим.

Демак, бугунги кундаги асосий масала талаба-ёшларга ҳар томонлама жаҳон андозаларига мос таълим ва тарбия бериш орқали уларни маънавий-ижтимоий фаоллигини ривожлантиришга қаратилган. Айниқса, талаба-ёшларга таълим-тарбия беришда маънавий мерос, ота боболаримиз томонидан яратилган ва бутун жаҳонга машҳур бўлган уларнинг бунёдкор ғоялари, таълимий ва тарбиявий қарашларидан самарали фойдаланишга аҳамият бериш ҳамда уларнинг маънавий меросидан фойдаланиш, устоз-шогирд одоби намуна мактабини яратиш -замон талабидир. Таълим тизимида устоз-шогирд намуна мактабини яратиш, педагогик мақсад вазифаларини ишлаб чиқиш, уларнинг одоби ва таркибий асослари, устознинг шахсий касбий фазилатлари, шогирд одоби, шогирднинг устоз олдидаги бурч ва вазифалари, шогирднинг энг яхши фазилатлари, шогирдларнинг бир-бирига муносабатлари одоби, таълим тарбия тизимида бўлажак кадрларни тайёрлашда "Устоз-шогирд намуна мактаби" нинг миллий моделини яратиш –давр талабидир.

Маълумки, талабалар ўзлигини англашга янгича ёндашиш фақат унинг ўзига, жамиятга, табиатга муносабатларида эмас, балки унинг фаолиятида илмий-амалий, ислохий ўзгаришлар содир бўлиб, у янгича фикрлаш асосларини эгаллашга қадам қўяди. Шу тариқа унинг тараққиётида янги сифат ўзгаришлари юз бериб уларни талабалар яхши эгаллаб, янгича фикрлаш асосларини яхши эгаллашлари, бой тарихий-тарбиявий меросни ватанимиз ва хориж педагогларининг илғор тажрибаларини ўрганиб, замонавий маънавий-инсоний ва ижодий-маҳсулий сифатларни ўзларида шакллантиришлари лозим.

Олий ўқув юртини тугатувчи бўлажак мутахассис келажакда фақат мактаб, коллеж ҳамда олий таълим муассасаси ўқитувчиси ёки илмий ходимигина бўлиб қолмасдан, маънавий-интеллектуал етук шахс бўлиб етишишини таъминлаш учун албатта "Устоз-шогирд" фаолияти талаба кўз ўнгида мустақил йўналиш сифатида унинг хоттираси ва тасаввурида ижобий таъсир кўрсатиш омили сифатида сақланиб қолади.

МАДАНИЯТЛАРАРО МУЛОҚОТ КОМПЕТЕНЦИЯСИ

Мирзаева М. Н.

Навоий давлат кончиликлари ва технологиялар университети

Бизга маълумки, тил мулоқот воситаси ҳисобланади. Мулоқот вақтида тингловчига гапирилаётган мавзунинг етказиб берилиши жиҳатидан аниқлиги ва тушунарлилиги муҳим саналади. Ижтимоий ҳаёт тез суръатлар билан ривожланиб борар экан, у ижодкор олдига янги – янги муаммоларни, жумладан, ижтимоий – сиёсий ҳодисаларни акс эттириш вазифасини қўяди. Чет тилларини маданият ташувчи восита сифатида ўқитиш, ўргатиш ҳозирги замон талабидир. Ўзбекистон республикаси жаҳон таниган ва қўлаб ривожланган мамлакатлар қаторида илдамлаб бораётган давлат қаторидадир. Бугунги кунда мамлакатимизда жаҳоннинг ривожланган мамлакатлари каби таълим тизимини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилиб, бу жабҳани янада такомиллаштириш мақсадида бир қатор чора ва тадбирлар амалга оширилмоқда ва шу билан бир қаторда миллий тарбия тизимини шакллантиришга мустаҳкам замин яратилмоқда. Шубҳасиз бугунги кундан бизга маълумки, фан ва техника жадал суръатлар билан ривожланаётган бир пайтда илмий билимлар, тушунча ва тасаввурлар ҳажми кескин ортиб бормоқда.

Ҳар бир чет тили дарси бу маданиятлар учрашуви чорраҳасидир. Ҳар бир чет тили сўзи ортида ўша давлат маданияти акс этади, сўз орқали дунёни билиш тасаввури ётади. Тилда чиройли равон гапириш миллат маданиятини белгилайди ва бу жараёнда маданиятлараро мулоқот компетенцияси юзага келади. Мамлакатимизда ҳозирги кунда педагог кадрлар тайёрлаш сифат ва самарадорлигини ошириш, чет тилини билиш даражасини аниқлаш борасида босқичма-босқич муҳим ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 11 майдаги ПФ-134-сон “2022 — 2026 йилларда халқ таълиминини ривожлантириш бўйича миллий дастурни тасдиқлаш тўғрисида” Фармони, 2021 йил 19 майдаги ПҚ-5117-сон “Ўзбекистон республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” Қарорининг қабул қилиниши замон талабларига мос чет тиллари бўйича педагог кадрлар тайёрлашга илмий-назарий, амалий-методик ёндашувни янада кучайтирди.

Биз компетенция (лотинча-competentis-қобилиятли) атамасини чет тилларни ўқитиш жараёнида билимлар, малакалар, кўникмалар мажмуи сифатида тушунамиз. Шуни биламизки, тил ва маданият таълимнинг тенг ҳуқуқли, бир-бирини ўрнини босувчи, бирга таъсир қилувчи воситалари сифатида ишлатилади. Тил ўрганиш жараёнида тилни ўрганувчиларда компетенция шаклланади. Талабаларни ҳар томонлама ривожланишлари учун таъсир кўрсатадиган лингвокультурологик ҳодисалар устида тўхталиб ўтар эканмиз, биз авваламбор матн тўғрисида маълумотга эга бўлишимиз лозимдир.

Матн – тилшуносларнинг диққат марказида бўладиган тил ҳодисалари тоифасига киради. Матннинг хорижий тилларни ўрганишда кўп вазифани бажаришини амалий услубиятда кўп ўрганганмиз. Матн бу мулоқот воситаси бўлиб, ахборотни йиғувчи ва етказувчи, шахснинг руҳий ҳаётини шакли бўлиб, анъаналар, маданиятларни акс эттиради. Матннинг шундай вазифаларни бажариши текстда у ёки бу даражада тили ўрганилаётган мамлакатнинг лингвокультурологик ҳаққоний эканлиги ўз аксини топади. Ҳар бир янги тилни эгаллаб, биз тасаввурларимиз имкониятларини кенгайтирамиз ва бу жараён янги тил ва маданиятни тушунишимизга сабаб бўлади. У ёки бу жамиятда қабул қилинган прагматик нормалар тушунмовчиликлар ва қарама-қаршиликларга олиб келиши мумкин.

Баъзи бир тилшуносларнинг фикрича турли маданият вакиллари ўртасидаги суҳбат тилга оид бўлмаган сабаблар, прагматик компетенциянинг бир қисми бўлган маданий фонни билмаслик сабабли бузилади. Чет тилларни ўрганишда ўз маданиятига ва тили ўрганилаётган мамлакат маданиятига эътибор бериш керак. Чет тилини ва маданиятини ўрганаётган талабалар:

- ўзини бир вақтда бир неча маданий гуруҳлар (этник, ижтимоий, ҳудудий, диний, тил ва хоказо) маданиятлар субъекти сифатида тасаввур қилишни;
- турли маданий гуруҳлар вакиллари орасида маданий ўхшашликни кўра билишни;
- гуруҳлар тоифасига мансубликни ўзгариши мулоқот контекстига боғлиқлигини тушунишни;
- замонавий маданий жамоалар орасидаги маданий нормаларни умуминсоний жараёнларда ўз ўрнини билиши.

Коммуникатив методика ғояларига биноан чет тили ўқитиш мазмуни таркибидаги тил материали (лексика, грамматика, фонетика) ни танлаш ва ўқув жараёнида қўллашда функционал ёндашиш тавсия этилади, яъни тил ўрганувчи тил ҳодисаларини нутқий фаолият юритиш мақсадида ўзлаштиради. Мулоқот бирламчи таълимий вазифа ҳисобланганлиги сабаб, лексик – грамматик материални эгаллашда кўп қўлланиладиган қоидаларни курак ёд олиб ўқитувчига айтиб беришдан воз кечишни талаб этади. Чет тили таълимини асосий мақсади ахборот алмашишга қаратилади.

Шахсга йўналтирилган ўқитиш – бу талабанинг шахсий хусусиятлари, қизиқишлари, қобилияти ҳамда имкониятларини инобатга олувчи, илғор педагогик ва ахборот технологияларидан талаба шахсини ривожлантиришда самарали фойдаланишга қаратилган жараёндир. Шу боис ўқитишни дифференциаллаш ва индивидуаллаштириш шахсга йўналтирилган таълимни жорий этишнинг асосий тамойиллари сифатида хизмат қилади.

Замонавий жамиятда таълим тизимини ривожлантиришнинг йўналиши деб, бу инсоннинг турли соҳаларда мақсадли мустақил фаолияти асосида унинг интеллектуал ва ахлоқий ривожланишидир. Жаҳоннинг ривожланган давлатлари қатори мамлакатимизда ҳам таълимдаги ислохотлар жараёнида касб маҳорати ва коммуникатив компетентлигини ошириш муҳим йўналиш сифатида қаралмоқда.

Мулоқот мақсадини рўёбга чиқишида тил бирликларини пухта эгаллаш уларни нутқда эркин ва тўғри ишлатишга хизмат қилади. Тилни ўзлаштириш натижасида коммуникатив компетенция шаклланади. Тил ўрганувчи шахси фаолият субъекти тарзида тавсифланади. Ўқувчиларнинг нутқда сўз, сўз бирикмалари, гапларни тўғри қўллай олишлари ва улардан мазмунни тўлиқ идрок этиб, ажратиб олишлари нутқ компетенциясига киради. Бу жараёнда нутқ фаолияти турларини билиш даражаларини аниқлаш муҳим саналади. Тилдан амалиётда фойдалана олган ўқувчиларда коммуникатив компетенция шаклланган деб ҳисоблаш мумкин.

Адабиётлар

1. Mirzaeva M.N. The acquisition of a foreign language // Молодой учёный. – Казань, 2017. – № 16 (150). – С. 412-414. ISSN 2072-0297.
2. Mirzayeva M.N. Bilim va mahorat – o'qituvchi kasbiy kompetentligining rivoji sifatida // Uzlaksiz ta'lim. – Toshkent, 2018. – 3-son. – B. 104-108. ISSN 2091-5594 (13.00.01, № 9).
3. Азизхаджаева Н. Педагогик технология. –Т.: 2001. 46-б.
4. Jalolov, J., and G. Makhkamova. "Ashurov Sh." English Language Teaching Methodology. Tashkent (2015).

ШОГИРДЛАРДА ЭНГ ЯХШИ АХЛОҚИЙ ФАЗИЛАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТИЗИМИ

Рахманова М.Қ., Холбутаева М.Т

Чирчиқ давлат педагогика университети

Ўсиб келаётган ҳозирги замон ёшларини миллий шарқона, маънавий -тарихий кадриятларни ҳисобга олган ҳолда, замонавий руҳда тарбиялаш ҳамда юксак инсоний фазилатларга эга бўлган касб эгалари сифатида уларни тайёрлаш муаммосига кун сайин долзарб масала сифатида қалалиб эътибор ва талаб ортиб бормоқда.

Қадимда ҳар бир болага касб-ҳунур ўргатилар экан, ҳар бир касб-хунарни мукаддас ҳисобланганлиги алоҳида таъкидланган. Ота-боболаримиз устоз ва шогирдлар учун ўзига хос одоб-ахлоқ, махсус қонун-қоидалар, урф-одатлар, дуолар ва миллий анъаналарни ишлаб чиққан бўлиб, бу қоидаларга қатъий риоя қилишган. Устознинг ҳам, шогирднинг ҳам олдига қўйган ўзига яраша вазифалари ва бурчлари бўлган.

Ҳар бир устознинг ўзига яраша шахсий ва бий фазилатларининг ўз мезони бўлган. Шу мезон асосида устозга ижобий ва салбий баҳо берганлар. Шунинг учун ота ўз фарзандини якка шогирдликка беришда устознинг юқоридаги мезонга жавоб бера олиш даражасини атрофлича ўрганиб чиққан.

Устозлар шахсий ва касбий фазилатлари мезонига қатъий риоя қилиб келганлар. Бу шахсий фазилатлар мезони таркибига устознинг саҳийлиги, одоблилиги, меҳр-шавқатлилиги, марҳаматлилиги, очиқ юзлилиги, ширин муомалалилиги, сабрлилиги, талабчанлиги, қаноатлилиги, тўғри сўзлилиги, пок бўлиши кабилар кирган. Устознинг касбий фазилатларига мураккаб билимларни содда усулда етказувчанлиги, барча ҳунар ва фан юзасидан муайян билимга эга бўлиши, қисқа вақтда ўз шогирдларини идрок қила олишга ўргатиш, шогирдларни уюштира олиш ва бошқариш истеъдоди кабиларни мисол келтириш мумкин. Мазкур мезонлар бугунги кунда ҳам республика касб-ҳунар коллежларида фаолият кўрсатаётган ўқитувчи-мураббийлар учун ҳам қимматлидир

Бу ўринда шундай мисол қилиб айтиш мумкинки, Ризоуддин ибн Фахриддин устозларга шундай насиҳат қилган эди: "Шогирдингизнинг ҳар бир ҳаракатларига қараб турунгиз, уларга хушмуомалаликни, гўзалу шафқатли одатларни тушунтирунгиз, сўзлару феълларини яхшилангиз, уст-бошларини, кийим-кечакларини пок тутмоқлари ҳақида назорат айлангиз. Ёмон хулқлар юқумли бўлганидек, бир шогирднинг ёмон хулқи борлигини билсангиз, жумласини баробар кўриб, жумласи фойда олажак равишда ўргатингиз, фойдали ишлар, керакли адабларнинг жумласидан хабардор айлангиз, натижада бола мумкин қадар режа ила иш қилмоқ, эҳтиёткорлик, поклик, кўркем тартиб, кўп фойдасига тиришмак каби хосиятларингизни эгаллаб олади".

Шунингдек, устознинг касбий фазилатларига ўз ҳунарига қизиқиши, ўз ҳунарини ёшларга сидқидилдан ўргатиши, ўз ҳунарига янгиликлар кири тиши, шу ҳунари бўйича ўзидан кейин яхши, содиқ шогирдлар қолдириши ва бошқалар киради.

Шогирд касбнинг илк сабоқларини, сир-асрорларини машаққат билан ўрганар экан, устоз меҳнатининг қадрига етмоғи ҳамда устоз бошлаган ишларини давом эттирмоғи лозим.

Демак, бугунги кундаги асосий масала талаба-ёшларга ҳар томонлама жаҳон андозаларига мос таълим ва тарбия бериш орқали уларни маънавий-ижтимоий фаоллигини ривожлантиришга қаратилган.

Айниқса, талаба-ёшларга таълим- тарбия беришда маънавий мерос, ота боболаримиз томонидан яратилган ва бутун жаҳонга машхур бўлган уларнинг бунёдкор ғоялари, таълимий ва тарбиявий қарашларидан самарали фойдаланишга аҳамият бериш ҳамда уларнинг маънавий меросидан фойдаланиш, устоз-шогирд одоби намуна мактабини яратиш - замон талабидир. Таълим тизимида устоз- шогирд намуна мактабини яратиш, педагогик мақсад вазифаларини ишлаб чиқиш, уларнинг одоби ва таркибий асослари, устознинг шахсий касбий фазилатлари, шогирд одоби, шогирднинг устоз олдидаги бурч ва вазифалари, шогирднинг энг яхши фазилатлари, шогирдларнинг бир- бирига муносабатлари одоби, таълим тарбия тизимида бўлажак кадрларни тайёрлашда “Устоз- шогирд намуна мактаби” нинг миллий моделини яратиш – давр талабидир.

Маълумки, талабалар ўзлигини англашга янгича ёндашиш фақат унинг ўзига, жамиятга, табиатга муносабатларида эмас, балки унинг фаолиятида илмий-амалий, ислохий ўзгаришлар содир бўлиб, у янгича фикрлаш асосларини эгаллашга қадам қўяди. Шу тариқа унинг тараққиётида янги сифат ўзгаришлари юз бериб уларни талабалар яхши эгаллаб, янгича фикрлаш асосларини яхши эгаллашлари, бой тарихий-тарбиявий меросни ватанимиз ва хориж педагогларининг илғор тажрибаларини ўрганиб, замонавий маънавий-инсоний ва ижодий-маҳсулий сифатларни ўзларида шакллантиришлари лозим.

Олий ўқув юртини тугатувчи бўлажак мутахассис келажакда фақат мактаб, коллеж ҳамда олий таълим муассасаси ўқитувчиси ёки илмий ходимигина бўлиб қолмасдан, маънавий-интеллектуал етук шахс бўлиб етишишини таъминлаш учун албатта “Устоз-шогирд” фаолияти талаба кўз ўнгида мустақил йўналиш сифатида унинг хоттираси ва тасавурида ижобий таъсир кўрсатиш омили сифатида сақланиб қолади.

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА КАСБГА ЙЎНАЛТИРИБ ЎҚИТИШНИНГ МЕТОДИК ТИЗИМИ

Каримова Наргиза Абдугафуровна

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети

Жаҳонда ўқувчиларда касб танлашга мақсадли йўналтириш, касбий ижтимоийлашув орқали ижтимоий ҳаётга тайёрлаш, табиий фанларни касбга йўналтириб ўқитиш орқали таълим олувчиларда ҳаётий компетенцияларни ривожлантиришга доир қатор илмий изланишлар олиб борилмоқда. Айниқса, биология соҳасининг кўп тармоқли эканлигини ҳисобга олган ҳолда, умумий ўрта таълим давриданок касбга йўналтириб ўқитишнинг методик тизимини такомиллаштириш, ўқувчиларнинг касбий идентиклигини белгилаш орқали биология фани бўйича вариатив ўқитиш шакллари ишлаб чиқиш, келажакда ўқувчиларнинг ўзи танланган касбида биологик билимлардан самарали фойдаланиш лаёқатини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу эса, умумий ўрта таълим мактабларида биология фанини касбга йўналтириб ўқитишнинг ташкилий-педагогик механизмининг такомиллаштириш, рефлексив ёндашув асосида ўқувчиларнинг илмий-табиий компетенцияларини ривожлантириш методикасини такомиллаш-тиришни тақозо этилди.

Республикада ёш авлоднинг ҳар томонлама баркамол улғайиши, замонавий касбий билимларни пухта эгаллаши, истеъдод ва салоҳиятини намоён этиши учун барча шароитлар яратилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Кимё ва биология йўналишларида узлуксиз таълим сифатини ва илм-фан натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги [Қарори](#) бу борада муҳим дастуриламал бўлиб хизмат қилмоқда.

“Зеро, ўғил-қизларимизни кимё ва биология фанлари бўйича чуқур ўқитиш ҳудудларда янги-янги ишлаб чиқариш корхоналарини барпо этиш, юқори қўшилган қиймат яратадиган фармацевтика, нефть, газ, кимё, тоғ-кон, озиқ-овқат саноати тармоқларини жадал ривожлантиришга тўртки беради ҳамда пировардида халқимиз турмуш шароити ва даромадларини оширишга пухта замин ҳозирлайди” [1].

Ўқувчиларни онгли равишда касб танлашга тайёрлаш узоқ ва кўп қиррали жараёндир. А.Е.Измаилов касбни тўғри танлаш ахлоқий фазилатларни шакллантириш ва фан асослари бўйича ўқувчилар билимларини ривожлантириш даражасини оширишнинг зарур шартларидан бири деб ҳисоблайди [3].

Педагогик таъсир кўрсатиш нуктаи назаридан тушунча моҳиятини аниқлашда асосий эътибор, аввало, таълим бериш ва тарбиялаш жараёнида шахснинг муҳим касбий сифатларини шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилади. Касбий йўналтиришни қўллаб-қувватлаш бўйича ишларни нафақат маълум бир касбий танловни қўллаб-қувватлаш сифатида, балки бир қатор ўзига хос компетенцияларни шакллантиришга қаратилган махсус таълим фаолияти йўналиши сифатида кўриб чиқишга ҳам эътибор қаратиш лозим.

Замонавий мактабда касбга йўналтириш ишларининг асосий ғояси, бошқа томондан, шахсий хусусиятлар, қобилиятлар, қадриятлар ва қизиқишларни ҳисобга олган ҳолда, ўқувчиларнинг ижтимоий-касбий ўзини ўзи белгилашини ижтимоий-педагогик ва психологик қўллаб-қувватлашни яратишдир [2].

Бизнинг талқинимизча, касбга йўналтириш ишларининг мақсади – ўқувчига фаолият соҳасини танлашда, ўша соҳада эса унинг қобилият ва имкониятларига жавоб бера оладиган касбни танлашда қўмаклашиш ҳамда касбга бўлган қизиқиш ва иштиёқини оширишида ёрдам кўрсатишдан иборат. Бошқача сўз билан айтганда, касбга йўналтириш – бу маълум бир мақсадга қаратилган фаолият бўлиб, жамият эҳтиёжлари, ўқувчиларнинг иштиёқи, касбий қизиқишларини шакллантириш билан боғлиқдир.

Кўп ҳолларда маълум бир касбни танлаш йўли ўқувчиларнинг ўқув фанларига қизиқишини ривожлантириш орқали ўтади. Биологияга қизиқиш биринчи навбатда, ушбу фаннинг амалий аҳамияти билан боғлиқ. Ва касбий қизиқиш уйғонишининг асосий усулларида бири –бу ажойиб ёрқин ўқитишдир. Биология фанига меҳр уйғонган ўқувчилар уни келажакдаги касбларининг асосига айлантирмоқчи бўлиб, у ерда ушбу фанларга оид қайси мутахассисликлар борлигини аниқлай бошлайди ва тегишли ўқув юртларига ўқишга киришга тайёрланади. Бу, авваламбор, ушбу фанни катта иштиёқ ва фаоллик билан ўрганишларида намоён бўлади. Шундай қилиб, ўқитиш жараёнида касбга йўналтириш ишининг моҳияти ўқувчиларга асосий ўқув материални чуқур ва қатъий ўзлаштиришда ёрдам бериш, уларни мустақил равишда маълумот олишга, олинган билимлардан турли хил амалий муаммоларни ҳал қилишда фойдаланишга ўргатишдир. Касбга йўналтириш таълим тизимида мустақил йўналиш сифатида ўзига хос шаклланиш тарихига эга. Касбга йўналтиришнинг баъзи элементлари Қадимги Дунёда: қадимги Бобил, Миср, Греция, Спартада касб танлаш, қобилият ва малакаларни касбий диагностика қилиш пайдо бўлган. Бироқ, илмий жиҳатдан мазмунли фаолият сифатида касбга йўналтиришнинг бошланиши XX асрнинг бошларига тўғри келади, бунда алоҳида фанлар ва илмий йўналишларнинг интеграцияси ва дифференциацияси тенденцияси тобора кучайиб борган, иккинчи томондан, ишлаб чиқариш жараёнларининг интенсивлиги ошиши муносабати билан меҳнатни ихтисослаштириш ва касбийлаштиришнинг роли тобора кучайиб борган [4].

Шундай қилиб, XX асрнинг бошларида илмий-амалий ишлар жараёнида босқичма-босқич касбга йўналтириш асослари яратилди. Шунинг таъкидлаш керакки, касбга йўналтиришнинг бошқа жиҳатлари етарлича ишлаб чиқилмаган ёки умуман, эътиборга олинмаган бўлса-да, ушбу даврда касбий диагностика ва касб танлаш масалаларига асосий эътибор қаратилди.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 21 августдаги «Кимё ва биология йўналишларида узлуксиз таълим сифатини ва илм-фан натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4805-сон [қарори](#). // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.08.2020 й., 07/20/4805/1174-сон.
2. Хасанова Ш.Б. Интеграция ёндашув асосида ўқувчиларнинг таянч ва фанга оид компетенцияларини шакллантириш методикаси (9-синф биология фанини ўқитиш мисолида). Дисс. (PhD). Тошкент. – 2019. 154 б.
3. Е.А. Психология профессионального самоопределения: учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по специальностям: Педагогика и психология, Соц. педагогика, Педагогика. - М.: Academia, 2004. –301 с.
4. Колбинцева А.С. Методика оценки уровня профессионального самосознания // <https://cyberleninka.ru/article/n/metody-otsenki-urovnya-professionalnogo-samosoznaniya>

КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ЛОЙИХАЛАШТИРИШНИНГ ЧИЗИҚЛИ СИНТЕТИК МОДУЛИ

Зокирова Дилноза Нейматиллаевна

Наманган муҳандислик-қурилиш институти

Замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш умумкасбий фанларни билиш жараёнининг умумий интеграцион аъёналарини қўллаб-қувватлайди. Касбий компетентликларни ривожлантириш бўйича таълим жараёни самарадорлигини таъминлаган ҳолда таълим жараёнини индивидуallasштириш имкониятини амалга оширади. Таълим олувчиларнинг ахборот компетенцияларининг таркибий қисмларидан бири электротехник йўналиш, бизнинг фикримизча, дастурлаш қобилияти ҳисобланади.

Дастурлаш орқали қуйидаги вазибаларни ҳал қилиш мумкин [1]:

- таълим воситалари (муаммога йўналтирилган, объектга йўналтирилган, мавзуга йўналтирилган), ўрганиш объекти, бошқарув воситалари, коммуникация воситалари, ахборотни қайта ишлаш воситалари кўринишидаги ўқув мақсадлари учун дастурлаш воситаларини талабаларнинг лойиҳалаш фаолияти орқали яратиш;

- касбий компетентликни ривожлантиришнинг чизиқли синтетик модулни ривожлантириш асосида аппарат-дастурий таъминотни яратишда аналогли ва алоҳида сигналларни киритиш ҳамда чиқарилишини таъминловчи бир нечта физик катталиклар, қурилмаларни сенсорлаш, рўйхатга олиш ва ўлчаш воситаларининг имкониятларини интеграциясини таъминлаш (1-жадвал).

1-жадвал

Касбий компетентликни лойиҳалаштиришнинг чизиқли синтетик модули

Модул элементлари	Элементлар тавсифи
Мақсадлар	Интеграцион технологиялар асосида таълим мазмунини такомиллаштириш. Билиш, интеллектуал-ижодий, маънавий-ахлоқий соҳаларда таълим олувчилар шахсини ривожлантириш. Инсонни шахс ва профессионал сифатида шакллантириш.
Даражалар	Цикллар орасидаги (фан цикллари орасида) интеграция. Фанлараро интеграция (фанлараро алоқа).
Омиллар	Тушунчаларни ёритишда узлуксизликни таъминлаш, турли фанларни ўрганишда худди шу тушунчаларни ёритишда такрорланишни чеклаш. Бир хил гуруҳдаги тушунчаларни ёритишда ягона ёндашувни амалга ошириш. Ахборот технологияларини ривожлантириш, университет кафедраларини боғловчи ягона тармоқ яратиш, ягона маълумотлар банкни шакллантириш. Ўқувчиларнинг фанлараро алоқаларни ўрнатишни талаб қилувчи тадқиқот лойиҳалари устида ишлашининг ижодий, изланувчанлик табиати.
Таркиб	Мотивацион, йўналтирилган, мазмунли, фаолиятли, натижавий.
Дидактик воситалар	Мажмуавий муаммоли масалалар, фанлараро билиш вазифалари, мураккаб вазифалар, лойиҳалар, объектга йўналтирилган Delphi тилида электрон дарсликлар
Вазифалар	Қадриятли йўналтирилган. Интеграцион ривожлантирувчи. Рефлексив-баҳолаш.
Методлар	Янги билимларни олиш. Амалий кўникмаларни ишлаб чиқиш ва ўқув, тадқиқот ҳамда касбий фаолият тажрибасини тўплаш. Таълим олувчилар ўзаро фаолиятини ташкил этиш ва ижтимоий тажриба тўплаш

Бу қуйидаги касбий компетентликларни ривожланишига ёрдам беради: дастурлаш даражасида электр ўтказувчиларни бошқариш жараёнини автоматлаштириш қобилияти; технологик бошқарув жараёнини такомиллаштириш имкониятларини кўриш қобилияти; ихтирочилик қобилияти.

Бундай мажмуалардан фойдаланиш талабага тадқиқот воситасини тақдим этади, улар ёрдамида [2]:

- ҳақиқий жараёнда ўрганилаётган ёки тадқиқот олиб борилаётган маълумотларни рўйхатдан ўтказиш, йиғиш, тўплаш; ўрганилаётган жараёнлар моделини яратиш ва тадқиқ қилиш;

- жараёнларнинг қонуниятларини, шу жумладан ҳақиқий жараённи тасаввур қилиш;
- тажриба натижаларини қайта ишлаш жараёнларини автоматлаштириш;
- ҳақиқий фаолият объектларини бошқариш.

Ахборот технологиялари асосида ишлайдиган ушбу мажмуалар, ўқув, намоиш қилиш жиҳозларини қўллаш тажриба-тадқиқот ишларини ҳақиқий ўрганиш объектлари, уларнинг моделлари ва тасвирлари билан индивидуал (ҳар бир иш жойида) ва гуруҳли, жамоавий ташкил этиш имконини беради.

Бу ўрганилаётган қонуниятларни мустақил ёритишга олиб келувчи таълимнинг тадқиқот методларини кенг жорий этишни таъминлайди, у электротехника йўналишидаги бўлажак мутахассисларнинг асосий компетентликларидан бири бўлган илм-фан асосларини ўзлаштириш, интеллектуал салоҳият, ижодий қобилиятни ривожлантириш жараёнини ривожлантириш имконини беради.

Таълимни ахборотлаштириш жараёни ва у билан боғлиқ таълим жараёнида ахборот технологияларидан фойдаланиш нафақат таълимнинг ташкилий шакллари ва методларини ўзгартиришга олиб келади, балки янги таълим методларининг пайдо бўлишига олиб келади.

Фан соҳаларини математика ва ахборотлаштириш, таълим фаолиятини интеллектуализациялаш, ахборот технологияларини қўллаб қувватловчи атроф-муҳитни билиш жараёнининг умумий интеграцион анъаналари ўрганилаётган фан соҳасини кенгайтириш ва чуқурлаштириш, ўрганилаётган фанлар ёки алоҳида мавзуларни интеграциялашга олиб келади. Бу ўқув материаллари таркибни танлаш мезонларининг ўзгаришига олиб келади. Улар таълим олувчи шахсининг интеллектуал ва ўз-ўзини ривожлантириш жараёнини кучайтириш, дунё ҳақидаги билимларни расмийлаштириш кўникмаларини шакллантириш, ахборотни қайта ишлашнинг турли хил замонавий методларидан фойдаланган ҳолда билимларни қўллаш зарурлигига асосланади.

Шундай қилиб, ахборотлаштириш ва таълим жараёнини ривожлантириш билан боғлиқ алоқалар ўқув материалларининг ҳажми ва мазмунини ўзгартиради, ўқув фанлари тузилиши ва мазмунидаги ўзгаришларга олиб келувчи ўқув фанлари дастурларини қайта тузиш, бир нечта фанларни интеграциялаш содир бўлади. Ушбу жараёнларга параллел равишда компьютер тестлари мажмуасини ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланиш, назорат методларини ташхислаш ва ўзлаштириш даражасини баҳолашга асосланган таълим олувчилар билим даражаси муаммосига инновацион ёндашувлар жорий этилади.

Таълим мазмуни ва тузилмасини, таълимнинг ташкилий шакллари ҳақидаги фикрларни, таълим методлари ва натижаларини назорат қилишни ўзгартириш таълимнинг хусусий методикасини ўзгаришига олиб келади. Таълим жараёнида ахборот технологиялари имкониятларини амалга ошириш ва бу билан боғлиқ бўлган ўқув фаолияти турларини кенгайтириш таълим воситалари, китобларга бўлган дидактик талабларни сифатли ўзгартиришга олиб келади. Бу ўқув фанларининг педагогик дастурий воситалари мисолида аниқ кўрсатилади.

Адабиётлар

1. Sayfullayeva, D. A., Tosheva, N. M., Nematova, L. H., Zokirova, D. N., & Inoyatov, I. S. (2021). Methodology of using innovative technologies in technical institutions. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 7505-7522.
2. Zokirova, D. N. (2021). Goals And Objectives Of Organizing Independent Work Of Students. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 179-182.

ELEKTRON TA'LIM MUXITIDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Nasirova Sh. N

Navoiy davlat pedagogika instituti

Jahon miqqiyosida jamiyat rivojining turli sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, intellektual salohiyatni rivojlantirishning muxim omili sifatida sifatli ta'limni shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jarayonni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va tahlil qilishga o'rgatish, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarning o'quvchilar shaxsiy tajribasini boyitishiga erishish muhim o'rin egallamoqda.

Ta'lim tizimini axborotlashtirish jarayoni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarilmoqda, ya'ni o'quv jarayonini konstruksiyalash va bu jarayon barcha ishtirokchilarining o'zaro ta'sirini tashkil etish uchun o'qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanish masalasi muvaffaqiyotli hal etilmoqda.

Respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborotlashtirish darajasini oshirishda axborot texnologiyalari, apparat-dasturiy vositalarni intellektual boshqarish tizimlari asosida elektron axborot resurslarining bilimlar bazasini shakllantirishda milliy kontentni yaratish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. O'quvchilarning kompyuter savodxonligini, darslarda ijodkorligini, ilmiy yechimlarni izlashga qodir, mustaqil fikrlay oladigan o'z nuqtai nazarini bayon qiladigan, individual yondashuv orqali didaktik ta'minot vositasida muhim xulosalar chiqara oladigan o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish zarur.

Respublikamizda uzluksiz ta'limni amalga oshirish jarayonida masofali ta'lim, ta'lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarini kompyuter muhitida o'qitishning samarali va zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanishning nazariy-amaliy asoslarini A.Aripov, A.A.Abduqodirov, U.SH.Begimqulov, R.R.Boqiyev, P.M.Jalolova, F.M.Zakirova, X.I.Ibragimov, U.X.Mingboyev, F.R.Murodova, B.Mo'minov, M.D.Pardayeva, B.M.Surobov, N.I.Tayloqov, B.Z.To'rayev, M.A. Fayziyev, I.A.Eshmamatov, I.A.Yuldoshev, U.Yuldashev va boshqalarning tadqiqotlarida kuzatish mumkin. Kompyuterni o'rganish va ulardan foydalanish motivatsiyasini rivojlantirish P.V.Razbegayev, ularning samarali fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari V.A.Letsko , YE.A.Loktyushina ham ko'rib chiqilgan. Turli mutaxassisliklar o'qituvchilarini tayyorlashda kompyuter o'qitishdan foydalanish masalalari faol o'rganilmoqda T.A.Kuvaldina, A.V.Shtirov va boshqalar.

Kompyuter texnologiyalarning muntazam rivojlanib borishi jarayonida, ayniqsa, dasturiy ta'minot vositalari sohasida, o'quvchilarning texnologik dunyoqarashni, mediasavodxonligini rivojlantirish, texnologik kompetentlikni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarni amaliyotga samarali tadbir etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Ta'limni rivojlantirishning zamonaviy bosqichida o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasini oshirishda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan samarali foydalanishni taqozo qilmoqda. Ta'limga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq yechilmagan muammo ko'plab uchraydi. Jumladan, tezkor yechimini talab qiluvchi yangi masalalar belgilanmoqda: ta'limni modernizatsiyalash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mazmuni va o'qitish metodlarini aniqlash; axborot ta'lim maxsuloti va texnologiyalari sifatini nazoratini ta'minlash yuzasidan multimedia va web-texnologiyalarni foydalangan holda yangi raqamli tarqatuvchilarda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratish; ta'limni axborotlashtirishda kadrlar bilan ta'minlash muhim o'rin egallaydi.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan muammoli ta'lim konsepsiyasiga tayangan holda "Informatika" fanidan amaliy ishlarni bajarish uchun" va "Python dasturlash tilida masalalar yechish" nomli uslubiy qo'llanmalar yaratildi.

Tadqiqotlar davomida "O'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantiruvchi elektron uslubiy dastur" dastur ishlab chiqildi. Bu dastur maktab o'quvchilarini shaxsiy erkinlik xususiyatlari, mezonlari va rivojlanish darajasini aniqlashga ko'mak berdi. Pedagogik dasturiy vositalar yordamida umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining elektron ta'lim muxitida refleksiv ko'nikmalari shakllantirildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, olib borilgan tadqiqotlar, asosan, ta'lim muassasalarida elektron ta'lim muxitida o'quvchilarning shaxsiy erkinligini takomillashtirish, o'quvchilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga oid bo'lib, ularda mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining didaktik ta'minotini ishlab chiqish va joriy etishga kam e'tibor qaratilgan. Bu esa, xalq ta'lim muassasalari o'quvchilarida mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish masalasini atroflicha tadqiq etishni taqozo etadi.

Ta'lim bugungi kunda insonparvarlik pedagogikasi an'analarni, xususan, erkin tarbiyani anglash davri bo'lib, unda kompyuterli ta'lim jarayonida o'quvchilarning shaxsiy erkinligini takomillashtirish g'oyalarini tizimli amalga oshirish darajasiga yetkazishi mumkin bo'lgan tadqiqot nuqtai nazarining asosi hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan texnika yutuqlari, yaratilayotgan yangiliklar va rivojlanishlar asosida vujudga kelgan o'quvchilarga bog'li xolda maktab, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari va pedagogik jamoaning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish asosida vazifalar belgilash nazarda tutilgan.

Kompyuterlashgan ta'lim jarayoni axborot-kommunikatsiya muhitining mazmuni, o'qish jarayoniga o'quv materiallarini taqdim etish yangi metodlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini ochadi va o'quv jarayoni ishtirokchilari uchun bilish faoliyatini erkinligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Nasirova Sh.N., Maxmudova M.A. The importance of electronic education resources in the effectiveness of the lesson Electronic journal of actual problems of modern science, education and training december 2019-V ISSN 2181-9750, Urganch, № 5, 2019.—S.1-8.
2. Nasirova Sh.N., Maxmudova M.A., Yodgorov G'.R., Qutbiddinov A. Effectiveness Of Using Computer Technologies In Developing Students 'Learning Ability. **Psychology and Education (ISSN: 0033-3077)**, (Skopus) USA, p.619-624

AUTOMATION SOLVING THE PROBLEM OF MATH PHYSICS BASED ON AN INTERDISCIPLINARY APPROACH

Tursinboyeva Z.U., Ismoilova Z.T.

Navoi state university of mining and technologies

Most problems in physics are reduced to the integral. Consider, for example, this question: Similarly to the fluid flow, we introduce the concept of $\Phi = P(x, y, z)i + Q(x, y, z)j + R(x, y, z)k$ vector flow through S surface. While assume that at each point of this surface, $n = i\cos\alpha + j\cos\beta + k\cos\gamma$ is defined, the unit normal vector and its guiding cosines are continuous functions of the coordinates of the points surfaces [1].

The vector flow Φ (or the flow of the vector field Φ) passing through the surface S is called the following integral taken along the surface:

$$\Pi = \iint_S (\Phi \cdot n) dS = \iint_S (P\cos\alpha + Q\cos\beta + R\cos\gamma) dS \quad (1)$$

The calculation of this integral reduces to the calculation of the double integral.

$$\iint_S f(x, y, z) dS = \iint_{\sigma_{xy}} f(x, y, \varphi(x, y)) \sqrt{1 + \varphi_x'^2(x, y) + \varphi_y'^2(x, y)} d\sigma \quad (2)$$

If α and β – are the acute angles of the normal formed by the axes Ox and Oy , respectively, then the following formulas are valid similarly to (1) formula:

$$\iint_S f(x, y, z) dS = \iint_{\sigma_{xz}} f(x, \omega(x, z), z) \sqrt{1 + \omega_x'^2(x, z) + \omega_z'^2(x, z)} d\sigma \quad (3)$$


$$\iint_S f(x, y, z) dS = \iint_{\sigma_{yz}} f(g(y, z), y, z) \sqrt{1 + g_y'^2(y, z) + g_z'^2(y, z)} d\sigma \quad (4)$$

Here $x = (y, z)$, $y = \omega(x, z)$ – are the equation of this surface, respectively solved with respect to x and y , σ_{yz} and σ_{xz} are projections of the surface S on the plane Oyz and Oxz . [2].

In this $dS = \frac{d\sigma}{\cos\alpha}$ or $dS = \frac{d\sigma}{\cos\beta}$, $\cos\alpha = \frac{1}{\sqrt{1+g_y'^2+g_z'^2}}$, $\cos\beta = \frac{1}{\sqrt{1+\omega_y'^2+\omega_z'^2}}$ (α и β – are acute angles).

Problem. $\Phi = xy^2i + \frac{yz}{2}j + x^2zk$ vector flow function, find the value of the flow Π flowing through the section $z = x^2 + y^2$ paraboloids of rotation and $x^2 + y^2 = 4$ cylinders, in which take the direction of the acute angle as the normal direction, which forms this normal with the Oz (see figure).

The geometric image of the problem is presented in the Mathcad program [3].



Problem solving: The solution of the problem is based on (1) formula

$$\Pi = \iint_S (\Phi \cdot n) ds = \iint_S (P \cos \alpha + Q \cos \beta + R \cos \gamma) dS \quad (1)$$

Find the n unit normal vector to the paraboloid of rotation. If the surface is given by the equation $z = \varphi(x, y)$, then

$$n = \frac{-\varphi'_x(x, y)i - \varphi'_y(x, y)j + k}{\sqrt{1 + \varphi'^2_x + \varphi'^2_y}}$$

In this case $\varphi(x, y) = x^2 + y^2$, so $n = \frac{-2xi - 2yj + k}{\sqrt{1 + 4x^2 + 4y^2}}$. Therefore,

$$\Phi \cdot n = \frac{-2x^2y^2 - y^2z + x^2z}{\sqrt{1 + 4x^2 + 4y^2}}.$$

Thus, the flow Π on this surface can be represented by an integral:

$$\Pi = \iint_S \frac{-2x^2y^2 - y^2z + x^2z}{\sqrt{1 + 4x^2 + 4y^2}} ds$$

To calculate the integral over the surface through the double integral we will use the formula

$$\iint_S f(x, y, z) ds = \iint_{\sigma_{xy}} f(x, y, \varphi(x, y)) \sqrt{1 + \varphi_x'^2(x, y) + \varphi_y'^2(x, y)} d\sigma \quad (2)$$

and considering that

$$z = \varphi(x, y) = x^2 + y^2, \quad \sqrt{1 + \varphi_x'^2 + \varphi_y'^2} = \sqrt{1 + 4x^2 + 4y^2}$$

we get the following:

$$\begin{aligned} \Pi &= \iint_{\sigma_{xy}} \frac{-2x^2y^2 - y^2(x^2 + y^2) + x^2(x^2 + y^2)}{\sqrt{1 + 4x^2 + 4y^2}} \sqrt{1 + 4x^2 + 4y^2} d\sigma \\ &= \iint_{\sigma_{xy}} [-2x^2y^2 + (x^2 + y^2)(x^2 - y^2)] d\sigma. \end{aligned}$$

where σ_{xy} – is a circle with radius $R=2$ on the Oxy plane and the center at the origin.

The double integral is calculated in the polar coordinate system.

$$\begin{aligned} \Pi &= \iint_{\sigma_{xy}} [-2r^4 \cos^2 \varphi \cdot \sin^2 \varphi + r^4 (\cos^2 \varphi - \sin^2 \varphi)] r dr d\varphi \\ &= \int_0^{2\pi} d\varphi \int_0^2 \left(\frac{-4r^4 \cos^2 \varphi \sin^2 \varphi}{2} \right. \\ &\quad \left. + r^4 \cos 2\varphi \right) r dr d\varphi = \int_0^{2\pi} d\varphi \int_0^2 -r^4 \cdot r \left(\frac{\sin^2 2\varphi}{2} - \cos 2\varphi \right) dr = \\ &= \int_0^{2\pi} d\varphi \int_0^2 -r^5 \left(\frac{1 - \cos 4\varphi}{4} - \cos 2\varphi \right) dr = \\ &= - \int_0^{2\pi} \frac{r^6}{6 \cdot 4} (1 - \cos 4\varphi - 4\cos 2\varphi) \Big|_0^2 d\varphi = \\ &= - \left(\frac{2^6}{24} - \frac{0^6}{2^4} \right) (1 - \cos 4\varphi - 4\cos 2\varphi) d\varphi = -\frac{8}{3} \varphi - \frac{1}{4} \sin 4\varphi - 2\sin 2\varphi \Big|_0^{2\pi} \\ &= - \frac{8}{3 \left(2\pi - \frac{1}{4} \sin 8\pi - 2\sin 4\pi - 0 + \frac{1}{4} \sin 0 + 2\sin 0 \right)} = -\frac{8}{3} \cdot 2\pi = -\frac{16\pi}{3}; \end{aligned}$$

The vector flow passing through the surface S is reduced to an integral and calculated on the basis of a double integral. The use of interdisciplinary integration in teaching mathematics in educational institutions improves the quality of lessons and improves the creative approach of students.

References

1. Сенчук Ю.Ф. Математический анализ для инженеров. НТУ. 2003 г.
2. Sh. R. Xurramov, Oliy matematika masalalar to'plami, nazorat topshiriqlari. 2-qism. Toshkent 2015y.
3. Макаров Е.Г. Mathcad: учебный курс. Питер. 2009 г.

DASTURLASHNING AYRIM IQTISODIY TADBIQLARI


Tursinboyeva Z.U., Ismoilova Z.T.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Iqtisodiyotning nazariy va amaliy masalalarini o'rganishda funksiyalardan keng foydalaniladi. Masalan, ishlab chiqarish funksiyasi (ishlab chiqarish natijalarini turli omillarga bog'liqligi), xarajatlar funksiyasi (ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan xarajatlar o'rtasidagi bog'lanish), talab funksiyasi (mahsulotga talab hajmi va narx, foyda kabi turli omillar orasidagi bog'lanishlar) kabi funksiyalar iqtisodiyotda ko'p qo'llaniladi.

Ishlab chiqarish funksiyalarining butun oilasi mavjud. Masalan, $y = f(x)$ ishlab chiqarish funksiyasini ko'rib chiqamiz, bu erda x - qiymat jihatidan xarajatlarning umumiy miqdori, y - qiymat jihatidan umumiy ishlab chiqarish. O'zining iqtisodiy ma'nosiga ko'ra $x \geq 0$ va $y \geq 0$. Ishlab chiqarish funksiyasi ma'lum texnologiyani aks ettiradi: texnologiyaning o'zgarishi ishlab chiqarish funksiyasining o'zgarishiga olib keladi.

Agar biz ishlab chiqarish funksiyasi qat'iy ravishda oshadi deb taxmin qilsak, ya'ni xarajatlarning har qanday o'sishi ishlab chiqarishning ko'payishiga olib keladi, u holda ishlab chiqarish funksiyasi $x = f^{-1}(y)$ teskari funksiyaga ega bo'ladi, bu ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan y hajm uchun ishlab chiqarish xarajatlari x ning miqdorini aniqlaydi, Bu qat'iy ortib boradi.



Yana bir misol sifatida aholining daromadi x va uning turli tovarlarga ehtiyoji y orasidagi bog'lanishlarni o'rganish uchun shved iqtisodchi olimi Tornkvist tomonidan taklif etilgan quyidagi funksiyalarini qaraymiz:

$$y = \frac{a(x-b)}{x+c} \quad (x > b)$$

bu yerda y – inson hayoti uchun I navbatda zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak kabi tovarlarga ehtiyoj ;

$y = \frac{a(x-d)}{x+c} \quad (x > d > b)$ bu yerda y – inson hayoti uchun II navbatda zarur bo'lgan televizor, mebel, kosmetika kabi tovarlarga ehtiyoj ;

$y = ax \frac{x-m}{x+c} \quad (x > m > d > b)$ bu yerda y – avtomobil, tilla bezaklar, dala hovlisi kabi qimmatbaho buyumlarga ehtiyoj .

Bu funksiyalar quyidagi iqtisodiy qonuniyatlarni ifodalaydi:

Daromad x ma'lum bir s, b, d yoki m qiymatdan oshgandan keyin tegishli tovarlarni xarid etish mumkin ;

Daromad x oshib borishi bilan I va II navbatda zarur bo'lgan tovarlarga ehtiyojni ifodalovchi y funksiya o'sishi sekinlashibdi ;

I va II navbatda zarur bo'lgan tovarlarga ehtiyojni ifodalovchi y yuqoridan a soni (to'yinish nuqtasi) bilan chegaralangan, chunki ularning iste'moli cheksiz o'sishi mumkin emas;

C ++ dasturida iqtisodiyotda aholining daromadi va uning turli tovarlarga ehtiyoji orasidagi bog'lanishlarni hisoblashning dasturiy ta'minotini ham ishlab chiqilgan.

Dastur kori quyidagicha:

```
#include <iostream>
using namespace std;
int main()
{
    system("color F0");
    float z, y1, y2, y3, a, b, c, d, m;
    z ; // insonning daromadi
    y1, y2, y3; // insonning turli tovarlarga ehtiyoji hajmi
    cout<<"z ="; cin>> z;
    a; // ehtiyoji chegarasi (to'yinish nuqtasi)
    c; // daromadning o'sishi
    cout<<"a ="; cin>>a;
    cout<<"c ="; cin>>c;
    cout<<"m ="; cin>>m;
    y1=a*z/(z+c);
    cout<<"y1 = "<<y1<<endl; // insonning 1-navbatdagi zarur tovarlarga ehtiyoji
    cout<<"d ="; cin>>d;
    d; // minimal daromad chegarasi
    m; // maksimal daromad chegarasi
    if(z>=d)
        y2=a*(z-d)/(z+c);
    else
        if ((z>=m) and (m>=d))
            y3=a*z*(z-m)/(z-c);
    cout<<"y2 = "<<y2<<endl; // insonning 2-navbatdagi zarur tovarlarga ehtiyoji
    cout<<"y3 = "<<y3<<endl; // insonning hashamatli tovarlarga ehtiyoji
    system("pause");
    return 0;
}
```

Daromad x oshib borishi bilan qimmatbaho buyumlarga ehtiyoj ham o'sib boradi va yuqoridan chegaralanmagan .

Qaror qabul qilish nazariyasining asosi sifatida matematika va dasturlash iqtisodiy ob'ektlar va jarayonlarni boshqarish (rejalashtirish, bashorat qilish, boshqarish) uchun keng qo'llaniladi.

Adabiyotlar

1. Минюк С.А., Ровба Е.А., Кузьмич К.К. Математические методы и модели в экономике: Минск. Тетрасистемс. 2002.
2. Хачатрян Н.К. Математическое моделирование экономических систем: М.: Экзамен. 2008.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ВУЗА

Ахмедова Н.М.

Навоийский государственный горно-технологический университет

Sohada amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning ana shunday natijalari xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o'rniga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ayollarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida to'laqonli ishtirok etishiga erishish, gender tenglik va reproduktiv salomatlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatini jahon hamjamiyati e'tirof etmoqda. Yangi O'zbekistonda bu borada qo'lga kiritilayotgan yutuqlar BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNISEF, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda ayollarning huquq va erkinliklarini har tomonlama ta'minlash yo'lida ulkan qadamlar qo'yildi. Davlatimiz rahbari yaqinda e'lon qilgan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" nomli muhim hujjatda ana shu islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon sifatida kun tartibidan joy oldi. Dastlab, O'zbekiston Prezidentining yangi strategik dasturiga bu borada alohida Milliy dastur qabul qilish rejasi kiritilgani diqqatga sazovor. Bo'lajak Milliy dastur mamlakat xotin-qizlari bandligini ta'minlash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni va nufuzini yanada oshirish, ularning o'z salohiyatini namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, gender tenglik, oila, onalik va bolalikni himoya qilish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishdek ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, navqiron yoshlarimizni, ayniqsa, qizlarimizni sog'lom va yetuk etib tarbiyalash, ularning qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarish, Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida kamol toptirish ishlari bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e'tibor markazida bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi paytdagi uyimizning farishtasi bo'lgan, farzandlarning barkamol insonlar etib tarbiyalashga munosib hissa qo'shayotgan ayollarimiz barcha islohotlarimizda faol qatnashmoqdalar. Bu esa o'z navbatida, hurmatli onalarimiz, opalarimiz singillarimizga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, yurtimizda olib borilayotgan davlat ishlarining samaradorligidir

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent. 2021y
2. A.M.Baxtigul "O'tmishga nazar" №SI-2(2021)
3. <https://yuz.uz/uz/news/yangilanayotgan-ozbekistonda-gender-tenglikning-huquqiy-asoslari>

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR ORQALI O'QUVCHILARDA OLMON TILIGA QIZIQISHINI RIVOJLANTIRISH

Xalilova Zilola Farmonovna

Navoiy davlat pedagogika institute

Frazeologizm (idioma) - u ikki yoki undan ortiq soʻz birikmasi boʻlib, tarkibi va tuzilishiga koʻra barqaror, yaxlit maʼnoga ega. Frazeologik birliklarning oʻziga xos xususiyati shundaki, ularni soʻzma-soʻz talqin qilib boʻlmaydi – maʼno yoʻqoladi. Frazeologizm soʻzlarning turgʻun (boʻlinmas) birikmasi boʻlib, barcha soʻzlar uchun bitta umumiy maʼnoga ega. Frazeologizmlar bir qancha muhim xususiyat va xususiyatlarga ega:

Frazeologizm tayyor til birligidir. Bu shuni anglatadiki, uni nutqida yoki yozuvida ishlatgan odam bu iborani xotiradan oladi va uni yoʻlda oʻylab topmaydi. Ular doimiy tuzilishga ega. Siz har doim frazeologik birlik uchun sinonim soʻzni tanlashingiz mumkin (baʼzan antonim).

Frazeologizm ikki soʻzdan kam boʻlmagan iboradir.

Deyarli barcha frazeologik birliklar ekspressivdir, ular suhbatdoshni yoki oʻquvchini yorqin his-tuygʻularni namoyon etishga undaydi. Har bir frazeologik birlik bir xil asosiy vazifani bajaradi - nutqning yorqinligi, jonliligi, ifodaliligi va, albatta, muallifning biror narsaga munosabatini bildirish. Frazeologik birliklardan foydalanganda nutq qanchalik yorqinroq boʻlishini tasavvur qilish uchun hazil yoki yozuvchi frazeologik birliklardan foydalangan holda kimnidir masxara qilishini tasavvur qiling. Nutq yanada qiziqarli boʻladi.

Baʼzan ot bilan ot, sifat bilan sifatdosh ham antonimik juftlikni hosil qilib qolishi mumkin: er-xotin, oʻgʻil-qiz, xom-pishgan, oʻtkir-oʻtmas.

Antonimlarni tahlil qilgan olimlar ular orasidagi ziddiyatlarda quyidagilar yotganligini taʼkidlaydi.

1. Gradual (darajalangan), koordinatsiya qilingan qarama-qarshiliklar: baland-past, toza-iflos, arzon- qimmat kabi.

2. Konversiya, yaʼni bir soʻz turkumidan ikkinchi soʻz turkumiga oʻtgan soʻzlardagi qarama-qarshiliklar: yosh-qari, katta-kichik, urush-tinchlik (sifatdan, feʼldan otga oʻtish holati mavjud)

3. Ikkilangan, yaʼni bir tushunchaning dixotolik holatiga asoslangan ziddiyatlar tuzli-tuzsiz, aqli-aqlsiz, oʻrinli-nooʻrin singari.

Demak, antonimlardagi maʼno ziddiyatini ochib berish uchun ularni qismlab, yaʼni semik tahlil qilish lozim. Ularni tashkil etgan barcha belgilar majmui-ideografik semalar ichidan differentsial semani ajratgan taqdirimizdagina antonimiya hodisasini anglashimiz, topishimiz mumkin.

Antonimiyani hosil qilayotgan semalar belgilar strukturasiga semantik komponent deyiladi.

Oʻzbek tilshunosi N.Mahmudov aytganidek, har bir xalqning oʻziga xosligi, oʻziga xos yashash va tafakkur tarzi doimiy ravishda tilda aks etadi: —Til xalqning tafakkur tarzi-yu milliy saviyasini, yashash tarzi-y ming yillik anʼanalarini, bir soʻz bilan aytganda, xalqning botiniy va zohiriy borligʻini aks ettiradi. Shuning uchun ham muayyan bir tushuncha bir xalqda mavjud boʻlsa, boshqasida mutlaqo boʻlmasligi mumkin.[13, 64-65].

Shuning bilan birgalikda, tarixan shakllangan vaziyatning oʻzgarishi mumkinligini unutmaslik kerak. Ijtimoiy–madaniyat taraqqiyoti inson hissiy dunyosiga taʼsir koʻrsatishi va ijobiy his-tuygʻularning mavqeysini kuchaytirishi kuzatiladi.

Inson hissiyotlari va tuyg'ularining ko'lami keng. Barcha hissiyotlarni shartli ravishda ijobiy va salbiylarga taqsimlash mumkin. Guvoh bo'lib turganimizdek, nutqimizdagi frazeologik birliklar ma'lum bir jamiyatda tan olingan muloqot qoida va tamoyillariga asoslangan hamda so'zlovchining aniq bir maqsadni ko'zlagan holda amalga oshirilgan nutqiy faoliyati hisoblanadi.

Frazeologik birlik hodisasi tavsifiga suhbatdoshlarning aniq bir maqsadga erishishga yo'naltirilgan faoliyati sifatida jondashish maqsadga muvofiqdir.

Frazeologizmlar o'tib ketmaslik xususiyatiga ega: ularning tarkibiga yangi komponentni kiritish mumkin emas. Ular so'zlarning barqaror ketma-ketligi bilan ajralib turadi. Frazeologik birliklarni aniqlash uchun boshqa atamalar idioma (yunoncha. idioma– "maxsus mulk"), frazeologik birlik, frazema, turkum ibora, frazeologik ibora. Har qanday tilda frazeologik birliklar individualdir, ularni tushunish kerak. Ular boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilinmaydi.

Frazeologik birliklar ular so'zlarning turg'un birikmalarini, nutqning burilishlarini, masalan: "chelaklarni urish", "burnini osib qo'yish", "miya yuvuvchidan so'rash" ... Frazeologik birlik deb ataladigan nutq navbati ma'no jihatdan bo'linmaydi, ya'ni uning ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nolaridan qo'shilmaydi. U faqat yaxlit, leksik birlik sifatida ishlaydi.

Frazeologik birliklar, ya'ni. frazeologik iboralar - alohida-formallik, takroriylik, ba'zan ekvivalentlik va so'z bilan o'zaro bog'liqlik kabi xususiyatlar bilan ajralib turadigan, bir so'zning murakkab ma'noli so'zlarning barqaror birikmalari, nutq navbati. Keling, ushbu belgilarni alohida ko'rib chiqaylik. Birinchi xususiyat - takrorlanuvchanlik. Bunda frazeologik ibora har safar yangidan o'ylab topilmaydi, balki tilda mavjud bo'lib, til jamoasi yoki jamiyatining aksariyat shaxslariga tanish bo'ladi. Dastlab frazeologik iboraning o'ziga xos muallifi bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik u umumiy mulk va lisoniy hodisaga aylanadi.

Frazeologizmlar- bu muallifga ega bo'lmagan mashhur iboralar.

Frazeologik birliklarning ma'nosi ifodaga hissiy rang berish, mazmunini mustahkamlashdan iborat.

Frazeologik birliklar yasalganda, ayrim komponentlar ixtiyoriy maqomini oladi: "Frazeologik birlikning ayrim hollarda qo'llanishi mumkin bo'lgan komponentlari frazeologik birlikning ixtiyoriy komponentlari, hodisaning o'zi esa ixtiyoriy komponentlar deyiladi. Frazeologik birlik shaklining xususiyati frazeologik birlikning ixtiyoriy komponentlari deyiladi.

O'quvchilarda frazeologik birliklarni dars jarayonida ko'proq qo'llash maqsadga muvofiqdir. Biz darsliklarda, o'quv jarayonida frazeologizmlardan samarali foydalansak u til o'rganuvchida tilni egallashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Chunki frazeologik ibora obrazlilik va hayotiy voqealarni o'z ichiga oladi.

Quyida olmon va o'zbek frazeologizmlarining ba'zi bir o'xshashliklari ko'rib o'tamiz

Herkunft der Redewendung

Der springende Punkt sein- (iboraning kelib chiqish tarixi)

Diese Redewendung geht, so sind sich die Quellen einig, auf den griechischen Philosophen Aristoteles zurück. Der auch als Naturforscher aktive Philosoph sah im Blutfleck, den er im Ei beobachtete, das heranwachsende Herz des Vogels. Dieser kleine Punkt springe, so Aristoteles, schon im Eistadium hin und her.

Iboraning kelib chiqish tarixi manbalarda yunon faylasufi Arastuga borib taqaladi. Tabiatshunos olim tuxumda kuzatgan qon dog'ida qushning o'sib borayotgan yuragini ko'rgan. Aristotelning fikricha bu kichik nuqta hatto tuxum bosqichida oldinga va orqaga sakrab turgan

Der springende Punkt sein-

Grundlegend für ein gutes Zusammenleben und eine erfolgreiche Integration in die Gesellschaft sind die Sprachkenntnisse. Die Sprache des Landes, in dem man lebt, zu beherrschen, ist der springende Punkt.

Tilni bilish asosiy bo`g`indir bugungi kunda Xorijiy tilni egallash bu- kelajak sari ildamlashdir . Frazologik birlik bu - (**springende Punkt**) **maqsadga erishish, tilni bilish** demakdir.

Wenn wir die Artikel richtig deklinieren wollen, müssen wir wissen, ob das Nomen maskulin, feminin oder neutral ist. **Das ist der springende Punkt.**

Yoki yana tahlil qiladigan bo`lsak- Olmon tilida otlar rod bilan birga ishlatiladi . Otning qaysi rodga tegishliligini bilishimiz bu – ( **springende Punkt**) ya`ni **bilimimiz ko`rsatkichidir.**

Und genau hier ist der **springende Punkt.** Sollten die Schülerzahlen weiter zurückgehen, können wir im nächsten Jahr nicht mehr so viele Kurse anbieten.

Kelgusi yil ko`p kurslar tashkil qilishimasligimiz uchun o`quvchilar sonini aniq tahlil (**o`zgarishlarni aniqlamoq**) qilishimiz kerak.

zwei Fliegen mit einer Klappe schlagen

zwei Dinge mit einer Aktion erledigen

bir kesak bilan ikki quyonni urmoq – ayni bir paytda ikki narsani ko`zlab ish tutmoq (amalg oshirmoq);

ein langes Gesicht machen- enttäuscht sein

boshi osmonda – nihoyatda xursand;

jemandem auf die Finger sehen-jemanden kontrollieren oder genau beobachten
tirnoq orasidan kir qidirmoq – yomon niyat bilan

jemandem auf den Geist gehen - jemandem auf den Nerven gehen

jemandem auf den Wecker gehen- jemandem auf den Nerven gehen
kimningdir asabiga tegmoq,

jemandem auf den Schlips treten- jemanden beleidigen, jemanden kränken
kimningdir ko`ngliga tegmoq, kimnidir azoblamoq

auf Messers schneide stehen- von ungewissem Ausgang sein, unsicher sein.
Ishonchsiz bo`lmoq , tig`ustida turmoq

Blau sein-betrunken

Qizargan-ichgan odam

Einen Dachschaten haben-nicht ganz bei Verstand sein, verrückt sein,

Tomi ketgan- o`zida emas

Das handtuch werfen-aufgeben, resignieren, kapitulieren, etwas nicht weiter versuchen-
taslim bo`lmoq, istefoga chiqmoq, boshqa harakat qilmaslik.

Das Herz auf der Zunge tragen- offen über seine Gefühle sprechen, sofort sagen , was einen beschäftigt

Ko`nglini ochmoq, ochiq –sochiq gapirmoq

Das kann kein Schwein lesen- etwas ist so unleserlich geschrieben, das niemand es lesen kann, Das kann doch keiner lesen kann.

Chivinni buyoqqa botirib yozganday- hech kim o`qiy olmaydi.

Wie werden das Kind schon schaukeln.- wir werden es schon schaffen.wir werden die Angelegenheit zu einem guten Ende bringen.

Ketmoni osmonga uchmoq`-Hatija qila olmoq.

Das pfeifen die Spatzen von den Dächern.- Das weiß jeder. Das ist kein Geheimnis mehr.
Oyni etag bilan yopib bo`lmaydi. Hammaga ma`lum.

Das Schwarze schaf- jemand , der sich von den anderen Mitgliedern einer Gruppe negaativ unterscheiden- quloq, yoki – do`st bo`lib yurib, boshqalarga do`stini sirini fosh qiluvchi odamga nisbatan.

Den Bock zum Gärtner machen- jemandem eine Aufgabe übertragen, für die er aufgrund seiner Eigenschaften oder Interessenlage nicht geeignet ist.

Birovning ishini qilib o`zini yaxshi ko`rsatmoq.

Den Braten riechen- etwas ahnen, etwas wittern, eine Gefahr oder eine Falle rechtzeitig bemerken, eine Trend erkennen- Oldindan bilmoq. (Voqea, holatni)

Den Löffel abgeben -sterben- kuni bitmoq, o`lmoq, ko`z yummoq

Den Vogel abschießen- einen großen Erfolg oder Misserfolg haben, etwas hervorragendes oder Peinliches tun.

Omad va omadsizlikka uchramoq

Der springende Punkt sein- das Wesentliche sein, das entscheidende Kriterium sein, das sein, worauf es ankommt.- kerakli bo`lish

Die Ohren spitzen- aufmerksam zuhören , qulog`i ding bolmoq.

Die Beine in die Hand nehmen- sehr schnell rennen, schnell weglaufen.

Oyog`ini qo`liga olmoq

Die Daumen drücken - jemandem viel Glück oder gutes Gelingen wünschen

Omad tilamoq, yaxshi niyat qilmoq

Die erste Geige spielen- den Ton angeben, führend sein, im Vordergrund sein.

Birinchi bo`lmo`q, oldinda yurmoq,

Die Fäden in der Hand halten –die Kontrolle und das Sagen haben.

Nazoratni qo`liga olmoq, Kalavani uchi qo`lida.

Jemanden durch den Kakao ziehen- sich über jemanden lustig machen

Kimgadir quvonch ulashmoq, xursand qilmoq

Eine Auge zudrücken - Jemandem einen Fehler nachsehen

Kimgadir ko`zini qismoq.

Ein eigentor schießen- sich durch in eine schwierige Lage bringen; sich selbst Schaden zufügen.

Qiyin ahvolga olib kelmoq, o`ziga zarar qilmoq.

Eine Flasche sein - unfähig sein, sehr schlecht sein.

Aqlsiz bo`lmoq, zaif bo`lmoq.

Eine Hand wäscht die andere- Man hilft sich Gefälligkeit zieht eine Gegenleistung nach sich.

Biri - birini tortadi, biri biriga hamdard bo`lmoq, biri biriga mehribon.

Jemandm einen Stirch durch die Rechnung machen-

Jemandes Pläne durchkreuzen, jemandes Vorhaben verhindern.

Kimnidir ko`raolmaslik, jizzakilik, yomonlik qilmoq.

Erste Sahne sein-von bester Qualität sein, sehr gut sein.

Birinchildan, birinch bo`lmoq, nuqra, asl bo`lmoq.

Etwas auf dem Kasten haben- besondere besitzen, etwas besonders gut können. Kallasi bigiz bo`lmoq, Ko` p narsani biluvchi, bilimdon, dono, aqli,

Jemandem Feuer unterm Hintern mache jemanden antreiben, jemandem Druck machen.

Orqasidan pichoq sanchmoq, kimnidir orqasidan yomon fikrda bo`lmoq.

Etwas für einen Apfel und Ei bekommen- etwas sehr billig bekommen.

Tekin olmoq, Arzimas narxda xarid qilmoq.

Ganz Ohr sein- aufmerksam zuhören

Diqqatli, Qulogi eshigda.

Das Geld zum Fenster hinauswerfen- Geld verschwenden, Geld für unnütze Dinge ausgeben.

Beli og`rimaganni beli og`rigan bilan nima ishi bor, behudaga pulni sarflamoq, ayamay xarajat qilmoq.

Das Gras wachsen hören- gut hören, Anzeichen erkennen, eine Entwicklung vorherzusehen.

Yerni tagida ilon qimirlasa biladi. Hamma voqealarni oldindan biluvchi.

Grün hinter den Ohren sein- noch jung und unerfahren sein.

G`o`r, yosh tajribasiz bo`lmoq.

Den Gürtel enger schnallen- sich einschränken, kürzertreten, sparen.

Tejamkor, (qattiq, ziqna bir tinga tikka turadigan odamga nisbatan qo`llaniladi)

Das Haar in der Suppe suchen/finden.

Das Negative sehen, etwas auszusetzen haben, nörgeln.

Noshukur, faqat ayb qidiradi, norozi, salbiy fikrda, pessimistik fikrdagi odam.

Har bir frazeologik tushuncha millatning ko`zgusidir, ya`ni unda har bir millat til tashuvchilarining madaniyati va tarixi aks yetadi. Shuning uchun ham frazema madaniy axborotlarni o`zida mujassam yetgan kichik bir matndir.

Tilshunoslikda ilmiy-tadqiqotlar paradigmalarining o`zgarishi frazeologiyaga ham o`z ta`sirini ko`rsatdi. Ayniqsa, asrlar osha shakllanib kelgan, millatning milliy-madaniy an`analarini o`zida na`moyon yetuvchi iboralarni lingvomadaniy va yetnomadaniy jihatdan qiyosiy tadqiq qilish zarurati tug`ildi.

Adabiyotlar:

1. Jamol Jalolov “Chet tili o`qitish metodikasi” - T., 2017

2.Denis de Rougemont: Diye Liyebe und das Abendland. Aus dem Franz. von Friederich Scholz und Irène Kuhn. Diogenes, Zürich 1987, ISBN 978-3-257-21462-.

3.Robert Schöller u. a. (Hrsg.): Tristan Mythos Maschine. 20. jh. ff. Königshausen & Neumann, Würzburg 2020, ISBN 978-3-8260-7220-8.

ASTRONOMIYA FANINI O`QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNINH AHAMIYATI

Bozorova A. M., Mirzaqandova S. X., Sayfullayeva G. I.

Navoiy davlat pedagogika institute

Keyingi yillarda oliy o`quv yurtlari malakali kadrlar tayyorlashda zamonaviy o`qitish usullari interaktiv va innovatsion texnologiyalardan foydalanish doirasi kengayib bormoqda. Talabalarga dars o`tish jarayonida pedagogik texnologiyalar, pedagogik maxorat asosida bilim, tajriba va interfaol usullarni qo`llash ularga fanlarni chuqur o`zlashtirishlariga va yetuk malakaga ega bo`lishlariga olib keladi.

Innovatsiya tushunchasi mustaqillik yillarida leksikonimizga kirib kelgan yangi iqtisodiy termin bo`lib, inglizcha – innovation so`zidan olingan va yangiliklar kiritish, o`zgartirishlar degan ma`noni anglatadi. Innovatsion texnologiyalar asosan pedagogik jarayon va o`qituvchi, talaba faoliyatiga yangiliklar va o`zgartirishlar kiritish demakdir.

Dars berish jarayonida innovatsion texnologiyalar turli interaktiv metodlar ko‘rinishida olib borilishi mumkin, chunki har bir dars beruvchi pedagogning o‘z dars o‘tish uslubi bor. Sifat va samaradorlik bosqichida ta’lim texnologiyasiga yangi shakllangan zamonaviy innovatsion texnologiyalar va pedagogik texnologiyalar kirib keldi. Bu texnologiyalar har bir o‘tilgan o‘quv semestrlari davomida takomillashtirilib, zamonaviylashtirilib va shakllantirilib borilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiya o‘zining gumanitar va tabiiy fanlar yutuqlari bilan bog‘liq xususiy nazariyasiga ega; u birinchi galda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘qitishning axborotli vositalaridan, didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi. Kelajakda ta’lim taraqqiyotining xaqqoniy dvigateli sifatida o‘qituvchi faoliyatini yangilashga, ta’lim-tarbiya jarayonini maqbul (optimal) qurishga, talaba yoshlarda xur fikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion (ingliz.) - yangilikni kiritish (tarqatish). Innovatsiya deganda, muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, axoli, jamiyat, guruxga, yangi, nisbatan turg‘un (unsur) elementlarini kiritib boruvchi maqsadiga muvofiq o‘zgarishlarni tushuniladi. Hozirgi kunda bu innovatsiya o‘zgarishi jarayoniga ikki xil qarash mavjud bo‘lib, birinchi qarashda, xayotga joriy etilgan qandaydir yangi g‘oya yoritiladi va ikkinchi yondashuvda, aloxida - aloxida kiritilgan yangiliklarning bir-biriga o‘zaro ta’siri, ularning birlamchi, raqobati va natijada birining o‘rnini ikkinchisi egallashidir.

Innovatsion jarayonning bosqichlari quyidagi ketma- ketlikda amalga oshiriladi:

- yangi g‘oya tug‘ilishi yoki yangilikning paydo bo‘lishi (kashfiyot bosqichi) deb yuritiladi.
- ixtiro qilishlik - yangilik yaratish bosqichi;
- yaratilgan yangiliklarning amalda qo‘llay bilish bosqichi;
- yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi;
- muayyan sohada yangilikka xukmronlik qilish bosqichi. Pedagogik innovatsiyada “yangi” tushunchasi markaziy hisoblanib, pedagogik fanda - xususiy, shartli, maxalliy va subyektiv yangilikka qiziqish uyg‘otadi.

Ilmiy yo‘nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik - bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya va boshq. “Innovatsiya” - bu ta’lim; ma’lum bosqichlari bo‘yicha rivojlanadigan jarayon. Innovatsiya jarayonning kechishini 4 ta asosiy qonuniyati mavjud bo‘lib, ularni quyidagicha talqin qilinadi:

Pedagogik innovatsiya muxitining ayovsiz bir sharoitda emasligi qonuni. Ayovsizlik qonunida pedagogik jarayon va xodisalar to‘g‘risidagi tasavvurlar buziladi, pedagogik ong buziladi, pedagogik yangilik baxolanadi. Misol tariqasida “Dunyoning geotsentrik va geliotsentrik sistemalarning qabul qilinishi jarayonidagi pedagogik ongning o‘zgarishi va planetalarning terayektoriyalari xaqidagi xaqiqatni amalga oshirish uchun ayovsiz qurbonlik berilganligini aytib o‘tish mumkin.

Nixoyat amalga oshirish qonuni yangilikning xayotiyligi bo‘lib, erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi. Yuqorida keltirilgan dunyo sistemasi uchun bir necha asrlar davomida xukumronlik qilgan dunyoning geotsentrik sistemasi o‘z o‘rnini ongli ravishda geliotsentrik sistemaga bo‘shatdi. Natijada markazida quyosh turuvchi geliotsentrik sistema qaror topdi.

Komillashtirish qonunida pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipga tushirish va amaliy harakat tendensiyasiga ega bo‘ladi.

Pedagogik innovatsiyaning davriyligi va qaytishi qonuni bo‘yicha yangilik, yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan xolda kuchaytirishi;
- pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi. Pedagogik texnologiyalar - pedagogik texnologiyalar masalalarining muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy - tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya - bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruxga gurux, va ularga baxo bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u talabaning extiyojidan kelib chiqqan xolda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit xolatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik haritasini har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarning imkoniyati va extiyojidan kelib chiqqan xolda tuziladi. Bunday texnologik haritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiyy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar, usullarini bilish kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik haritasiga bog'liq. Dars prezentatsiya usulida o'tilishi uchun avvalo beriladigan mavzu asosida slaydlar tayyorlanadi. Shu sababli slaydlarni tayyorlashda avvalo mavzuni to'la yoritish, rasmlar va jadvallarni aniq ko'rinadigan qilib (xaddan tashqari uzun bo'lmasligi) va eng asosiysi talabalar ko'zlarini toliqmasligini hisobga olish kerak.

"Quyosh sistemasi va sayyoralar" va "i va sayyoralarulduzlar" mavzusi bo'yicha mexanizmlarni multimediya ko'rinishida tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rasmlarni imkon qadar tarqatma materiallar ko‘rinishda berib, asosiy tushunchalarni o‘qituvchi tomonidan tushuntirilsa, bu talabalarga ancha yengillik yaratadi. O‘qitish jarayonida talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas’uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga, pedagogga o‘zi tanlangan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o‘quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo‘llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Biz ulardan ba’zilari xaqida to‘xtalib o‘tamiz va ularni o‘tkazish tartibi xaqida to‘xtalib o‘tamiz:

“TARMOQLAR” metodi - talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan. “3x4” metodi - talabalarni erkin fikrlash, keng doirada turli g‘oyalarni bera olishi, ta’lim jarayonida yakka, kichik gurux holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta’rif bera olishiga qaratilgan.

“BLIS-O‘YIN” metodi - harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosida ko‘p, xilma-xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan. Ushbu keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo‘lishlariga, hamda mutaxassislarga kerakli bo‘lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Pedagogning innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shartsharoitlarga bog‘liq. Unga pedagogning tayinli muloqoti, qarama-qarshi fikrlarga nisbatan munosabati, turli xolatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida pedagog o‘z bilim va ilmiy faoliyatini ta’minlaydigan keng qamrovli mavzuga ega bo‘ladi. Pedagog faoliyatida o‘z-o‘zini faollashtirish, o‘z ijodkorligi, o‘z-o‘zini bilishi va yaratuvchiligi motivlari ahamiyat kasb etadi, bu esa pedagog shaxsining kreativligining faolligini shakllantirish imkonini beradi.

Yuqorida bildirilgan fikr mulohazalardan shunday xulosalarga kelish mumkin:

- ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning mustaxkam nazariy bilim, faoliyat, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy maxoratga aylanishini ta’minlash maqsadida o‘qitish jarayonida yangipedagogik texnologiyadan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda.

- ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani tadbiq etish kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan umumiy jarayon mazmunining sifat jixatdan o‘zgarishini ta’minlaydi.

- yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g‘oyalardan foydalanish asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmaning bajarilish holatining sifat ko‘rsatkichiga ega bo‘lishiga olib keladi.

- barkamol shaxs va malakali mutaxassislarning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi faoliyatlari hamda ularning samarasi ijtimoiy taraqqiyotning tezlashuviga olib keladi.

- har bir darsda o‘qituvchi tomonidan talabalar uchun beriladigan mavzuga mos keluvchi qiziqarli savollar tayyorlanishi talabalarning o‘tilgan mavzuni eslab qolishi uchun vosita bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Avezov A.X., Hakimova S.H., Hamroyeva Y.A. Analitik geometriya va chiziqli algebra bobini takrorlashda grafik organayzer metodlari // Scientific Progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1680-1688.

2. Avezov A.X., Amrullayeva A.N., Namozova M.M. “Aqliy hujum” va “Keys study” metodlari yordamida “funksiya hosilasi” mavzusini o‘qitish // Scientific Progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – С. 1689-1697.
3. Курбонов Г.Г. Преимущества компьютерных образовательных технологий при обучения темы скалярного произведения векторов. Вестник наука и образования. 2020. №16(94). Часть.2. стр 33-36.
4. Аvezов А.Х. Некоторые численные результаты исследования трехмерных турбулентных струй реагирующих газов // Вестник науки и образования. – 2020. – №. 17-2 (95), С. 6-9.
5. Аvezов А.Х., Жумаев Т.Х., Темиров С.А. Численное моделирование трехмерных турбулентных струй реагирующих газов, вытекающих из сопла прямоугольной формы, на основе Ке-модели турбулентности //Молодой ученый. – 2015. – №. 10. – С. 1-6.
6. Курбонов Г.Г., Зокирова Г.М., Проектирование компьютернообразовательных технологий в обучении аналитической геометрии. Science and education. 2:8(2021), Pp. 505-513.
7. Avezov, A.Kh., Akhmedov, M.S., Saidzhonova, M.S., Ata-Kurbanova, F.B. Numerical simulation of three-dimensional turbulent reacting gas jets arising nozzle rectangular based" K-ε" turbulence models //Journal of Multidisciplinary Engineering Science and Technology. – 2015. – №. 2. – С. 7.
8. Avezov A.X., Raxmatova N. Eyler integrallarining tadbiqlari // Scientific progress, 2:1 (2021), с.1397-1406.
9. Умарова У.У. “Тўпламлар назарияси” мавзусини ўқитишда “Кластер” ва “ПАЗЛ” методлари // Scientific progress, 2:6 (2021), p. 898-904.
10. Умарова У.У. “Жегалкин кўпҳади” мавзусини ўқитишда “зинама-зина” методини қўллаш технологияси // Scientific progress, 2:6 (2021), p. 1639-1644.
11. Аvezов А.Х., Hakimova Sh.H. Hamroyeva Yu.A. Analitik geometriya va chiziqli algebra bobini takrorlashda grafik organayzer metodlari // Scientific progress, 2:6 (2021), с.1680-1688

TEXNOLOGIYA FANIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

**Rashidova N. N., Egamova F. I., Sayfullayeva G. I.
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti**

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'zni va ro'li benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarining bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

INNOVATSIYA (inglizcha innavation)-yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

-O'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

-O'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

-O'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan xolda kuchaytirishi;

-Pedagog va O'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi. Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, ham da o'qitish jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va O'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb xisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatni tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida O'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijobiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baxo bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha anashu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqa xolda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. «Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi»ni amalga oshirishda inovatsion pedagogik texnologiyalar. Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zaruriyat ekanligi, Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zaruriyat ekanligi. bo'lajak o'qituvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalar nazariy asoslari bilimlari bilan qurollantirish; yangi pedagogik darajada pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishlari uchun zarur mahoratlarga ega bo'lishlari; zamonaviy pedagogik texnologiyalar, g'oyalar maktablar, yo'nalishlar, keng turlarida yo'l topa bilish mahorati; pedagogik faoliyatni ijodiy va metodik to'g'ri bajarishga tayyorlikni shakllantirish; mustaqil ishlash, mustaqil bilim olish, o'zini tarbiyalash va o'zini mutaxassislik darajasini doimiy oshirib borishga intilishni faollashtirish zarurligi aytilgan.

Adabiyotlar

1. Султанова, С. М., Нурматова, И., Орзигул, Х. (2021). Совершенствование финансового анализа в информационной системе бухгалтерского учета АО “Узбекистон Темир Йуллари”. “Ўзбекистон транспорт тизимида рақамли ва инновацион технологияларни иқтисодий самарадорлигини баҳолашнинг долзарб масалалари”, 2(1), 137-142.
2. Султанова, С. М., Нурматова, И. (2021). Темир йўл транспорти саноат корхонасининг солиқ юки таҳлили. ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ, 5(5), 23-28.
3. Sultanova, S., Kolesnikova, TD, Smolennikova, L., Strelnikova, N. (2021). Generation of an instrument base for analysis of economic processes for the purpose of building a model of spatial development of regions in the context of global challenges. Attended in international conference on economics, management and techlogies 2021 (ICEMT 2021), 1(1), 134-145.
4. Султанова, С. М., Исмаилова, Н., Нурматова, И. (2020). Модульная система обучения как фактор повышения профессиональной компетентности будущего специалиста. «Ўзбекистонда узлуксиз таълимни ривожлантиришнинг долзарб масалаларига оид илмий-тадқиқотлар» мавзусидаги Республика илмийназарий онлайн-конференция, 3(3), 278-289.
5. Султанова, С. М., Джуманова, А. Б. (2020). Преимущества учета затрат и финансовых результатов внутрипроизводственных сегментов предприятия. ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ, 68(11), 76-77.
6. Султанова, С. М., Джуманова, А. Б. (2020). Практические вопросы информационного обеспечения учётного процесса в АО «Ўзбекистон темир йўллари». ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ, 68(11), 90-93.
7. Султанова, С. И. Н. (2020). Роль МСФО в системе корпоративного управления предприятием. Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации, 1(58), 57-60.
8. Sultanova, S. (2020). PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP IN THE RAILWAY INDUSTRY OF UZBEKISTAN. Journal of Critical Reviews, 7(5), 327-329.
9. Султанова, М. С. (2019). Факторный анализ деятельности АО "Ўзбекистон темир йўллари". Актуальные вопросы совершенствования бухгалтерского учёта, статистики и налогообложения организаций, Россия, 1(1), 104-106.
10. Sultanova, S., Ismailova, N. (2019). Assessment of the innovative potential of the enterprise. Moliya, 1(2), 103-108.

O'QUVCHILARNI KASBGA YO'LLASHDA SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH

Meylieva M. S.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Kasb tanlashga yo'llashda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning maqsadi o'quvchilarga kasbni to'qri tanlashga, eng avvalo ularning xar biri o'z shaxsiy sifatlariga mos kasbni topib olishida yordam berishiga qaratiladi. Kasb tanlashga yo'llashda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni shunday tashkil etilmoqi kerakki, ularda o'quvchilar kasblar olami va mehnat faoliyatining turlari bilan tanishibgina qolmay, o'zlarini ishlab chiqarish jarayonining asosiy ishtirokchisi sifatida baqolash imkoniga ega bo'lsin. Kasb tanlashga yo'llashda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarda kasblar olamini mustaqil xolda bilish, tanlanayotgan kasbning talablarini o'z shaxsiy sifatleri bilan qiyoslay olish, o'z mayli, qobilyati, salomatligi tanlanayotgan kasbga muvofiqligini, to'qri baholash ko'nikmalari shakllanishi lozim. Bularning xammasi xar bir o'quvchi kasbni to'qri tanlashida, uni egallashning eng maqbul yo'lini belgilab olishida yordam beradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'quvchilarni kasbni ongli ravishda tanlashga, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularda moddiy ishlab chiqarish, fan, texnika va boshqa sohalarga oid kasblarni egallashga qiziqishini shakllantirishda ko'p jihatdan yordam beradi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kasbga yo'llash ishlari o'quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichlarda olib boriladi, bunda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnatga bo'lgan ijtimoiy qiziqishlarni, o'quvchilarda umuman mehnat haqida tasavvurlarini shakllantirish;
- mehnatga muhabbat, mehnat ahliga hurmat hislarini singdirish, unumli mehnatga ijtimoiy mayllarini shakllantirish;
- barqaror kasbiy qiziqishlar va mayllarni shakllantirish va rivojlantirish;
- mutaxassislikni, kasbni tanlash va uni o'zlashtirish yo'llarini tanlash maqsadida o'tkaziladi.

Texnika to'garaklaridagi mashg'ulotlarda olib boriladigan kasbga yo'naltirish ishi mazmuni o'quvchilarni to'garak yo'nalishiga muvofiq kasblar, predmetlar va mehnat texnologiyasi bilan, ishchi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, mazkur kasbga oid mutaxassislar tayyorlash shartlari bilan, ijodiy ish va ana shu kasb egalarining kasbiy o'sish istiqbollari bilan, ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyati o'quvchilar tashkilotlarida, texnik ijodkorlik to'garaklarida, bozor iqtisodiyoti muammolarini ijodiy hal qilish masalalari bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi.

To'garaklarda o'tkaziladigan mashg'ulotlar o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, qiziqishlarini, shuningdek bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda ularni kasbga yo'naltirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Texnika ijodkorligi to'garaklari o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarishga, texnika va fanga bo'lgan qiziqishlarini kengaytirishga yordam beradi, ijodiy va texnikaviy tafakkurni rivojlantiradi, konstruksiyalash, modellashtirish va ratsionalizatorlik ishi malakalari va ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tegishli to'garakda o'quvchilarning muvaffaqiyatli shug'ullanishlari faoliyatning muayyan turiga qiziqishini rivojlantiradi, bajariladigan ishga ijobiy munosabatda bolishni shakllantiriladi. Bolalarning qiziqishlari esa ularning maylari bilan chambarchas bog'langandir. O'quvchilarda qiziqishlar va mayllarning rivojlanishi ko'p jihatdan to'garaklarning mashg'ulotlarida ularning bilish faoliyati to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liqdir.

Bilish faoliyati o'quvchining muayyan ish turini muvaffaqiyatli bajarishga bo'lgan shaxsiy qobiliyatini aniqlashga, uning kasbiy maqsadini shakllantirishga imkon beradi. Shu boisdan bilish faoliyati tashkil qilingan chog'da kasbga oid axborot o'quvchilarga o'z vaqtida yetib borishi va ularning imkoniyatiga mos bo'lishi muhimdir.

Ma'lumki, mashg'ulotlar chog'ida o'quvchilarda umumtexnikaviy, umummehnat va maxsus bilimlar hamda ko'nikmalar shakllanadi. O'quvchilar ishlab chiqarishda ommalashgan asboblardan va moslamalar bilan ish ko'radilar, ba'zan esa ularni o'zlari ham tayyorlaydilar. O'quvchilarning texnik ijodkorlik to'garaklaridagi faoliyati ko'pgina hollarda ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan muayyan buyumlarni tayyorlash bilan ham bog'liqdir.

Kasbga yo'naltirish tizimi hayot yo'lini tanlab olishda, kasbga yo'naltirishda mashinosozlik va mashinashunoslik, fermer xo'jaligi dehqonlari va mehnatkash ziyolilarning saflarini to'ldirishda yoshlarga ko'maklashishi va umuman mehnat resurslarini oqilona taqsimlashda ta'sir o'tkazishi lozim.

Yosh avlodni kasb tanlashga yo'naltirish davlat tizimida maktab yetakchi bo'g'in hisoblanadi. Maktab o'quvchilarda kasbga qiziqishni uyg'otishda va bitiruvchilarni kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlashda asosiy tayanch nuqtasidir.

Mehnat ta'limi o'quvchilarni turli kasblarning xususiyatlari, ulardan birini to'g'ri tanlash shartlari to'g'risida bilimlarning muayyan majmuasi bilan qurollantirishni; ularda kasbiy va ijtimoiy faoliyatning har xil turlariga ijobiy munosabatda bo'lish hissini tarbiyalashni; asosli kasbiy shakllantirishni ko'zda tutadi.

Mehnat ta'limisiz o'quvchilarni kasblarni ongli ravishda tanlashga samarali tayyorlash mumkin emas. Ana shu tarkibiy qismning ijtimoiy nuqtayi nazardan qaraganda ahamiyati shundaki, shu tarkibiy qism tufayli kasbni tanlash erkinligi doirasi kengayib boradi: yigit yoki qiz ishlab chiqarish va kasblarning turli xillarini, mehnat sharoitlarini, u yoki bu kasbni qayerda o'rganish mumkin ekanligini va shu kabilarni qanchalik ko'p bilsa, uning kasb tanlashi shu darajada ongli bo'ladi.

Xulosa tariqasida shuni ta'kidlash mumkinki, mehnatning hozirgi turlari g'oyat ko'p va xilma-xil bo'lgan, kuch ishlatish imkoniyatlari juda ham kengayib borayotgan hozirgi sharoitda mehnat ta'limi (kasbiy axborotni, kasbiy targ'ibotni) to'g'ri yo'lga qo'ymay turib, yoshlarning to'g'ri kasb tanlashi ancha qiyindir.

Adabiyotlar

1. Абу Райхон Беруний. Хикматлар. – Тошкент: «Ёш гвардия», 1973.
2. Мусурмонова О.. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. Тошкент, Ўқитувчи, 1996.
3. Мавлянова Р.ва бошқалар. Педагогика. – Тошкент: «Ўқитувчи» 2001. 37-39 бетлар

ИНСОН СИФАТЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ.

Рахманова М. Қ., Маъмурбоев Д.
Чирчиқ давлат педагогика университети

Миллий муҳитда шахслараро муносабатларни мувофиқлаштиришда асосбу оилавий рухий таъхис воситалари ва усулларида фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлиб, улар оиланинг меъёри фаолият кўрсатишига, ундаги зиддиятларнинг турлари ва уларнинг шаклланиш сабабларини ўрганишга, профилактикасини ташкил этишга ҳамда шахслараро муносабатлар мувофиқлигини таъминлашга ёрдам беради.

Дарҳақиқат, оилавий муносабатлар ниҳоятда мураккаб ва бир бирига боғлиқ бўлиб, қадим замонлардан башарият аҳлининг диққат марказида бўлган. Одамни билиш жуда мушқилдир. Унсурулмаолии Кайковус (1020 - 1099) ўзининг “Қобуснома” (ўғли Гилоншоҳга ёзган панду насиҳатлар китоби)-да айтадики илмларнинг мўътабари одамларни билишдир, кишиларни айби ва ҳунари кўпдир, бир айб борки юз минг касбни ёпади ва бир касб борки юз айбни ёпади. Бу илм фаросат, киёфашунослик ва тажрибалар”...

Кайковус одамшуносликни фалсафий илм деб ҳисоблайди.

У одамни ҳайвондан уйғунлигини кўрсатиш учун шундай ёзади: “Бошқа жонворлардан одам ўн даража ортиқдир ва бу афзаллик одамнинг баданига бордир: беши (одам танасининг ташқи томонида зоҳир бўлади) ва беши ичида яширингандир. Бешта яширинган нарсалар шулар: бир нарсани ёд қилмоқ, ҳамиша эсда сақламоқ, ҳаёл қилиш (тахайюл), фарқ қила билиш ва нутқ; бештаси одам танасининг ташқи томонидан кўринади: эшитув, кўрув, хид билиш, тотмоқ, сезиш. Булар бошқа жониворларда ҳам бор, аммо одамдагидек эмас. Шунга кўра, одамзод бошқа жониворлар устидан ҳукмронлик қилувчи подшоҳдир”.

Одабийлик ахлоқий сифат. Одабийлик сифатлари – эзгулик, мурувватлилик, инсофлилик, хайрихоҳлик, хушфезллик, фазилатли, жамият аҳлига ҳимматли бўлиш ва бошқалар. Инсон сифатларига хос бўлган одабийликга камтаринлик, самимият, аҳдига вафо қилиш, хулоса, ахлоқу одоб соҳиби ҳисобланади.

“Олим бўлиш осон, одам бўлиш қийин”. Бу халқ мақолида бир дунё маъно бор.

Инсон камолотига, яъне одабийлик даражасига эришмоқ мушқилдир. Халқ тамоиллари юзасидан инсон сифатлари унинг одабийлик мезонлари билан ўлчанади. Ҳақиқаттан ҳам, одам қандай касбу малака ё билим соҳасига эга бўлмасин, у аввало одам бўлиши керак. Фақат шундан сўнг у мутахассис, бирор соҳа ишбилармони, меҳнатдўсту ватанпарвар бўлади. Агар ички дунёсида одабият жавҳари бўлмаса ва ё маънавияти, билим дунёсини бойитмаса, у том маънода одам бўла олмайди.

Ҳар бир инсон қайси касб эгаси бўлмасин ҳурмату иззат ва яхши обрўга лойиқ бўлишни хоҳлайди. Атрофидаги инсонлар уни эътироф этишларини истайди. Аммо бунга эришиш учун америкалик буюк психолог Дейл Корнеги маслаҳатларини бажариш лозим: “Сиз билан муносабатда бўлганларнинг маъқуллашларини истайсизми, асл хислатларингизни эътироф этишларини хоҳлайсизми, кичкинагина оламингизда катта аҳамиятга эгалингизни англамоқчимиз?”

Бунинг учун олтин қоидага амал қилайлик ва бировларга улардан нимани олмоқчи бўлсак, ўшани берайлик.

«Безовта қилганим учун кечиринг...», «илтифот кўрсатсангиз...», «марҳамат қилинг...», «илтимос...», «агар эътироз билдирмасангиз...», «миннатдорчилик билдираман...» каби назокатли жумлалар бир зайлдаги ҳаёт оқимига ҳусн бағишлайди ва яхши тарбиянинг белгиси ҳисобланади.

Жиловланмаган ҳақиқатнинг мазмуни шундаки, сизга учраган деярли ҳар бир инсон, қандайдир жиҳати билан ўзини баландроқ тутати, агар унга ўз оламида муҳим аҳамиятга эгаллигини самимий тан олишингизни англата олсангиз, билинг-ки, дилига тўғри йўл топасиз.

